

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI**

**N.N. RAHIMOVA, V.A. KONDRASHOVA**

---

---

**SARTAROSHLIK ISHLARI MATERIALLARI  
VA ASBOB-USKUNALARI**

---

---

*Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma*

UO‘K: 687.53.05(075)  
KBK: 38.937  
K67

*Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi ilmiy-metodik  
birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash  
tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

Ushbu o‘quv qo‘llanmada sartaroshlikda ishlatiladigan materiallarni amalda qo‘llash yo‘llari, ularning kimyoviy va fizik tarkibi hamda ularning teri va sochlarga biologik ta’siri bayon etilgan. Shuningdek, o‘quvchilar xomashyo namunalari, kosmetika tarkibi, ularni qo‘llash bo‘yicha nazariy bilimlarni egallaydilar. Asbob-uskunalar ishlatish, ish joyini to‘g‘ri tashkil etish, sanitar-texnik asbob-uskunalariga bag‘ishlangan mavzular ham o‘quv qo‘llanmadan joy olgan.

*Taqrizchi:* **F.T. SHOMURODOV** — O‘zbekiston sartaroshlar uyushmasining prezidenti.

---

## KIRISH

Go‘zallik o‘z-o‘zidan bunyod bo‘lavermaydi. U tabiat in‘omi. Grim bilan shug‘ullanadigan mutaxassislar nozik didli va yuqori madaniyatli bo‘libgina qolmay, o‘ziga nisbatan e‘tiborli ham bo‘lishlari lozim.

Hech kimga sir emaski, maishiy xizmat madaniyati talablari yuqori darajada o‘sib kelayotgan bo‘lsa-da, grimchilarga kerakli e‘tibor bilan qarashmaydi. Grimchi kasbi bir necha kasblar bilan o‘zaro bog‘liq (grimchi, postijchi, sartarosh). Grimchilar grim qilish sexlarida, teatrlarda hamda telestudiyalarda ishlashadi. Grimchi faqat grim qilishni emas, balki soch kesishni va turmaklashni, niqoblar va postij mahsulotlari tayyorlashni bilishi shart. Odamlar hamma vaqt grimga qiziqish bilan qarashgan. Grim dekorativ kosmetikaning bir qismi, chunki ularni ko‘p narsa birlashtiradi. Grim sahnada obraz yaratishga imkon yaratadi. Grim orqali sahna ko‘rinishining g‘oyaviy-badiiy mazmunini ochib berishga katta yordam beriladi. Grim bevosita sahna ko‘rinishining stilistika, janr va madaniyati bilan bog‘liq.

Yuzni va bo‘yinni gigiyenik hamda profilaktik parvarishlash — kosmetik muolajalar, makiyaj texnikasi va texnologiyasini amaliyotda bajarishdir. Bu fanni o‘rganishda o‘quvchilar kosmetik muolajalarni bajarish jarayonida kosmetik vositalardan foydalanishni, kosmetik vositalarning fizik va kimyoviy xususiyatlarini bilgan holda teriga ta‘siridan ham xabardor bo‘lishlari zarur. Bu fan biologiya, anatomiya, sanitariya va gigiyena, kimyo kabi fanlar bilan bog‘liq. Mashg‘ulotlarga ijodiy yondashish talab qilinadi. Grim san‘atini ikki janrga bo‘lish mumkin: grimni izlash va topish hamda uning texnik bajarilishi.

«Kosmetika» so‘zi yunonchadan olingan bo‘lib, «kosmetike» — san‘at, bezak ma‘nolarini bildiradi. Kosmetika faqatgina pardoz vositasi sifatida emas, balki jarrohlik va fizioterapevtik usullarda ham qo‘llaniladi.

Qadimgi davrdanoq odamlar pardoz vositalaridan foydalanligi hammamizga ma‘lum. Har doim tashqi ko‘rinishga e‘tibor berish barcha davr odamlariga xos odat bo‘lgan. Bu — badan va

yuzni toza saqlashga bo'lgan intilishning kuchayishiga olib kelgan. Bayram kunlari, diniy marosimlar, to'y va tantanalarda, harbiy yurishlarda ibtidoiy kishilar o'zining badan va yuzlarini yuvilganda tez ketadigan bo'yoqlar bilan bo'yashgan. Buning uchun rangli tuproq, bo'r, pista, ko'mir, o'simlik va barglarning suvlaridan foydalanishgan. Hayvon yog'ini o'z tanalariga surib, sovuq va issiqdan saqlanganlar.

Arxeologlar muz davriga tegishli bo'lgan tobutlardan dastlabki lab bo'yoqlarini, ko'z va qoshlarni bo'yaydigan qalamchalarni, tanaga rasm chizuvchi ignalarni topishgan. Misr kosmetikaning vatani deb hisoblanadi. Bunga Nefertitining tobutidan topilgan murdasini misol qilib keltirishimiz mumkin. Agar unga yaxshilab e'tibor beradigan bo'lsak, Nefertitining yuzi did bilan pardoz qilinganligini, qoshlari terilgan hamda lablarining bo'yalganligini ko'rsa bo'ladi. Tibbiyot asoschisi Gippokrat ham pardoz vositalarini tayyorlash bo'yicha ko'plab ma'lumotlar qoldirgan.

Sharq mamlakatlarida atir, surma, mushk-anbar, upa-elik kabi mahsulotlarni tayyorlash qadimdan yo'lga qo'yilgan. Ulardan xotin-qizlar, erkaklar pardoz-andoz va gigiyena vositasi tarzida keng foydalanishgan. Attorlar bu mahsulotlar bilan savdo-sotiq ishlarini olib borishgan.

Parfumeriya — kosmetika sanoat tarmog'i tarzida XVII asr oxirida Fransiyada, keyinchalik Italiya, Buyuk Britaniya va boshqa davlatlarda paydo bo'lgan. O'zbekistonda parfumeriya-kosmetika sanoati korxonalarida odekolon (xushbo'y suvlar), sovg'a yig'malari, upa, tish poroshogi, gigiyenik va profilaktik tish pastalari, krem, losyon, shampun va boshqa kosmetika mahsulotlari ishlab chiqariladi. Tarmoqdagi eng yirik korxonalar Toshkent parfumeriya-kosmetika zavodi dastlab bir xil flakonlarda odekolon, qog'oz paketlarda upa va tish kukuni ishlab chiqargan. Sexlarning rekonstruksiya qilinishi va yangilari qurilishi ishlab chiqarish hajmini oshirishga, yuqori navli parfumeriya mahsulotlari, sovg'a yig'malari va chiroyli qulay qutichalarda buyumlar ishlab chiqarishga imkon berdi.

O'tgan asrning 90-yillaridan boshlab O'zbekistonda o'tkazilgan iqtisodiy islohotlar davomida parfumeriya-kosmetika sanoatining ayrim korxonalari xususiy lashtirildi. 1997-yil martda «Lola upa» korxonasi ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatiga aylantirildi. 2001-yildan Toshkent shahrida Rossiyadagi «Kalina» konsernining sho'ba korxonasi — «Pallada-Vostok» faoliyat olib bormoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda parfumeriya-kosmetika sanoati korxonalarini yirik ishlab chiqarish quvvatlariga ega bo'lib, o'z mahsulotlarini butun dunyoga sotadi. «Avon Products», «Procter & Gamble» (AQSH), «Oreal», «Lancome» (Fransiya), «Sardli», «Max Faktor» (Buyuk Britaniya), «Schwarzkopf & Henkel» (Germaniya), «Adam» (Italiya), «Shiseido» (Yaponiya) firmalari, ayniqsa, mashhur. Bu firmalarda 500 dan ziyod kosmetika va 700 dan ziyod parfumeriya mahsulotlari ishlab chiqariladi.

Mamlakatimizda kosmetika vositalarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan korxonalar tobora ko'payib bormoqda. Xorijning eng mashhur savdo markalari ostida ishlab chiqarilayotgan parfumeriya va kosmetika mahsulotlari ham bugun do'konlarimiz peshtaxtalarini to'ldirib turibdi. Mamlakatimizga chetdan kirib kelayotgan har bir mahsulot, jumladan, parfumeriya, kosmetika va gigiyena vositalari jiddiy tekshiruvdan o'tkazilgan holda sertifikatlash asosida sotuvga chiqarilishi bu boradagi xavfsizlikni ta'minlashda muhim omil bo'layotir.

An'anaviy o'tkazib kelinayotgan xalqaro ko'rgazma O'zbekiston go'zallik sanoat salohiyati va yutuqlarini keng namoyish etish, tarmoqni yanada taraqqiy ettirish bo'yicha xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, xorij investitsiyasini jalb etish orqali istiqbolli loyihalarni amalga oshirish uchun qulay zamin yaratmoqda. Shuningdek, mamlakatimizda davolash kosmetikasining tabiiy usullariga aholining e'tiborini kuchaytirish, tabiiy mahsulotlar asosida yaratilgan pardozi mahsulotlarini ko'paytirish, soha mutaxassislarining o'zaro fikr va tajriba almashish imkonini bermoqda.

---

## 1. KOSMETIK MAHSULOTLARNING KIMYOVIY TARKIBI

Kosmetik va parfumer vositalar texnologiyasida SFM keng qoʻllaniladi. Ularning asosiy vazifasi — vositalarning fizik-mexanik turgʻunligini taʼminlash. Qoʻllaniladigan SFM tabiati, kimyoviy tuzilishi, emulgirlash xossalari boʻyicha turli xil. Lekin ularning umumiy bir xususiyati mavjud — bu ularning difilligi.

SFMLar molekulalari gidrofil va gidrofob (lipofil) qismdan iborat. Gidrofil qismi suvda eruvchan, lipofil qismi esa yogʻda eruvchan (lipidlarda) boʻladi. Gidrofil qismlari, asosan, sulfat, sulfonat, karboksil, koʻp atomli spirtlar, murakkab efilardan iborat. Lipofil guruhleri esa uglevodorod, yogʻ kislotalar, alkil, aromatik uglevodorodli radikallardan tashkil topgan.

Dispers sistemalarda SFM (emulgator) molekulalarining joylanishi oʻziga xos tartibda boʻladi. Bunda gidrofil guruhlar har doim suvli fazaga, lipofil guruhlar esa yogʻli fazaga qaragan boʻladi. Shu tartibda emulgatorlarning joylanishi yuza tarangligining pasayishini taʼminlaydi.

*SFMLarning xillari va boʻlinishi.* Kosmetik va parfumer preparatlar texnologiyasida SFMLar (emulgator) sifatida tabiiy gidrofil yuqori molekulali birikmalar keng qoʻllanadi. Shu qatorda sintetik va yarim sintetik SFM ham ishlatiladi. Ularni turkumlarga boʻlishda molekulaning tuzilishi, xususiyati hisobga olinadi.

SFMni suvli eritmada dissotsiatsiya qilish qobiliyatiga qarab, bir necha turkumlarga boʻlish mumkin: *IONOGEN* (anion va kation aktivlar), *NOIONOGEN* va *AMFOTERLAR*.

*Ionogen emulgatorlar. Anion va kation SFMLar.* Anionlar suvda dissotsiatsiyalanib, manfiy zaryadlangan va kationlar musbat zaryadlangan boʻladi. Anion SFMLarga: yelimlar, oʻsimlik shilimshiqalar, alkilsulfatlar, pektinlar, sovunlar va boshqalar kiradi.

Kation SFMLarga aminlarning tuzlari, ammoniy asoslarning tuzlari kiradi (ular surtmalarda ishlatiladi).

*Noionogen emulgatorlar.* SFMning molekulasi suvda parchalanmaydi va ionlar ham hosil qilmaydi. Ularga sorbitlarning sintetik hosilalari, tvinlar va spanlar, stearin kislotasining triglitseridi (emulgator-2) va diglitseridi (emulgator-T-1), kraxmal, selluloza va uning hosilalari MS, Na-KMS kiradi.

*Amfoter emulgatorlar.* Suvli eritmalarda kislota yoki ishqoriy holda dissotsiatsiyalanadi. Buning muhiti pH ga bog‘liq bo‘ladi. Ularga oqsil tabiatli: jelatoza, kazeinlarni misol qilib keltirish mumkin:

- 0,1—0,2 % konsentratsiyada;
- salitsil kislotasi 0,2 %;
- nipagin M (metil-gidroksibenzoat) 0,1—0,2 %;
- nipagin A (etilgidroksibenzoat) 0,1—0,2 %.

Kosmetik va parfumer preparatlarda qo‘llaniladigan konser-  
vantlar:

- pardoqli sovun (PAS);
- sovunli krem (SOK);
- tozalovchi sut (TOS);
- tozalovchi qaymoq (TOQ);
- yog‘li teri uchun tozalovchi losyon (LOS Y), (LOS LEV);
- vitaminli losyon, o‘rta va quruq teri uchun (VITN);
- erkaklar uchun losyon (EUL);
- yuz terisini tozalovchi yog‘ (YTY);
- maxsus yog‘li krem (MYK).

Terini chuqur tozalash uchun:

- kepaklashtiruvchi krem (KEK);
- barcha terilar uchun qumcha g‘ilof (BTQG‘);
- tozalovchi g‘iloflar (O‘TTG‘, BTQG‘), YTTG‘, STTG‘.

## **2. PARFUMERIYA-KOSMETIK MAHSULOTLARNI ISHLAB CHIQARISH UCHUN ISHLATILADIGAN XOMASHYO**

Kosmetik preparatlarni tayyorlashda qo‘llaniladigan xomashyo-  
lar, ko‘pincha, mikroorganizmlarning rivojlanishi uchun mo‘tadil  
muhit hisoblanadi.

Saqlash jarayonida, mikroorganizmlarning tez rivojlanishi  
oqibatida sifati buziladi. Buning oldini olish maqsadida ularga  
konservantlar qo‘shiladi. Konservantlar maxsus qo‘shimchalar  
bo‘lib, mikroorganizmlarning salbiy ta‘siridan saqlaydi. Bu mod-  
dalar bakterio- va fungitsidostatik ta‘sirga ega. Ayrimlari esa  
bakteritsid va fungitsid ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Konservantlar sifatida, tabiati bo‘yicha turli guruhlariga mansub  
moddalar qo‘llaniladi. Ularning asosiy vakillari ta‘rifini ko‘rib  
chiqamiz.

*Fenollar.* Keng qo'llaniladigan konservantlar guruhini fenol hosilalari tashkil etadi. Ulardan quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

- Benzoy kislotasi 0,05 %;
- Nipazol M (propil gidroksibenzoat) 0,05—0,1 %;
- Nipabenzil (benzil-gidroksibenzoat) 0,01—0,02 %.

Fenol tabiatli konservantlarning kamchiligi ularni polietilen-glikol, tragakant, noionogen SFM saqllovchi KPVga qo'shish tavsiya etilmaydi, chunki kompleks birikmalar hosil bo'lishi oqibatida ularning antibakterial xossalari pasayadi.

*Spirtlar.* Spirtlar ham keng qo'llaniladigan konservantlar hisoblanadi. Ulardan etil va benzil spirtlarni misol qilib keltirish mumkin.

*Boshqa konservantlar:*

- kislotalar va ularning tuzlari (sorbin va undesilenat);
- murakkab efirlar (glitserin monolaurat);
- aldegidlar va uni hosil qiluvchilar (formaldegid, paraform, glutar aldegidi);
- galogen saqllovchi moddalar: xlorgeksidin, dixlofenxloroformlar keng qo'llaniladi.

### 3. PARFUMERIYA-KOSMETIK MAHSULOTLAR

**Pudra** — eng ko'p tarqalgan va keng ishlatiladigan kosmetika vositasidir. Upa terini nursizlantirish, yog'li terini quritish uchun surtiladi. Upa yordamida teri rangini och yoki to'q rangga o'zgartirish mumkin. Upalar ikki xil bo'ladi: *dekorativ* va *gigiyenik*.

Tarkibi bo'yicha upalar o'simliklar va minerallardan tayyorlanadi. Mineral upaning tarkibiga bo'r, talk, sink oksidi, kaolin kiradi. Mineral upaning tarkibiy qismlari oqartiruvchi va burish-tiruvchi xususiyatlarga ega va u yallig'lanish, teri qizarishining oldini olish xususiyatiga ham egadir.

O'simliklardan tayyorlangan upaning tarkibiga har xil kraxmallar kiradi: *bug'doyli, guruchli, kartoshkali, makkajo'xorili*. Ko'pincha ikkala turdagi upa elementlari *aralashtirilgan* holda bo'ladi. Bunday upa foydaliroq ko'rinadi. Upa kukun ko'rinishida, qattiq, zich katta bo'lmagan aylana yoki yumaloq doira shaklida qadoqlangan bo'ladi — bu zichlashtirilgan upa deyiladi. Upalarning krem-pudra,




quruq upa, flakon idishlardagi suyuq upa turlari mavjud. Hozirgi kunda makiyaj uchun kukunli upa keng qo'llaniladi.

**Yuzni qizartiruvchi vosita (rumyana)** — yuz qizartiruvchi bo'yoqdan teatr grimida maishiy kosmetikada foydalaniladi. Bu bo'yoq yuzga sog'lom ko'rinish berishda zarur bo'ladi va ular yordamida yuz dumaloqligi yoki uning alohida qismlarini to'g'rilash mumkin. Yuz qizartiruvchi bo'yoqlar mayda kukun ko'rinishida bo'lib, upani eslatadi, katta bo'lmagan yumshoq dori ko'rinishida zichlashgan krem suyuq shisha yoki yelim idishlarda bo'ladi.

Yuz qizartiruvchi bo'yoqlar tuzilishiga qarab yog'li va quruq, rangi to'q va yorqin qizil, pushti, sabzirang, malinarang bo'ladi. Asosiy rang o'z ichiga bir necha ranglarni oladi. Yuz qizartiruvchi bo'yoqlar yuzni jonlantiradi, shuning uchun grimdan keyin yuz xira bo'lib qolganda, ixcham ko'rinishdagi bo'yoqdan foydalanib, biroz qizartiriladi. Suyuq qizartiruvchi bo'yoqlar tartiblilikni talab qiladi, ular yuzga makiyajda oziqlantiruvchi kremdan oldin suriladi.

Makiyajdan foydalanilganda yuzni nafaqat tekislashtirish, balki unga sog'lom ko'rinish va yuzning o'ziga xos kamchiliklarini (ko'z shaklining kichikligi, qoshlarning kaltaligi, ingichka lablar, kalta kipriklar) hisobga olgan holda ularni bezakli kosmetika yordamida, ya'ni makiyaj yordamida tuzatish mumkin. Yuzga bo'yoq



*1-rasm.* Yuz qizartiruvchi bo'yoqlar yordamida yuzni korreksiya qilish.

surtayotganda me'yorni bilish va haddan ortiq parдоз vositalaridan foydalanish yuzning tabiiy chiroyini buzishini yodda tutish lozim.

Makiyaj insonning o'zini tutishi, ichki va tashqi madaniyatiga mos tushishini talab qiladi. Modaga ko'r-ko'rona yondashish mumkin emas, yuzning qismlari va xarakterini nazarda tutgan holda ishlatilgan makiyaj o'ziga xos bo'lishi lozim. Makiyaj ustida ishlayotganda rassomchilik usuli, ya'ni bo'yoqlar bilan ishlash tushuniladi. Rassomchilikda tasvirlash vositalari rasm, nur, soya, oqish va qoramtir bo'yoqlar vositasida surat olish, chiziqli grim, rang, shu'ladan foydalaniladi.


Shu qatori makiyajda ham kosmetolog-vizajist yuz tuzilishiga qarab yuzdagi chiziqlar ohangini olishi zarur (qosh, ko'z, lab, burun, iyak). Nur predmetning yoritilgan joyi, soya esa uning qoraytirilgan qismidir. Oqish va qoramtir bo'yoqlar vositasini to'g'ri ishlatish talab etiladi.

**Lab bo'yog'i (pomada)** — lab bo'yog'i ikki turga bo'linadi: *dekorativ* va *gigiyenik*. Dekorativ pomadadan makiyajda, grimda foydalaniladi, chunki u labni yanada ta'sirli ko'rsatadi. Gigiyenik pomada — dorivor rangsiz. Uning tarkibiga turli komponentlar kiradi. Bu komponentlar terini yumshatib, uni qurib ketishdan saqlaydi. Lab bo'yog'i zararsiz.

Lab bo'yoqlari quruq, yarim yog'li va yog'siz bo'ladi. Qalamlarda, tayoqchalarda, sterjenda bo'ladi. Lab bo'yog'i yordamida labning shaklini o'zgartirish mumkin. Semiz lablarni ancha ingichkaroq va, aksincha, ingichka lablarni qalinroq qiladi. Og'iz shaklini chiroyli qilib qo'yish mumkin, masalan, Birinchi jahon urushi vaqtida, urushdan keyingi yillarda qalin bo'yalgan lablar urf bo'lgan.

**Ko'z uchun bo'yoq (ten)** — ko'z qovog'ini rangli bo'yoqlar bilan ko'zdan qoshgacha bo'yash urf bo'ldi. Ten surishning ko'pgina usullari bor, hammasidan yaxshisi kichkina cho'tkadan foydalanib bo'yash.

Tenlar har xil rangda bo'ladi: havorang, och jigarrang, pushti, siyohrang, yashil, kulrang va h.k. Hozirgi kunda makiyaj olamida pushti va qizil ranglarning har xil ko'rinishlari bor. Quruq tenlar qutilarda rangiga qarab alohida idishlarda: suyuq tenlar polietilen yoki shisha idishchalarda bo'ladi. Ularning tarkibi zararsizdir. Tenlar yordamida ko'zlar shaklini o'zgartirish mumkin.



2-rasm. Ko'z shaklini makiyaj qilish.



3-rasm. Ko'z qismining makiyaj.

**Kiprik uchun tush.** Uzun kipriklar har doim chiroyli hisoblanadi. Ular ko'zga chiroy va sirlilik baxsh etadi. Kipriklarning uzunligi, qalinligi uchun maxsus tushdan foydalaniladi, bu tush bir necha komponentlardan iborat, ularning tarkibi — mum, sovun, qorakuya, yog', bo'yaladigan ashyolar.

Tushlarning har xil ranglari mavjud. Masalan, qora, jigarrang, ko'k, siyohrang va h.k. Tabiiy yorqin rangli kipriklarni to'qroq qilib bo'yash mumkin. Tushlar to'rt qirrali qutilarda joylashgan va ichida kichkina cho'tkasi bor. Tushlar uzoq saqlanadigan idishlarda bo'ladi, ularning ichida sterjen mavjud. Tushlardan tartibli foydalanish kerak. Ularni pardoz yakunida surish yaxshi natija beradi.

## Nazorat uchun test savollari

1. «Kosmetika» soʻzi qaysi tildan olingan?
  - a) lotin tilidan olingan;
  - b) yunon tilidan olingan;
  - d) fransuz tilidan olingan;
  - e) italyan tilidan olingan.
2. «Kosmetika» soʻzi qanday maʼnoni anglatadi?
  - a) chiroyli, nafis;
  - b) rasm, joziba;
  - d) sanʼat, bezak;
  - e) grim.
3. Kosmetikaning vatani qaysi davlat hisoblanadi?
  - a) Misr;
  - b) Yunoniston;
  - d) Italiya;
  - e) Fransiya.
4. Necha xil yuz terisi mavjud?
  - a) 1;
  - b) 2;
  - d) 3;
  - e) 5.
5. Demakiyaj nima?
  - a) tozalash;
  - b) grimlash;
  - d) pardozlash;
  - e) boʻyash.
6. Massaj usullari nechta?
  - a) 2 ta;
  - b) 3 ta;
  - d) 4 ta;
  - e) 5 ta.
7. Kosmetik niqoblar asosini nimalar tashkil etadi?
  - a) tuxum oqi va sarigʻi, yogʻlar;
  - b) un, asal;
  - d) glitserin, har xil kukunsimon moddalar;
  - e) barcha javoblar toʻgʻri.
8. Quyida berilgan niqoblardan qaysi biri yogʻli teri uchun foydalidir?
  - a) kraxmalli niqob;
  - b) yongʻoqli niqob;

- d) tvorogli niqob;  
e) to'g'ri javob berilmagan.
9. *Qoshlarni bo'yayotganda bo'yoq qoshlarda necha daqiqa ushlab turiladi?*  
a) 20—30 daqiqa;  
b) 25—35 daqiqa;  
d) 10—15 daqiqa;  
e) 10—20 daqiqa.
10. *Qoshni bo'yab bo'lgach, necha % li borat kislotadan foydalaniladi?*  
a) 3 % li;  
b) 2 % li;  
d) 5 % li;  
e) 1 % li
11. *Makiyaj vositalariga nimalar kiradi?*  
a) upa, lab bo'yog'i, losyon va xushbo'y suv, yuzni qizartiruvchi bo'yoqlar;  
b) postij vositalari;  
d) turli rang bo'yoqlari;  
e) b va d javoblari to'g'ri.
12. *Yuzni modellashtirish qanday vositalar yordamida amalga oshiriladi?*  
a) postij mahsulotlari;  
b) har xil yasamalar;  
d) pardozi vositalari;  
e) to'g'ri javob berilmagan.
13. *Yuzda uchraydigan kamchiliklar nima yordamida bartaraf etiladi?*  
a) lab bo'yog'i yordamida;  
b) yuzni qizartiruvchi bo'yoqlar yordamida;  
d) upa yordamida;  
e) qalamlar yordamida.
14. *Qaysi yuz shaklining yuqori chakka soha qismlari toraygan, pastki qism og'irroq, pastki jag' keskin ko'rinishga ega?*  
a) trapetsiyali yuz shakli;  
b) dumaloq yuz shakli;  
d) to'rtburchak yuz shakli;  
e) ovalsimon yuz shakli.
15. *Qaysi yuz shaklini ideal yuz shakli deb hisoblash mumkin?*  
a) cho'zinchoq yuz shaklini;  
b) trapetsiyali yuz shaklini;  
d) romb ko'rinishidagi yuz shaklini;  
e) ovalsimon yuz shaklini.

16. *Makiyaj nimadan boshlanadi?*

- a) upa surishdan;
- b) lab bo'yog'ini surishdan;
- d) yuzni changdan tozalashdan;
- e) yuzga qizartiruvchi bo'yoq surishdan.

17. *Upalar qanday turlarga bo'linadi?*

- a) dekorativ va gigiyenik;
- b) dekorativ va profilaktik;
- d) gigiyenik va kosmetik;
- e) kosmetik va dekorativ.

18. *Yuz shaklining zamonaviy ko'rinishi qachon qabul qilingan?*

- a) 1986-yilda;
- b) 1974-yilda;
- d) 1998-yilda;
- e) 2000-yilda.

19. *Makiyajda kipriklarga tush qachon suriladi?*

- a) grim boshida;
- b) upadan so'ng;
- d) yuzga qizartiruvchi bo'yoq surgandan so'ng;
- e) grim oxirida.

20. *Makiyaj nimaga asoslanib o'zgaradi?*

- a) modaga;
- b) iqlimga;
- d) geografik joylashuvga;
- e) diniy munosabatlarga.

#### **4. SOCH VA TERI PARVARISHI UCHUN ISHLATILADIGAN MAHSULOTLAR**

Sartarosh usta soch kasalliklarining oldini olish va uni parvarish qilish uchun ular haqida tushunchaga ega bo'lishi lozim. Quruq va yog'li seboreya yog' ajralishining buzilishi bir-biridan farq qiladi. Odatda, quruq seboreya balog'atga yetmagan yoshlarda uchraydi. Vaqt o'tib, ular 20—30 yoshga yetganda yog'li seboreya paydo bo'ladi. Bosh terisining yaltiroqligi uning salbiy alomati hisoblanadi. Bu kasallikning o'z vaqtida oldi olinmasa, soch to'kilib ketishi mumkin. Kasallikka chalingan sochlar doimo yog'li va tekis bo'lib turadi. Seboreyaga, asosan, yog' bezlari faoliyatining buzilishi sabab bo'ladi. Uni davolash uchun spirtga rezorsin, mentol, oltingugurt va salitsil

kislotasi qo‘shilgan qorishma ishlatiladi. Bosh terisi gigiyenasiga rioya qilish ham muhim ahamiyatga ega.

Yog‘li seboreyada soch to‘kilishi kuzatilmasa, issiq turmaklash va sochga ochiq rang berish amalini qo‘llasa bo‘ladi. Bu ham sochning qurishiga ko‘maklashadi. Darsonvaldan foydalanish ham yaxshi natija beradi.

Bunday sochlar bilan ishlashda sochni yuvgandan keyin biroz shakar va limon qo‘shilgan suv bilan ho‘llab yuborish lozim.

Soch to‘kilishi — siyqa bosh bo‘lib qolishdir. Bir kunda ellik-tadan ortiq soch tolasining to‘kilishi boshning hamma yerida barobar bir tekisda yoki bir joyda kuzatilishi mumkin. Bunga kasallikning nasldan naslga o‘tishi yoki boshqa sabablarni keltirsa bo‘ladi.

Sochning vaqtinchalik to‘kilishi tif bilan og‘riganda, tug‘urudandan keyin yoki teri kasalligi natijasida kuzatilishi mumkin. Ba‘zan tananing biror qismida juda katta quvvat jamlanishi kerak. Bu quvvat talab qilinmagan yoki kam quvvat bilan kifoyalangan joylarda oziqa moddalar kamayadi. Kasallik o‘chog‘i bartaraf etilgach, muvozanat tiklanib, soch yana o‘sa boshlaydi. Usta bunday sochlarning yana o‘sib ketishini tezlashtirishga ko‘maklashishi uchun turli mustahkamlovchi malhamlar surtgan holda boshni uqalasa yaxshi natija beradi.

Yuqumli kasalliklar natijasida soch to‘kilishi tez uchrab turadigan hol. Bu holat kasallik ikki-uch oy o‘tgandan keyin boshlanib, 6—8 hafta davom etadi. Soch to‘kilishi, asosan, boshning chekka qismi va orqa tarafida kuzatiladi. Insonning tana a‘zosi kuchdan qolganda, bu holat tez ko‘zga tashlanadi.

Ba‘zan yuqumli kasallik tufayli sochning to‘rtidan uch qismi to‘kilib ketadi. Muddatidan oldin soch to‘kilishi ko‘pincha erkaklarda uchraydi. Bunga soch tomirlarining yemirilishi sabab bo‘ladi. Nasliy asoratlar ham bunga olib qolishi mumkin. Uzoq muddat davom etgan xastalik, ayniqsa, asab kasalliklaridan soch tez to‘kilib ketadi.

Tugunchali kasallikka chalingan sochlarda och kulrang tugunchalar paydo bo‘ladi. Soch boshdan oxirigacha bir xil qalinlikda bo‘lmasdan, ba‘zi joylarida shishlar paydo bo‘ladi. Bu joylardagi sochlar sinishga moyil bo‘lib qoladi.

Zamburug‘ kasalliklari oqibatida boshdagi sochlar va soqol zararlanadi. Bu kasallik mijozning yoki ustaning qo‘li va sartaroshlik asboblari dezinfeksiya qilishga e‘tiborsizlik natijasida paydo bo‘ladi.

Gigiyena qoidalariga to‘liq rioya qilish bu kasallikning oldini olishi mumkin. Har bir sartarosh bosh terisining yuqumli kasallik-

larini yaxshi bilishi va shifokorning yozma xulosasi bo‘lmagan holda mijozga xizmat ko‘rsatmasligi lozim. Bunday kasallik, asosan, bolalarda ko‘p uchraydi va ba‘zan ayollarda ham kuzatiladi.

Erkaklarning bosh va soqol qismida bu kasallikning uch turi uchrab, ular mumli temiratki, qirqilgan lishay va mayda donli lishay deb ataladi. Mumli temiratki, odatda, bosh qismida bo‘lib, bo‘rtib turadi. Bir necha millimetrdan bir santimetr gacha bo‘lgan kulrang sariq bo‘rtmalar unga xos. Ularning asosi terining ostiga chuqur kirib borib, teshiklaridan sochlar chiqib turadi. O‘z vaqtida oldi olinmasa, bunday bo‘rtmalar butun boshni egallashi mumkin. Sochlar dag‘al, quruq, sinuvchan bo‘lib qoladi va uchi buralib ketadi. Ular tez sinuvchan bo‘lib, tortilganda osonlikcha tomiri bilan sug‘uriladi. Bo‘rtmalardan o‘ziga xos hid keladi.

*Terini tozalash.* To‘g‘ri parvarish — bu, eng avvalo, mohirona terini tozalashdir. Terini har kuni ertalab va kechqurun tozalash kerak. Ertalab terini mehnat kuniga tayyorlash va o‘lgan hujayralardan iborat qatlam paydo bo‘lgani uchun parvarish qilib turish lozim. Undan tashqari, teriga chang yopishib yuzdagi teshikchalarda yig‘ilib, terining odatdagi fiziologik vazifasini buzadi va qiyinlashtiradi.

#### **Terini tozalash texnikasi:**

- ertalab yoki kechqurun terini tozalashda mayda aylanma ishqalash harakatlari bilan bajarish kerak. 3—5 daqiqali yuz terisini uqalash, terining chuqur va yuza to‘qimalariga qonning kelishini ta‘minlaydi, bu ularni oziqlantirishni yaxshilab, teriga parvarishlangan tashqi ko‘rinishni bag‘ishlaydi;

- har ikki qo‘lni 2, 3 va 4-barmoqlarini birlashtirgan holda uchlari bilan yengil qisqa-qisqa urib, ohista bosish harakatlari bilan birgalikda bajariladi;

- o‘z-o‘zini uqalash ikkala qo‘lning hamma barmoqlari uchi ishtirokida ravon va tebranish harakati bilan tamomlanadi;

- teri quruq va ajinli bo‘lsa, kremni avval ho‘l tampon bilan surtib, so‘ng uqalash harakatlarini bajarish kerak;

- agar kechqurun yuz terisi sinchiklab tozalansa, yuz terisiga to‘yintirilgan krem yaxshi singadi va sog‘lom ko‘rinishga ega bo‘ladi.

**Tozalovchi vannalar.** Vanna — bu organizmni tozalovchi, quvvatlantiruvchi va yoshartiruvchi muolaja. Agarda unga o‘tgiyohlar qaynatmasini qo‘shsak, unda u davolovchi ham bo‘ladi. Vannalar psixik taranglikni ketkazib, bo‘shashtiradi va shu bilan



birga badaningizni chiniqtiradi, moddalar almashinuvini yaxshilaydi, terini almashuv chiqindilaridan, har kungi kirlanishdan tozalaydi, unga mayinlik va taranglik ato etadi.

Mustaqil tayyorlagan o't-giyohli qaynatmalar nafaqat teriga, balki yuqori nafas yo'llari shilliq pardasiga ham ta'sir qiladi. Vanna terining shox parda qatlamini yumshatadi, teshikchalarini ochadi, ter chiqishini tezlatadi va chuqur singib ketgan kirni chiqarib tashlashga imkon beradi. G'iloflar va kremlar vanna qabul qilgandan keyin ishlatilsa, kuchli ta'sir qiladi.

**Teri parvarishi.** Chiroyli, rangi toza teri — tashqi qiyofaning asosiy bezagi. Chiroyli terining asosiy siri — muntazam ravishda uni parvarish qilishdan iborat. Uning tashqi ko'rinishi va holati har kungi parvarishsiz yomonlashadi. Shuning uchun tashqi ko'rinishni ijobiy o'zgartirishga qaror qilinganda sabr qilishga tayyor bo'lish kerak. Zamonaviy pardo vositalari ayollar va erkaklar uchun yoshiga qaramay, bir xilda yaxshi ta'sir ko'rsatadi, faqat teringizning xususiyatlarini hisobga olib tanlash zarur bo'ladi.

Terining asosiy tuzilishi, albatta, hammada bir xil. Farqi shundaki, yog' bezlari qanchalik tez teriga yog' ajratishi va ularning, ayniqsa, qaysi joylarda faol bo'lishi, shuningdek, teridagi namlikni saqlab qolish yoki yo'qotish qobiliyati bilan ajraladi.

Terida tabiiy yog'lanish va namlik miqdori qanchaligiga qarab teri o'rta, yog'li, quruq va aralash xillarga ajratiladi. Bundan tashqari, ta'sirchan teriga alohida parvarish talab qilinadi. Teri xili yosh o'tgan sari o'zgaradi, lekin to'g'ri gigiyenik parvarish qilinsa, u uzoq vaqtgacha yaxshi saqlanadi. Barcha teriga parvarish quyidagi davolash tadbirlaridan iborat: *tozalash; profilaktika (namlantirish, oziqlantirish, himoya); sog'lomlashtirish; yoshartirish*. Ammo kosmetik vositalar va yuqorida bayon etilgan usullar faqat to'g'ri bajarilganda foyda keltirishi mumkin. Xususan, teri chiziqlari yo'nalishlari va terining anatomik tuzilishini hisobga olish zarur.

**Teri yo'nalishlari.** Eng qisqa cho'ziladigan chiziqlar teri chiziqlari deb ataladi. Teri yo'llari shunday joylashgan: iyakda, iyak o'rtasidan pastki chakak bo'ylab quloq solinchog'iga qarab ketgan; lunjlarda (yanoq), og'iz burchaklaridan quloq teshiklar tarafiga qarab, tepa labning o'rtasidan quloq suprasining tepa qismiga qarab ketgan; ko'z atrofida, ko'zning ichki burchagidan tepa qovoqlar ustidan ko'zning tashqari burchagiga qarab ketgan va

(qayta yoʻnalishda) koʻzning tashqari burchagidan pastki qovoqlar boʻylab ichki burchagi tomon yoʻnalgan; peshanada, peshananing oʻrtasidan chakkaga qarab, peshanadagi teri chiziqlari yoʻnalishi, qoshning tuklari yoʻnalishiga toʻgʻri keladi; burun ustida, qanshar qirrasidan uning uchigacha, burunning qirrasidan pastga yon qismi ustiga yoʻnalgan. Teri chiziqlarining yoʻnalishini eslab qolish shart va uy sharoitida oʻtkaziladigan pardoziy tadbirlarida bunga alohida eʼtibor berish lozim.

## 5. YUVUVCHI MAHSULOTLAR

**Moychechak.** «Sovun» ishlab chiqarish jarayoni sovundagi moy, giyoh va efirlarning jami foydali xossalari saqlab qolishga yordam beradi. Kattalar va bolalarning mayin, sezuvchan va quruq terisi uchun yumshoq parvarishlovchi vositadir.

Qaysum va moychechakning efir moylari yalligʻlanishga qarshi, antiseptik, yaralarni davolovchi, ogʻriqni qoldiruvchi xususiyatga ega. Quruq, oʻta sezuvchan va tashqi taʼsirlardan aziyat chekuvchi terini sogʻlomlashtiradi va yoshartiradi, uning elastikligini taʼminlaydi, toʻqimalarning tuzalish jarayonini tezlashtiradi, ajoyib tabiiy antiseptikdir.

Moychechak tibbiyotda kuchli yalligʻlanishga qarshi, qonni toʻxtatuvchi, ogʻriqni qoldiruvchi sedativ vosita sifatida qoʻllanadi. Lavanda yaralarni davolovchi, bakteritsid, sedativ xususiyatga ega.

**Chabres — kiyik oʻti.** Kiyik oʻtining efir moyi mikroblarga qarshi kurashish xususiyatiga ega. Terining elastikligi yaxshilanadi, teri mayin boʻlib, uning rangi bir xilda boʻladi. U yoqimsiz hidlarni bartaraf qilish xususiyatiga ega. Quruq va oʻta sezuvchan teri uchun mos.

### **Kosmetik sovunlar texnologiyasini turli tipdagi yuz terisiga moʻljallangan tarkiblari boʻyicha oʻzlashtirish**

*Sovunlar* — bu toʻyingan va toʻyinmagan yogʻ kislotalar, kanifolning muhim kislotalari yoki naften kislotalarining suvda eruvchan kaliyli, natriyli, ammoniyli yoki aminli tuzlari. Suv bilan tiniq yoki opalessensiyaga ega boʻlgan eritmalarni hosil qiladi.

## Sovunlarni olishdagi dastlabki xomashyo

Sovunlarni hosil qilishda dastlabki xomashyo — bu triglitseridlar shaklidagi yogʻ kislotalarni saqlovchi oʻsimlik va hayvon yogʻlaridir. Eng keng qoʻllaniladigan kislotalar: laurin, miristin, palmitin, stearin, olein va kanakunjut moyi kislotalari. Toʻyinmagan yogʻ kislotalari, sovun ishlab chiqarishdan oldin vodorod bilan toʻyintiriladi.

Yogʻ kislotalarini, asosan, mol va suyak yogʻlarini, kokos, palma, zaytun, kungaboqar, bodom, kanakunjut moylari va kakao moyini sovunlash yoʻli bilan olinadi.

## Sovunlarning turlari (navlari)

**GigiyeNIK sovun.** Bu eng oddiy sovun turi. Bunday sovunlar hech qanday qoʻshimchalarni saqlamaydi va ularning asosiy vazifasi teri yuzasini tozalash. Lekin bu sovunlarni keng qoʻllash terining gidrolipid qavatiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Shuning oqibatida terining qurishi, koʻchishi va tortishishi kuzatiladi.

**Naturalistik sovun.** Bunday sovunlarga turli qoʻshimchalar kiritilgan boʻladi. Masalan, oʻsimlik xomashyoning maydalangan toʻqimalari, efir moylari va shunga oʻxshash. Bu turdagi sovunlar nafaqat tozalash, balki terini tetiklashtirish, boʻshashtirish va aromaterapevtik taʼsirga ega boʻlishi mumkin.

**Parfumer sovun.** Bu turdagi sovunlarning tarkibiga turli xushboʻy moddalar (aromatik moddalar) 1,5—2 % gacha kiritiladi. Ayrim holatlarda bunday sovunlarga yumshatuvchi moddalar ham kiritilishi mumkin.

**Bolalar sovuni.** Bu sovunlarning retsepturasini tanlashda bolalar terisining nozikligi hisobga olinadi. Ayrim holatlarda bunday sovunlarga turli oʻsimlik ekstraktlari kiritilganligi uchun (moychechak, tirnoqgul, mavrak, eman poʻstlogʻi ekstraktlari), yengil antiseptik xususiyatga ega boʻlishi mumkin, lekin bunday sovunlarning tozalovchi xususiyatlari oddiy sovunlarga nisbatan pastroq.

**Antibakterial sovun.** Bu sovunlar oʻz tarkibida turli antibakterial qoʻshimchalarni saqlaydi. Masalan, mikoseptik sovun oyoqdagi zamburugʻlarga qarshi.

**Suyuq sovun.** Tozalovchi va yuvish xususiyati boʻyicha oddiy sovundan farqlanmaydi, lekin uning konsistensiyasi suyuq va koʻp hollarda bunday sovunlarni ishlatish qulay, chunki ular dozatorlar bilan jihozlangan idishlarda chiqariladi.

Oddiy tualet (atir) sovunining tarkibi:

- natriy tuz holatidagi yog‘li kislotalar 78—80 %;
- glitserin 0—1 %;
- tuz (osh) 0,2—0,5 %;
- erkin ishqorlar 0,3—0,5 %;
- smolalar 0—2 %;
- yog‘lantiruvchi moddalar 0—6 %;
- antioksidlovchi moddalar, pigmentlar, bo‘yovchi moddalar, yumshatuvchilar 0—1 %;
- xushbo‘y moddalar 0,5—3 %;
- suv 100 % gacha.

Hozirgi paytda maxsus sovunlar ham qo‘llanilishi mumkin:

- yod oltingugurtli 1—2 % kaliy yod va 2—3 % oltingugurt saqlaydi;
- letsitin sovuni o‘simliklardan olingan letsitinni saqlaydi;
- ixtiol sovuni 2—5 % ixtiol saqlaydi;
- karbol sovuni 0,5—1 % fenol bilan;
- moychechak sovun 1—2 % moychechak ekstrakti bilan;
- oltingugurtli sovun 2—3 % kolloid oltingugurt saqlaydi.

## 6. HIDLI SUV VA LOSYONLAR

*Losyon va xushbo‘y suv.* Oxirgi paytlarda kosmetik vositalarning ko‘payishi natijasida orastalik suvi va losyonlarga talab juda ko‘payib bormoqda. Bu vositalar teriga ajin tushishini ancha kamaytirib taranglashtiradi, chang va ifloslanishdan tozalaydi. Ertalab yoki kechqurun yuvinish o‘rniga losyon bilan yuzni artish kifoya deb o‘ylamang, uni kunning o‘rtasida yuzning kosmetikasini to‘g‘rilashda, yangilashda ham ishlatish mumkin.

Losyonning tarkibiga zararsiz moddalar, aletsirin va boshqa moddalar kiradi. Uni ishlatish foydalidir, ammo bu borada terining turi, masalan, quruq terini yanada quruqlashtirish mumkinligini nazarda tutish lozim. Maxsuslashtirilgan losyonlar terini tiniqlashtirishdan tashqari, uning mayinligini ta‘minlash uchun himoya vazifasini bajaradi. Hasharotlar chaqishidan saqlaydi va terini yallig‘lanishdan himoya qiladi.

*Losyonlarning tasnifi:*

Qo‘llanilishi bo‘yicha:

- davolovchi-profilaktik losyonlar;
- chin kosmetik losyonlar.

Bemorning yoshiga qarab:

- bolalar uchun mo'ljallangan losyonlar;
- o'smirlarga mo'ljallangan losyonlar;
- o'rta yoshdagi bemorlar uchun;
- katta yoshdagi bemorlar uchun mo'ljallangan losyonlar.

Dispers muhiti bo'yicha:

- gomogen losyonlar;
- geterogen losyonlar;
- emulsion losyonlar;
- suspenzion losyonlar;
- murakkab losyonlar.

*Kosmetik losyonlar.* Losyonlar texnologiyasi ularning tabiatiga bog'liq bo'ladi. Har xil biofaol moddalarning suv-spirтли eritmalari, o'simlik xomashyosi ajratmalaridan tashkil topgan losyonlarning texnologiyasi suyuqliklarni ketma-ketlikda bir-biriga qo'shish, qattiq moddalarni eritish va kerakli hajm yoki massagacha erituvchilar bilan yetkazishdan iborat bo'lib, farmatsevtik texnologiya qoidalariga asoslangan. Emulsion turdagi geterogen losyonlar texnologiyasi «sirtqi» fazaga «ichki» fazani qo'shib, aralashtirgichlarda jarayonni olib borish (mo'tadil emulgatorni tanlagan holda)ga asoslangan.

Spirт konsentratsiyasi 15 % gacha bo'lgan suv-spirтли losyonlar yuz terisidagi moylarni eritish xossasiga ega bo'lib, sirt yuzasi tortishishining kamayishiga olib keladi. Buning natijasida yuz terisi yangilanib, salqinlashtirish xossasiga ega bo'ladi.

Yuz terisi turlariga ko'ra, losyonlar tarkibidagi spirт miqdori:

- quruq teri uchun mo'ljallangan losyonda 4—6 % gacha;
- normal teri uchun mo'ljallangan losyonda 8—15 % gacha;
- yog'li teri uchun mo'ljallangan losyonda 15—20 % gacha.

Quruq teriga mo'ljallangan losyonlar tarkibiga plynka hosil qiluvchi moddalar: PVP, MS, teridagi namlikni saqlash uchun asal, sorbit, tinchlantiruvchi va yallig'lanishga qarshi atirgul, evkalipt moyi, xlorofill, E, P vitamini qo'shiladi.

Yog'li teriga mo'ljallangan losyon tarkibiga dezinfeksiyalovchi, kerolitik moddalardan rezorsin, salitsil kislotasi, mentol, kamfora, ba'zida sharbatlar va o'simlik ajratmalari qo'shiladi. Ajin tushgan yuz terisiga mo'ljallangan losyon tarkibiga tanin va achchiq tosh qo'shiladi.

*Yuz terisini tozalash uchun qo'llaniladigan losyonlar texnologiyasi.*

**A. Tarkibi:** moychechak damlamasi 100 ml;  
etil spirти (70 %) 2,5 ml.

**Texnologiyasi.** Moychechakning quritilgan yerustki qismidan 10,0 g tortib olib, xomashyoning suv shimish koeffitsiyentini hisobga olgan holda ajratma olish uchun kerak bo'lgan suv miqdori hisoblanadi (moychechak SSHK-3,4). Qaynab turgan infundir apparatiga kerakli muddatga joylashtiriladi, tayyor damlama sovitiladi va shisha idishga suziladi. Etil spirtining kerakli miqdori damlamaga qo'shib chayqatiladi va jihozlanib yorliq yopishtiriladi.

**B. Tarkibi:** qayin kurtagining qaynatmasi 100 ml;  
etil spirti (70 %) 3,0 ml.

**Texnologiyasi.** 10 g qayin kurtagiga SSHKni (SSHK-1,8) hisobga olgan holda kerakli suv quyilib infundir apparatida qaynatma tayyorlanadi. Sovitilgan qaynatmaga kerakli miqdordagi etil spirti qo'shib, yaxshilab aralashiriladi va shisha idishga qadoqlanib, jihozlanadi.

## 7. SOCHLARNI JOZIBALI PARVARISHLASH VOSITALARI

Sartaroshlikda sochning tashqi ko'rinishini yaxshilash, ildizlarini mustahkamlash, sochga ko'zlangan shakl berish va boshqa maqsadlar uchun ko'plab kosmetika mahsulotlari ishlatiladi. Lekin ba'zan ular foyda o'rniga zarar keltirishi ham mumkin. Bunga mahsulotlardan bilmasdan foydalanish sabab bo'ladi. Ulardan noto'g'ri foydalanish soch va teriga zarar keltirishi mumkin. Kuchli aralashmalarning salbiy ta'siri natijasida ta'sirchan va ingichka sochlarda bu tez-tez sodir bo'ladi. Ishqorli aralashmalarning ta'siri ko'proq seziladi.

Ba'zi mijozlarning aralashmalar tarkibidagi ayrim kimyoviy moddalarga munosabatining to'g'ri kelishi va kelmasligini sinab ko'rib, keyin ishlatish lozim. Agar tarkibida kuchli kimyoviy modda mavjud bo'lsa yoki mijozga biror ashyo birinchi bor qo'llanilayotgan bo'lsa, albatta, boshning yoki sochning biror yerida sinab ko'rilsa, salbiy oqibatlarining oldini olgan bo'lamiz. Soch rangini asliga keltirish uchun ishlatiladigan vositalar zararli hisoblanadi va oqargan sochlarni qoraytiradi. Ularning tarkibida qalay, qo'rg'oshin, kumush, vismut va temir tuzlari bo'ladi. Faqat oliy sifatli mahsulotlardan foydalanish kerak.

Soch bo'yoqlari uch turga bo'linadi: *o'simlik, metall va kislotali bo'yoqlar.*

O'simlik bo'yoqlari sochga zarar yetkazmaydi, metall bo'yoqlar esa salbiy ta'sir etishi mumkin, ayniqsa, tarkibida mis, nikel, kumush

bo'lsa, ta'sirchanligi oshadi, agar vismut-marganes bo'lsa, kuchsizroq ta'sir etadi. Ular sochning tabiiy xususiyati buzilishiga olib keladi. Metall bo'yoqlar ishlatilgan sochlarga vodorod peroksidi ishlatib bo'lmaydi.

Sochdagi metall plyonkani tozalab tashlamasdan kimyoviy jingalak usulini qo'llash mumkin emas. Metall bo'yoqlar hozirgi kunda deyarli ishlatilmaydi. Ular o'rnini kislotali bo'yoqlar egallagan bo'lib, zarari kam, rangi tabiiy, uzoq muddatga yetadi va ishlatish ham qulay. Uning tarkibida vodorod peroksidi bo'lganligi sababli, bunday bo'yoqlar bilan ishlaganda juda ehtiyotkorlik va e'tiborli bo'lish talab etiladi. Soch qancha to'q rangga bo'yalsa, ularga shuncha zarar yetadi.

Mijozning xohishiga ko'ra, sartarosh sochga birdaniga och rang berishga majbur. Sun'iy bo'yoqlarda och rang berish tabiiy rangni oqartirishdan mushkulroq bo'lganligi sababli, juda kuchli aralashmalardan foydalanishga to'g'ri keladi va natijada sochlar zarar ko'radi. Och rang berish va to'q ranglarga bo'yash ishlari darhol amalga oshirilgani yaxshi. Aks holda bo'yoq moddalari soch asosining ichiga singib ketishi mumkin va uni ketkazish qiyin bo'ladi.

Bosh terisi kasallanganda, soch to'kilayotganda, yuqumli kasallarda, homila paytida, hayz davomida, asab kasalliklari va og'ir xastaliklarda sochni bo'yash tavsiya etilmaydi. Bo'yash uslubi ham muhim ahamiyatga ega. Quyuq qilib aralashtirilgan bo'yoqlarni bosh terisiga ta'sir qilishining oldini olish maqsadida uni sochda uzoq muddat ushlab turmaslik kerak. Sochni bo'yab bo'lgandan keyin uni yaxshilab yuvib tashlab uzoqroq sirka aralashmasi qo'shilgan iliq suvda chayib yuborish lozim.

Soch uzoq muddatga turmaklanganda amal noto'g'ri bajarilsa, sochda zararli moddalar qolib ketgan bo'lsa yoki mijoz boshidan o'tgan kasalliklar to'g'risida ustani ogohlantirmagan bo'lsa, yomon ta'sir qilishi mumkin. Uzoq muddatli iliq haroratda jingalak qilish natijasida ba'zi ayollarning boshi og'irishi yoki hushini yo'qotib qo'yishi mumkin.

Keksa yoshli, toliqqan va homilador ayollar bilan ishlaganda e'tiborni susaytirmaslik lozim. Bu holat boshning haddan ziyod qizib ketishi oqibatida sodir bo'ladi. Bu hollarda mijozlarga sovuq kimyoviy jingalak qilish maslahati berilsa, yaxshi bo'ladi. Bu usul ularga zarar yetkazmaydi. Agar mijoz issiq usulni talab qilaversa, haroratni biroz pasaytirib, undan xabar olib turish kerak bo'ladi.

Soch elektr usulda jingalak qilinganda aralashma teriga tegib ketsa, sochning zo‘riqishiga va cho‘ziluvchanligining yo‘qolishiga olib keladi. Yog‘li sochlarga bu unchalik ta’sir qilmaydi, quruq va ingichka sochlarga ko‘p ziyon keltiradi. Elektr usulda jingalak qilganda, aralashma teriga kamdan kam ta’sir qilishi mumkin. Bunga aralashma tarkibidagi biror-bir kimyoviy moddaning teriga muvofiq kelmasligi sabab bo‘lishi mumkin.

Elektr jingalak usulida noqulaylik tug‘diradigan omil — aralashma tarkibidagi ishqorning mavjudligi hisoblanadi. Uning ta’sirida sochlar tabiiy xususiyatini yo‘qotib, sinuvchan, quruq bo‘lib qolishi va uchlar yorila boshlashi mumkin. Uning oldini olish uchun aralashmani to‘g‘ri tayyorlash kerak. Bunda sochning xususiyatini hisobga olish va jarayon tugagach, aralashma ta’sirini mutlaqo yo‘qotib yuborish kerak.

Sochga kimyoviy usulda qo‘llaniladigan aralashmalar yana ham ko‘proq ta’sir qiladi. Ular, asosan, ingichka va quruq sochlarda ko‘p kuzatiladi. Aralashma tarkibi soch turiga mos kelishi va uning ta’sir etish muddati hisobga olinishi muhim. Agar sochning uchlariga oq rang berilgan yoki bo‘yalgan bo‘lsa, sochning yangi o‘sib chiqqan qismi esa kimyoviy ta’sirga uchramagan va sog‘lom bo‘lsa, sochning uchlarini kesib tashlash yaxshi natija beradi.

## **8. SOCH VA BOSHNI PROFILAKTIK PARVARISHLASH**

Sochni yuvish chiroyli, yaltiroq va sog‘lom sochga ega bo‘lish uchun birinchi qadam hisoblanadi. Bunda shampun to‘g‘ri tanlanishining ahamiyati katta.

Sochni avaylab, ehtiyot bo‘lib yuvishning bir necha qoidalari mavjud:

- sochni yuvishdan oldin ularni yaxshilab tarab yuborish kerak. Shunday qilinsa, sochlardagi kirlar va oldin ishlatilgan preparatlarning qoldiqlari ancha yumshaydi;
- bosh iliq suvda chayib yuborilsa, shampun tejaladi;
- shampunni oz-ozdan ishlatish kerak. Soch kaltaroq bo‘lsa, bir choy qoshiq shampun kifoya qiladi;
- shampunni darhol sochga surish kerak emas. Avval uni kaftlarga surib olish kerak;
- sochni qattiq ishqalamaslik, aksincha, mayin siypalash kerak;



- shampunni sochda uzoq vaqt qoldirib bo‘lmaydi. Yuviladigan va oziqlantiradigan moddalar bir necha soniya ta’sir qiladi, xolos;

- sochni yuvilgandan keyin yaxshilab chayib yuborish kerak, chunki shampun qoldiqlari sochlarga zarar keltirishi mumkin;

- sochni yuvib bo‘lgach, yengil siqib, sochiq bilan o‘rab qo‘yish kerak. Sochni artayotganda qattiq va keskin harakat qilish kerak emas;

- ho‘l sochlarga ehtiyotkorlik bilan muomala qilish lozim. Soch quruq holatda bo‘lsa, uning tarkibi tirnoqdan ham qattiq bo‘ladi. Lekin u ho‘llanishi bilanoq bu xususiyatini yo‘qotadi. Sochning ustki qatlami shishib ko‘tarilib ta’sirchan bo‘lib qoladi. Ehtiyot bo‘lib taralmasa, ko‘tarilib qolgan soch tangachalari to‘kilib ketib, sochning turg‘unligi, yaltirashi va cho‘ziluvchanligi yo‘qoladi. Shuning uchun chalkashib qolgan ho‘l sochlarni siyrak tishli uchlari o‘tkir bo‘lmagan silliq taroqda tarab yuborish kerak. Ho‘l sochlarni uchidan boshlab tarab yuqoriga ko‘tarila boshlansa sochlar tortilib uzilmaydi. Agar sochning chigali tarqalmasa, bu uning shikastlanganligidan dalolat beradi;

- sochni har kuni yuvish zararli emas. Chunki zamonaviy shampunlar shunday yengil ta’sir qiladiki, sog‘lom sochlar bunga bemalol chiday oladi. Tadqiqotlarga qaraganda, sochni tez yuvish yog‘ ajralib chiqishini ko‘paytiradi, degan fikr noto‘g‘ri. Shampun tarkibidagi moddalar sochning qurib ketishiga olib kelmaydi;

- agar soch uzun bo‘lib, uchlari yorilib ketgan bo‘lsa, uni har kuni yuvish-yuvmaslikni o‘ylab ko‘rish kerak. Bosh terisi quruq bo‘lsa, hadeb yuvaverish tavsiya etilmaydi;

- har qanday yengil shampun bilan ham soch hadeb yuvila- verilsa asoratsiz bo‘lmaydi. Ho‘l sochlarni tarayverish ham zarar keltirishi mumkin. Agar sochlar ta’sirchan bo‘lsa, bu usullarni har kuni takrorlamagan ma’qul.

Massaj ikki turga bo‘linadi: gigiyenik va davolash usuli. Davo- lash usuli ham ikki turga bo‘linadi: tinchlantiruvchi, qo‘zg‘altiruvchi. Uqalash — davolashning eng qadimiy usullaridan biri hisoblanadi. Massaj arabcha «mass» — yengil bosish so‘zidan kelib chiqqan. Massajga silash, uqalash, burash, shapatilash va qaltiratish kabi badanga yoki teriga mexanik ta’sir etish usullari kiradi.

Sochni parvarish qilishda boshning soch o‘sadigan qismini uqalashning ahamiyati katta. O‘tmishdan bu usuldan nafaqat sog‘lomlashtirish, balki oro berish va gigiyenik maqsadda ham foydalanilgan. Uqalab turish bosh terisida qon aylanishini

yaxshilaydi, uning oziqlanishini yaxshilaydi va soch ildizini mustahkamlaydi. Undan tashqari, boshni uqalash butun badanga rohat va tetiklikni baxshida etadi, bosh og‘rig‘i, qon bosimi va charchoqni ketkazadi.

Sochni yuvishda va tarashda ham bosh terisi uqalanadi. Quruq uqalash orqali yog‘ bezlari faoliyatini yaxshilash mumkin. Soch to‘kilishining oldini olishda ham uqalashning ahamiyati katta. Bosh terisida yiring va zamburug‘li kasalliklari, kuchli soch to‘kilishi, ekzema bo‘lsa va mijozda gipertoniyaning 1—2 darajasi yoki yurak xastaligi bo‘lsa, massaj qilish salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Uqalashdan oldin boshning soch o‘sadigan qismida juda ko‘p yog‘ bezlari borligini unutmaslik kerak. Bosh terisi ostida boshni himoyalab turuvchi pay qoplamlari bo‘ladi. U peshananing qosh ustki qismidan boshlanib, bosh orqasining bo‘yin qismida tugaydi. Ular peshana mushagiga joylashgan bo‘lib, orqada bo‘yin ortidagi suyakka ulangan bo‘ladi. Bu bosh mushaklari yordamida bosh terisi oldinga va orqaga qimirlaydi.

Uqalash davomida faqat bosh terisining ustini ishqalamasdan, uni bosh suyagiga bosgan holda bosh suyagini his qilib to‘g‘ri va aylanma harakatlar qilish kerak. Boshni o‘tirgan yoki turgan holda uqalash mumkin. Bo‘yinni kiyim yoqalaridan ozod qilish kerak.

Uqalash soch o‘ramidan boshlab oldinga, orqaga va quloqlar tarafiga yo‘naltirib bajariladi. Agar bosh terisi quruq bo‘lsa, uni yog‘ bilan uqalash, yog‘li bo‘lsa, upa sepib uqalash tavsiya etiladi.

Uqalash 5—15 daqiqa davom etadi. Avval boshni yengil silab terisi qizdirib olinadi. Asta-sekin barmoqlar ta‘sirini kuchaytirib, keyin yana yengil uqalanadi. Uqalashni tugatishda ohista silab yakunlanadi. Agar uqalash harakati bir maromda oshirilsa, mijoz ham shu maromga moslashadi va ancha bo‘shashadi.

Uqalashni shiddat bilan boshlab to‘satdan to‘xtatib qo‘yish mumkin emas. Uqalashdan keyin sochni yuvish shart bo‘lsa ham 10—15 daqiqa dam olgan ma‘qul. Boshni haftada ikki martadan ko‘p uqalab bo‘lmaydi. Shunday qilib, massajdan oldin qulay o‘tirib olish, bo‘yinni kiyimlardan xoli qilish, kiyimni choyshab bilan yopish lozim. Ustaning qo‘li toza bo‘lishi kerak. Boshni uqalash kaft yoki barmoq uchlari yordamida yengil silashdan boshlanadi. Birinchi navbatda peshana va soch o‘sishi tugaydigan joylar uqalanadi. Uqalash jarayoni quyidagicha:

1. Qo'llarning katta barmoqlari va ko'rsatgich barmoqlari yordamida peshana terisi yaxshilab ushlab, biroz tortilgan holda ikki yon chekka tomonga qarab harakatlanadi. Bu harakat bir necha bor takrorlanib, terini siqish har ikki qo'lda barobar olib boriladi.

2. Chekka yonoqqa yetganda bosh, ko'rsatgich va o'rta barmoqni birlashtirgan hamda aylana harakatlarni takrorlab turib, bu harakatni quloq usti, orqasi va pastdagi bosh chanog'ining bo'rtib chiqib turgan suyaklari orqali davom ettiriladi.

3. Endi bosh barmoq, qolgan to'rtta barmoq yordamida qosh ustilaridan peshana tepasiga qaratib, soch tugagan joyigacha yurgiziladi.

4. Barmoqlarning ichki tarafi bilan peshanani pastdan tepaga bosibroq uqalanadi. Shundan so'ng, boshning soch o'sadigan qismiga o'tishdan oldin sochlar o'ramidan pastga qarab, har tarafga tarab olinadi.

5. Sochni o'ramidan boshlab ikki o'ramga ayirib ochilgan farqdan aylanma harakatlar qilib uqalanadi. Barmoqlarning yumshoq uchlari bilan biroz bosgan holda aylanma harakat ikki chekkada davom ettiriladi. Bunda soch o'ramidan o'sishi tugagan qismgacha harakat davom ettiriladi. Shunday qilib, oraliq masofani 2—3 sm qoldirgan holda butun bosh terisi uqalanib chiqiladi.

6. Bosh barmoq yordamida to'rtta barmoqning yumshoq uchlari bilan bosh terisini soch bilan aralashtirib o'ramdan pastga qaratib, oldinga va orqaga barobar harakatlar qilib boriladi.

7. Chap qo'l bilan boshning orqa qismini suyab turgan holda, o'ng qo'lni yoyib, bosh ustidan aylanma harakatlar qilib, butun bosh usti uqalab chiqiladi.

8. Ikki qo'lni bosh ustiga bir-biriga qarama-qarshi holatda joylashtiriladi. Kaft va barmoqlarni bosh terisiga tiragan holda bir-birlariga qarata, soch yo'nalishiga qarshi harakatlantiradi. Bu holda usta mijozning boshi atrofida aylanib, bu amalni bajaradi.

9. O'ng qo'l bilan boshning old qismini, chap qo'l bilan orqa qismini mahkam ushlab bir-biriga, goh bir-biridan uzoqlashtirgan holatda harakat qilib bosh terisining hamma yeri qimirlatib chiqiladi. Undan keyin bosh ohista silanadi.

10. Bosh terisini yumshatib, qizdirib olgandan keyin barmoq uchlari bilan yengil urib chiqiladi.

11. Bo'yin qismini yaxshilab uqalab yuborish uchun ikki qo'lni bosh orqasiga shunday joylashtirish kerakki, ikki bosh barmoq orqada — soch tugagan joyda joylashadi, boshqa barmoqlar esa

ulardan pastroqda bo‘ladi. Shu holatda barmoqlarning bosh terisiga ohista bosgan holda tepadan pastga qarata harakatlar uch marta qaytariladi. Bu amalni ko‘p qaytarish yoki qattiq bosish mumkin emas. Aks holda, boshdagi qon miqdori kamayishi mumkin.

12. Undan keyin ikki qo‘lning bosh barmoqlarini bo‘yin pastidagi 7 umurtqa pog‘onasiga qo‘yilib, umurtqa pog‘onasining o‘rta qismida 1—2 sm joy qoldirgan holda pastdan tepaga aylanma harakatlar bilan uqalab chiqiladi.

13. Uqalash amali barmoqlarning yumshoq uchlari va kaft yordamida ohista silab yuborish bilan yakunlanadi. Soch to‘kilib ketishining oldini olishda ham uqalashning foydasi ko‘p. Ko‘pchilik mohir sartaroshlar sochni har kuni paxmoq sochiq bilan yaxshilab ishqalab turishni maslahat beradi. Shu orqali to‘qimalarda qon aylanishi yaxshilanib, sochning tabiiy o‘sishiga ko‘maklashsa bo‘ladi. Bosh terisini yumshoq taroqlar yordamida turli yo‘nalishlarga taragan holda ham massaj qilish mumkin. Lekin bu harakat massajda bajariladigan barcha amallar o‘rnini bosa olmaydi.

## 9. JOZIBALI KOSMETIKA VOSITALARI

*Peshana.* Uning shakli suyaklariga bog‘liq bo‘ladi. Peshana katta, kichik, keng, ensiz, bo‘rtib chiqqan, silliq chuqurchali bo‘lishi mumkin. Grimlash uchun bo‘yoqlar orqali peshananing shaklini o‘zgartirish mumkin. Peshanani bo‘rtib chiqarish uchun asosiy tusdan ochroq bo‘yaladi. Uni kichkina ko‘rsatish uchun asosiy tusdan to‘qroq rang bilan bo‘yaladi. Chakkalarni jigarrang bilan bo‘yaganda peshanani kichiklashtirish mumkin. Shu bilan birga peshananing kattaligi qosh tuzilishiga bog‘liq bo‘ladi. Tepaga ko‘tarilgan qoshlar peshanani ensiz, kalta och rangli qoshlar peshanani katta qilib ko‘rsatadi.

Qoshlar yuz ko‘rinishida muhim ahamiyatga egadir. Ular ko‘zlar chiroyini, jozibadorligini ko‘rsatib turadi yoki aksincha, kamchiliklarini bildirib qo‘yadi. Agarda grimda qoshlar noto‘g‘ri, qo‘pol chizilsa, bu holda hamma ish behudaga ketadi. Shuning uchun, avvalo, qoshlar tuzilishini, chiziqlarining shaklini va xarakterini bilib olish zarur. Qosh tuzilishi quyidagi bo‘limlarga bo‘linadi: bosh qismi, qalin joyi, qoshlarning o‘rta qismi, eng ingichka qismi va tashqi qismi. Qoshlar o‘zining qalinligiga qarab — keng, uzun, ingichka va shakli bo‘yicha — to‘g‘ri, yoysimon, dumaloq, uycha shaklida bo‘ladi.


Shu bilan birga qoshlar bir tekisda, bo‘lingan, uzilgan ham bo‘ladi. Makiyaj va grimda qoshlar juda katta rol o‘ynaydi, ular yordamida odamning fe‘l-atvori kuchli, yengiltak, quvnoq, g‘amginligini ifodalash mumkin. Qalin qoshlar shaklini rang bilan pudrani aralastirib o‘zgartirish mumkin. Hosil bo‘lgan aralashma barmoq yordamida qosh o‘shiga qarshi tomonga bo‘yaladi. Qoshni berkitish uchun sovun bo‘lakchasi ishlatiladi. Uning uchun sovunning uchli tomoni ho‘llanadi va qoshlarga suriladi.

Qosh tuklari bir-biriga yopishib ko‘rinmaydi. Bundan keyin yuzga umumiy rang surilib, qoshga kerakli shakl beriladi, bo‘yoqlar orqali cho‘tka bilan chiziladi. Milliy usulda grim bajarilayotganda qoshlarga qora bo‘yoq ishlatiladi, qolgan hollarda qora bo‘yoqni jigarrang va banan (to‘q qizil) rangiga qo‘shib ishlatiladi. Aslida qoshlar har xil kenglikda bo‘ladilar, shuning uchun ularga kerakli shakl berish uchun cho‘tka yoki maxsus qalam yordamida ustidan chizish mumkin. Shu bilan birga har xil yasamalar ham ishlatish mumkin.

*Ko‘zlar.* Ko‘z chuqurchasining katta-kichikligiga qarab, ko‘zlar bodomsimon qisq (mo‘g‘ullar, yaponlarga mansub), dumaloq, katta va kichik bo‘ladi. Shu bilan birga ko‘zlar normal chuqur yoki bo‘rtib chiqqan, bir-biridan uzoq, bir-biriga yaqin joylashgan bo‘ladi. Ko‘z shaklini rassomchilik san’ati yoki haykaltaroshlik usullari (yasama, yopishtirma) orqali o‘zgartirish mumkin. Grim yordamida ko‘z shaklini dumaloqroq, cho‘ziqroq, kichikroq qilish mumkin. Ko‘zni bo‘yash uchun har xil rangdagi bo‘yoqlardan foydalanish mumkin, shu bilan birga, teri, soch va ko‘zlarning rangini hisobga olish kerak.

Bug‘doy rangli, sochi va ko‘z qorachig‘i qora odamlarga qora va jigarrang aralastirilib ishlatiladi. Sochi va tanasi och, ko‘zi havorang, kulrang bo‘lsa jigarrangning o‘zini yoki to‘q qizil (banan) rangli bo‘yoqni ishlatsa bo‘ladi. Ko‘zni grimlash uchun parдоз ashyolari — tush, ten, qalamlar ishlatiladi. Ko‘zlarga shakl berishning bir necha turi mavjud.

Ko‘z shaklini kattalashtirish uchun umumiy rang berilgandan keyin, ko‘z qovog‘ini tepa chizig‘iga to‘q chiziq, pastki kipriklarga esa och chiziq chiziladi. Ba‘zan esa ko‘z shaklini kichiklashtirish kerak bo‘ladi. Bu hollarda ko‘z qovoqlarining tepa va pastki qismlari o‘rtasidan kerakli shakl beriladi. Bu chiziqlar dumaloq yoysimon va to‘g‘ri chiziq bo‘lishi kerak emas. Ko‘z shaklini kipriklar orqali ham o‘zgartirish mumkin. Buning uchun har xil turdagi yasama kipriklardan foydalaniladi.



4-rasm. Burun tavsifi sxemasi.

*Burun.* Yuzning deyarli asosiy qismini burun egallaydi. Burun katta, uzun va kichik bo‘lishi mumkin. Chetdan qaraganda burun to‘lqinsimon, to‘g‘ri, qirg‘iy va puchuq bo‘ladi. Grim jarayonida burun shaklini rassomchilik san‘ati va haykaltaroshlik usullari yordamida o‘zgartiriladi.


Bo‘yoqlar orqali burun shaklini to‘g‘rilash mumkin, lekin bu murakkabroqdir. Shuning uchun haykaltaroshlik usullaridan foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda har xil vositalar (paxta, porolon, plastik qismlar)dan tayyorlangan yasamalardan foydalaniladi.

Yasamalar yuzni tanib bo‘lmas darajada o‘zgartiradi. Yasamalarni yuzga yog‘ yoki vazelin surmasdan oldin tayyorlash kerak. Burunni grimlaganda uning kovagini ham unutmaslik zarur. Oddiy grimda burun kovagiga umumiy rang beriladi, rумыana suriladi va ingichka chiziq bilan shakli chiziladi. Bunda jigarrang yoki banan rangli bo‘yoqlar ishlatiladi.

*Lablar.* Lablar og‘izning aylanma mushaklaridan paydo bo‘lib, ularning ichki qismi shilliq pardasidan, tashqi qismi esa shilliq va terisidagi yog‘ qatlamidan iborat. Shakli bo‘yicha lablar qalin, o‘rtacha (normal) va ingichka bo‘ladi. Shu bilan birga lablar shishgan to‘la «yurakcha», «bantik» shakllarida ham bo‘lishi mumkin.

Og‘iz deganda faqat lablar emas, burun-lab ariqchasi, og‘iz burchaklari, iyak ariqchasi ham hisoblanadi. Bichimiga qarab og‘iz katta va kichik, burchaklari esa ko‘tarilgan yoki pastga tushirilgan bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha yuz ifodasi lablar shakliga bog‘liqdir.

Lablar shaklini mushaklar belgilaydi. Grimlash orqali lablarning faqat shaklini emas, balki rangini ham o‘zgartirish mumkin. Ko‘pincha haykaltaroshlik usuli ishlatiladi.



5-rasm. Lablar tavsifi sxemasi.

Lablar grim bo‘yoqlari bilan har xil rangdagi pushti och va to‘q qizil lab bo‘yoqlari orqali bo‘yaladi. To‘rtburchak yuzga to‘q krem pudra yoki suyuq pudra yuzning pastki qismiga (pastki jag‘iga) suriladi. Ko‘zlar tagiga, lab va ensa tomoniga esa ozgina rумыana suriladi. Qoshlar egilgan chiziq bo‘lib tepaga ko‘tariladi. Lablar shakli yumaloq chiziq bilan qayriladi.

Sochlar yuqoriga qarab taraladi va peshanaga tushib turishi uchun ozgina kokil qoldiriladi, sochlar quloqlarni yopib turadi. Dumaloq yuzli yonoqlarga, peshana, chakka, ensa tomonga va pastki jag‘ tomonga to‘qroq krem pudra yoki to‘q suyuq pudra suriladi, shunda yuz cho‘zinchoq bo‘lib ko‘rinadi. Qoshlar cho‘zinchoq, ozgina qayrilgan bo‘ladi. Kipriklar va ko‘z qovog‘idagi chiziq chakka tomon bo‘yaladi. Sochlar peshanadan balandroq ko‘tariladi.

Uchburchak yuzga to‘q krem pudra va to‘q suyuq pudra suriladi, yonoqlarga chakka tomonga qarab ozgina rумыana suriladi. Qoshlarning shakli baland bo‘ladi. Ko‘zlar bo‘yaladi, lekin chizig‘i uzun bo‘lmaydi. Lablar do‘mboq emas, cho‘ziqroq qilib bo‘yaladi. Pastki lablarga alohida e‘tibor beriladi. Soch turmagi oldinga chiqqan kokil yonoqlarga tushib turadi va pastki jag‘ tomonga qarab taraladi.

To‘g‘ri to‘rtburchakli yuzga to‘q krem pudra yonoqlar o‘rtasiga suriladi. Qoshlar ozgina qayrilgan, ko‘zlar qalin bo‘yalgan, lablar dumaloq qilib bo‘yalgan bo‘ladi. Oval shaklli yuzga och sarg‘ish krem pudra yupqa qilib yoki suyuq pudra tekis qilib suriladi. Yonoqlarga chakka tomonga qarab biroz to‘qroq rangli rумыana

suriladi. Qoshlar qayirilgan bo‘ladi, kipriklar va ko‘z qovog‘ining chakka tomonlari qalinroq bo‘yaladi. Lablar o‘z shakli bo‘yicha bo‘yaladi.

### Nazorat uchun test savollari

1. «Grim» so‘zi qaysi tildan olingan va u qanday ma‘noni anglatadi?
  - a) fransuzcha so‘zdan olingan bo‘lib, bo‘yoqlar va anjomlar yordamida tashqi qiyofani o‘zgartirish;
  - b) inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, parдоз berish;
  - d) italyanacha so‘zdan olingan bo‘lib, tashqi qiyofani o‘zgartirish;
  - e) to‘g‘ri javob berilmagan.
2. Grim san‘atini yaxshi egallash uchun:
  - a) tana tuzilishini bilish zarur;
  - b) harakat organlari tizimini yaxshi bilish zarur;
  - d) bosh suyagining anatomik tuzilishini yaxshi bilish zarur;
  - e) barcha javoblar to‘g‘ri.
3. Qaysi yuz grimida kam miqdordagi bo‘yoqlar orqali yaxshi natijaga erishish mumkin?
  - a) yosh sog‘lom yuz terisi;
  - b) to‘la yuz terisi;
  - d) ozg‘in yuz terisi;
  - e) barcha javoblar to‘g‘ri.
4. Grim qilayotganda yana nimalarga e‘tibor berish kerak?
  - a) milliylik;
  - b) asardagi qahramon obrazi;
  - d) irqiylik;
  - e) a va d javoblari to‘g‘ri.
5. To‘la yuzni grimlashda qaysi grimlash sxemasi asos qilib olinadi?
  - a) «kalla bosh suyagi» sxemasi;
  - b) «quvnoq yuz» sxemasi;
  - d) «g‘amgin yuz» sxemasi;
  - e) to‘g‘ri javob berilmagan.
6. Ozg‘in yuzni grimlashda qaysi grimlash sxemasidan foydalaniladi?
  - a) «kalla bosh suyagi» sxemasi;
  - b) «quvnoq yuz» sxemasi;
  - d) «g‘amgin yuz» sxemasi;
  - e) a va d javoblar to‘g‘ri.
7. Haykaltaroshlik-hajmiylik grimida ... ishlatiladi.
  - a) parдоз vositalari, applikatsiyalar;



- b) postij mahsulotlari, kimyoviy vositalar;
  - d) har xil yasamalar, postij mahsulotlari, applikasiyalar;
  - e) to'g'ri javob berilmagan.
8. *Katta yoshli ayol yuzini grimlayotganda umumiy rang qaysi ranglar aralashmasidan tashkil topgan bo'ladi?*
- a) och rangga oxra va kulrang bo'yoqlar qo'shish orqali;
  - b) och rangga oxra va qizil rang bo'yoqlar qo'shish orqali;
  - d) och rangga yashil va kulrang bo'yoqlar qo'shish orqali;
  - e) och rangga qizil va kulrang bo'yoqlar qo'shish orqali.
9. *Yoshga oid grim nima bilan xarakterlanadi?*
- a) ko'zga yaqqol tashlanadigan grim bilan;
  - b) yuzdagi ajinlar bilan;
  - d) ranglarning yorqinligi bilan;
  - e) barcha javoblar to'g'ri.
10. *Qanday yuz mimikalarini bilasiz?*
- a) xursandchilik;
  - b) qayg'u;
  - d) jahldor;
  - e) barcha javoblar to'g'ri.

## 10. PARFUMERIYA VOSITALARI

Parfumeriya tarixiga nazar solsak, unga quyidagicha ta'rif beriladi. Hid yaratish qobiliyati boshqa ishlar kabi ilhom va iste'dod bilan bajariladi. Misol uchun musiqachi notalar orqali kuy yaratsa, yozuvchi hikoyalar yozadi, parfumchi esa hid bilish va ularni ajrata olish orqali yangidan yangi hidlar yaratadi. Parfumeriya vositalariga, asosan, tualet suvlari, duxi, odekolon, kosmetik sutlar, losyonlar, konservantlar kabi mahsulotlar kiradi.

Tualet suvi yoqimli hid taratuvchi vosita hisoblanib, unga XIX asrda Napoleon Bonapart tomonidan asos solingan. Tualet suvi 6—15 % gacha konsentrat va 85 % gacha spirtidan iborat. Bunga sabab, Napoleon I Muqaddas Yelena oroliga borganida bergamot gulini suvga aralastirib ko'radi va shunda suvdan yoqimli ifor taralayotganini sezib qoladi va ixtiro qilgan aralashmasiga tualet suvi deb nom beradi.

Agarda tualet suvining tarixiga nazar soladigan bo'lsak, u juda qadimga borib taqaladi. O'tmishda tualet suvlari uying yoqimsiz hidini bartaraf etish, uy hayvonlariga sepish, favora-

larda atrofga yoqimli hid taratib turishi uchun ishlatilgani ma'lum bo'lgan.

Rim inqilobidan so'ng sharqda va Yevropada tualet suvlari ommalashib ketdi. Shundan so'ng tualet suvlari ikki turga bo'lindi:

1. Ayollar uchun tualet suvlari.
2. Erkaklar uchun tualet suvlari.

1945-yilda ilk marotaba ayollar uchun gul hidini taratuvchi Vent Vert tomonidan Piyer Balman hamda Kati, 1948-yilda Nina Richchi kabi tualet suvlari sotuvga chiqarildi.

Duxilar esa tualet suvlaridan ko'ra ko'proq ommalashib ketdi. Bunga sabab, duxilarning hidi uzoq muddatgacha saqlanib qolishida edi. Eng qimmatli va hid uzoq muddat saqlanib turuvchilarga duxilar kiradi. Duxilar konsentratlardan tayyorlanib, 20—35 % gacha parfum kompozitsiyalari va 90 % spirtga aralashgan bo'ladi. Duxilar tarkibida qimmatbaho efir moylari va sintetik mahsulotlar bo'ladi.

Bundan tashqari, odekolonlar ham 6 % gacha parfum kompozitsiyasi va 70—80 % gacha spirti bo'ladi. Bu kabi mahsulotlar erkaklar uchun ishlab chiqariladi. Odekolonlar hidlariga qarab bir necha guruhlarga bo'linadi:

*Achchiq* — yorongul, limon, mandarin, sallagul, siren, oq gul (apelsin guli) kabi hidlar kiradi.

*Nozik* — akas, hazoranggul, gulsapsar, magnoliya, mimoza, sallagul, atirgul kabi hidlar kiradi.

*Shirin* — akas, mandarin, vanil kabi hidlar kiradi.

*Ko'k* — chinnigul, binafsha, nargis, smola.

*Iliq* — akas, shaftoli, sandal.

*Og'ir* — chinnigul, ladan, liliya, jasmin kabi hidlar kiradi.

*Kosmetik sutlar* — kosmetik vositalarning keng qo'llaniladigan dori turi bo'lib, terini tozalash, oziqlantirish, yumshatish, namlantirish, sovitish vazifasini bajaradi. Kosmetologiya va dermatologiyada sutlarning ahamiyati katta, chunki yog'lar va boshqa gidrofob tabiatli komponentlar (moylar, uglevodorodlar va h.k.)ning yuqori dispersligini ta'minlash imkoniyati bo'ladi. Bu esa emulsiya turidagi kosmetik mahsulotlarning yuz terisiga so'rilishini ta'minlaydi.

Kosmetik sutlarning tarkibi, texnologiyasi, tuzilishi — mexanik ko'rsatkichlar bo'yicha emulsiya dori shakliga to'g'ri keladi.

*Emulsiyalar* — bu kamida ikkita bir-birida aralashmaydigan suyuqlikdan tashkil topgan dispers sistemalar. Uch turdagi emulsiyalar mavjud:

1. Suv / moy tipdagi;
2. Moy / suv tipdagi;
3. Aralash tipdagi.

Suv / moy emulsiyalar ko‘pincha tualet sutlari sifatida qo‘llaniladi va tozalash, terini oziqlantirish, quyosh nuridan himoyalash uchun qo‘llaniladi. Moy / suv emulsiyalar — teri yuzasida yengil shimilishi sababli, ular terigi BFM kiritish uchun ishlatiladi. Ular kosmetik sutlar, suyuq kremlar shaklida bo‘lishi mumkin.

Ta’sir etuvchi moddalar sifatida xolesterol, letsitin, vitaminlar, gormonlar, o‘simlik ajratmalari va boshqa BFM kiritiladi. Hozirgi vaqtda ular tarkibiga fitohimoyalovchi moddalar kiritiladi. Yordamchi moddalar sifatida turli emulgatorlar, o‘simlik moylari, lanolin, spermatset, asalari mumi, ko‘p atomli spirtlar va boshqalar qo‘llaniladi.

*Emulgatorlar* sifatida tabiiy, sintetik va yarimsintetik yuqori molekular birikmalar qo‘llaniladi. Ularning molekulari gidrofil va gidrofob qismlardan iborat. Gidrofil qismlari — sulfat, sulfonat, karboksid guruhlari, ko‘p atomli spirtlar, murakkab efirlardan iborat. Lipofil guruhlari esa uglevodorodlar, yog‘ kislotalari, alkil, aromatik uglevodorod radikallaridan tashkil topgan.

Emulgatorlarning gidrofil guruhli qismi doim suvli fazaga, lipofil guruhi yog‘li fazaga qaratilgan. Ushbu tartibda emulgatorlarning joylanishi yuza tarangligi pasayishini ta’minlaydi. Shu xossalari bo‘yicha ular quyidagi guruhlariga ajratiladi: *ionogen emulgatorlar* — yelimlar, o‘simlik shilimshiqlar, alkil sulfatlar, pektinlar, sovunlar, ammoniy asoslarining tuzlari; *noionogen emulgatorlar* — sorbitning sintetik hosilalari, tvinlar va spanlar, T-2, kraxmal, selluloza hosilalari; *amfoter emulgatorlar* — jelatoza, kazein, quruq sutlar.

*Kosmetik sutlar umumiy texnologiyasi* ikki bosqichdan iborat: 1—birlamchi yoki emulsiya asosini tayyorlash, 2—birlamchi emulsiyani suyultirish. 100 g emulsiya uchun 10 g moy olib, unga nisbatan emulgator jadval bo‘yicha olinadi va shu olingan moy bilan emulgatorning yig‘indisining yarmicha suv solib aralastiriladi.

*Saqlash sharoiti*: quyosh nurlari tushmaydigan, harorati +3°C dan past bo‘lmagan sharoitda.

*Konservantlar* — mikroorganizmlarning o‘shini to‘xtatadigan qo‘shimchalar bo‘lib, ular mahsulotning sifatini yaroqlik muddati ichida saqlab berishni kafolatlaydi. Ularga 76/768 EES Direktivasida keltirilgan 56 nomli konservantlarni misol qilib keltirish mumkin.

Har bir mahsulot uchun alohida konservant turi va miqdori tanlab olinadi. Masalan, Vansid 89 RE eng samarador zamonaviy konservantlardan hisoblanadi, shuningdek, ko'p ishlatiladigan konservantlardan benzoy kislotasi hosilalari, turli parabenlar, Katon SG-metixlorizotiazolinon — metilizotiazolinon, Germal 115 -imidazolidinil karbamid va boshqalar.

*Quyuglashtiruvchi moddalar* — shampunlarning qovushqoqligini oshirish uchun kiritiladi. Bularga PVP, akrilatlar, yog'li kislotalarning modifikatsiyalangan glitseril efirlari, o'simlik polisaxaridlari, natriy xlorid va kationli polimerlar.

*Solubillashtiruvchi moddalar* — shampun tarkibidagi qiyin eriydigan moddalarning (konservantlar, xushbo'ylashtiruvchi moddalar) erishini osonlashtiruvchi moddalar: etil spirti, glitserin, propilenglikol, dietilenglikolning monoetil efiri.

*pH* ko'rsatkichni me'yorlashtiruvchi moddalar — normal holdagi sochning *pH* 4,5—5,5 oralig'ida, bosh terisini qitiqlamasligi uchun shampunlar tarkibiga *pH* me'yorlovchi moddalar kiritilishi kerak. Shampunlar tarkibiga *pH* ko'rsatkichni me'yorlash uchun limon kislotasi, sut kislotasi, ortofosfor kislotasi kabi «yumshoq» kislotalar yoki natriy gidroksid, mono va trietanolamin kabi ishqorlarni qo'shish mumkin.

*Xiralashtiruvchi moddalar* — tiniq shampunlarni yaltiratish, «sadaf» tus berish uchun qo'shiladi. Asosan, ular mumga o'xshash polimer mahsulotlar (yuqori alifatik kislotalari tuzlari — palminatlar, magniy stearatlar, rux stearatlar) bo'lib, ular, suvda erimasa ham shampunlarda yaxshi dispergiranadigan bo'lishi shart, ular asosan, anion va noionogen SFM bilan mos keladi. So'nggi yillarda kationitli SFM uchun mo'ljallangan xiralashtiruvchi moddalar ham ishlab chiqarilgan.

*Bo'yovchi moddalar* — shampunlarni bezash maqsadida ular tarkibiga YES Direktivasida keltirilgan bo'yovchi moddalar qo'shiladi.

*Konditsionerlar* — jarohatlangan soch strukturasi tiklash uchun qo'shiladigan oqsil modda saqlovchi tolalar, turli moylar, yog'lar, yog' spirtlari, glikolning murakkab efirlari. Krem holiday shampunlarda lanolin, gel holiday shampunlarda — jelatin ishlatilishi mumkin.

*Tozalangan suv* — shampunlar tarkibiga 80 % gacha kiritiladi, shuning uchun suvning sifati MTX talabiga javob berishi kerak. Suv tarkibidagi tuzlar ko'pik hosil bo'lishiga xalaqit beradi,

shuning uchun suvga trilon B kabi yordamchi moddalar qo‘shish mumkin.

*Biofaol qo‘shimchalar* — shampunlarni faollashtirish uchun ularning tarkibiga oqsillar, aminokislotalar, lipidlar, seramidlar, letsitinlar, lipoproteidlar, o‘simlik moylari qo‘shiladi.

Ishlatilishi bo‘yicha turli sochlarga mo‘ljallangan shampunlarga quyidagi talablar qo‘yilishi mumkin:

1. Yog‘li sochlar uchun — kedr moyi, oshlovchi antimikrob moddalar saqlagan nordon shampunlar, ular tarkibiga ko‘p miqdorda yuvuvchi moddalar — detergentlar qo‘shiladi, oziqaviy moddalarni kam miqdorda saqlashi kerak.

2. Normal tipdagi sochlar uchun — yuvuvchi moddalar o‘rta miqdorda qo‘shiladi, ular yumshoq, oziqaviy moddalarni kam miqdorda saqlashi kerak.

3. Quruq va gullagan sochlar uchun shampunlar tarkibiga kam miqdorda yuvuvchi va ko‘p miqdorda namlovchi, yog‘lovchi moddalarni saqlab, oziqaviy moddalarni kam miqdorda saqlashi lozim, agar unday bo‘lmasa, sochlar tez ifloslanishi mumkin.

4. Ingichka sochlar uchun shampunlar tarkibiga sochlarning hajmini vizual ravishda oshiruvchi — «shishiruvchi» moddalar — oqsil moddalar (keratin, protein, o‘simlik ekstraktlari), karbamid birikmalari va «yumshoq» yuvuvchi moddalar saqlashi kerak. Bunday shampunlar sochlar yopishib qolishining oldini oladi.

5. Jarohatlangan (rangsizlantirilgan va bo‘yalgan) sochlar uchun shampunlar tarkibiga oziqlantiruvchi moddalar (ilik yog‘i, tuxum sarig‘i, avokado va jojoba moylari saqlaydigan) betaraf muhitli bo‘lishi kerak.

6. Qazg‘oqqa qarshi shampunlar — rux pirit, selen sulfat kabi davolovchi moddalar va, shuningdek, konditsioner, antiseptik moddalarni saqlashi kerak, ular qazg‘oq ko‘payishini kamaytirishi kerak.

7. Konditsionerli shampunlar tarkibiga yuvuvchi SFM bilan birga silikonlar, moylar qo‘shiladi.

8. Bolalar uchun mo‘ljallangan shampunlar tarkibiga yumshoq detergentlar (ko‘zni achishtirmaydigan lauril hosilali anionfaol SFM), shuningdek, shirin hidli bo‘lishi kerak (karamel hidli). Bo‘yovchi moddalar (yaltiratuvcu moddalar) va konservantlar faqat kerakli me‘yorda qo‘shilib, shartli testlardan o‘tishi kerak. Ayrim hollarda bolalarga mo‘ljallangan shampunlar tarkibiga F kabi vitaminlar qo‘shilishi mumkin.

## 11. QO'L VA TIRNOQLARNI PARVARISHLASH UCHUN VOSITALAR

Qo'llar terisining parvarishi gigiyenik va estetik nuqtayi nazardan zarur. Qo'llar ko'proq tevarak atrof-muhitning va mehnatning tajovuzkorona ta'siridan zararlanadi. Shuning uchun yuz terisiga qaraganda qo'llar terisi ustidagi tabiiy himoya pardasi sust rivojlangan bo'ladi. Shu sababli qo'llar yog'sizlanishga, suvsizlanishga va har xil mexanik shikastlanishlarga duchor bo'ladi. Shuning uchun qo'llar terisi e'tibor va parvarishga muhtoj.

Muntazam ravishda ertalab va kechqurun toza qo'l terisiga maxsus kremni surtish kerak. U yumshatuvchi, to'yintiruvchi, namlantiruvchi va himoyalovchi ta'sir etadi. Haftada 1—2 marta skrab yordamida qo'l terisini tozalash foydali, yumshatuvchi va to'yintiruvchi g'illoflar qilish, shuningdek, davolovchi, oqartiruvchi g'illoflar va talabga qarab kremlar ishlatiladi.

Qo'lga kremni silash va ishqalash usullari bilan surtiladi, tirnoqlar qo'llarda o'zgacha chiroy ochishini hisobga olgan holda, ularni parvarishlash muhim rol o'ynaydi. Ularni qurishdan va yorilishdan asrash uchun vannachalar qabul qilib turish lozim.

Bu amalni yaxshi bajarish uchun maxsus asbob-uskunalar jamlanmasi kerak bo'ladi. Ulardan biri tirnoq egovchasi hisoblanadi. Egovchalarning tirnoq egovlaydigan yasama ham, katta-kichkinaligi ham har xil bo'ladi. Ular bilan tirnoq ichlari va qirralariga sayqal berish va tirnoq milklarini tozalash mumkin.

Undan tashqari, tirnoq uchidagi terini ko'tarib kesish va surish uchun mo'jazzgina kirakchalar ham ishlatiladi. Ular o'tkir bo'lmasligi kerak, aks holda teri va tirnoqqa jarohat yetkazishi mumkin.

Shuningdek, tirnoq va teri orasini tozalash uchun uchli qoshiqcha yoki kurakchadan ham foydalaniladi. Tirnoq ostini kirdan tozalash uchun yog'och, plastmassadan tayyorlangan maxsus tayoqchalar ishlatiladi. Tirnoq ustidagi o'sib chiqqan terilarni kesish qiyin bo'lganda, maxsus dastali pichoqcha ham ishlatiladi. Tirnoqqa sayqal berish uchun oshlanmagan teri bo'lakchasi yoki maxsus mato ham manikur jamlamasiga kiradi. Manikur qilish uchun turli xildagi rangli loklar ishlatiladi.

*Manikur qilishda talab etiladigan gigiyena qoidalari.* Mijozning qo'llari stol ustida maxsus tirgakka qo'yilgan holatda joylashtiriladi. Ustaning qo'lga ham tirgak kerak bo'ladi. Hamma ishlar ikki qo'lda

bajariladi. Bir qo‘l bilan mijozning barmog‘iga shikast yetkazmasligi uchun ushlab turiladi, ikkinchi qo‘lda tegishli asbob ishlanadi. Mijoz ham, usta ham ish paytida o‘tirgan holatda bo‘lishi kerak. Tirnoq orasida turli xil mikroblar joylashib olishini unutmazlik lozim. Shuning uchun manikurda ishlatilgan har xil asboblarni yaxshilab dezinfeksiyalangan holda ozoda saqlanishiga e‘tibor berish kerak.

*Manikur qilish tartibi:*

- eski lokni ko‘chirib tashlash;
- tirnoqni olish va unga shakl berish;
- egovlash;
- 6 % li vodorod peroksidi aralastirilgan sovunli iliq suv solingan idishchada qo‘l terisini yumshatib olish;
- qo‘l terisida vazelin surtib singdirish;
- tirnoqlarning qirralarini egovlash, tekislash va tozalash;
- barmoqlarni uqalash;
- tirnoqqa sayqal berish;
- lok surtish va bezak berish kerak bo‘ladi.

*Fransuzcha manikur qilish usuli.* Fransuzcha manikur qilish uchun tirnoqni to‘rtburchakroq shaklda kesib, chetlari ozroq egovlab qo‘yilgach, ularni bo‘yashda bir necha rangdagi loklar ustma-ust suriladi. Bu usulning o‘ziga xosligi shundaki, tirnoqning qirralari va ostki tarafi oq rangli lok bilan yoki maxsus oq qalamda bo‘yab qo‘yiladi. Agar bu usul maromida bajarilsa, tirnoq betakror bo‘ladi.

*Qo‘l va tirnoqni parvarishlash asboblari dezinfeksiya qilish vositalari.*

Asboblarni 70 % li spirtga bo‘ktirib qo‘yish dezinfeksiya qilishning eng qulay usulidir. Ikkinchi usuli qaynatish hisoblanadi. Buning uchun sirli idish ostiga ro‘molchani qo‘yib, ustiga asboblarni taxlanadi. So‘ngra ularni ko‘mib turadigan qilib suv solinadi va 45 daqiqa davomida qopqog‘ini berkitib qaynatiladi. So‘ngra uni qisqich bilan olib stol ustidagi toza salftetkaga joylashtirib qulay joyga qo‘yiladi.

Ba‘zida bexosdan qilingan noto‘g‘ri harakat tufayli mijozning qo‘liga jarohat yetishi mumkin. Shunday paytda asboblarni sterilizatsiya qilinmagan bo‘lsa, mijozga biror kasallik yuqishi mumkin. Bunday holat sodir bo‘lmasligi uchun asboblarni ishlatgandan keyin sterilizatsiya qilib qo‘yish muhim. Har holda jarohat yetkazilgan

paytda o'sha joyni 3% li vodorod peroksidi bilan dezinfeksiya qilib, maxsus krem surib qo'yish kerak. Agar jarohat jiddiy bo'lsa, uni bog'lab qo'yish lozim. Jarohat kichik bo'lsa, bog'lash shart emas.

*Qo'l va tirnoqni parvarishlash, terini qayta tiklash.* Tirnoqqa doimiy ravishda lok surish salbiy oqibatlariga olib keladi. Buning uchun tirnoq va terini doimiy parvarish qilish kerak. Tirnoq teri orasidan doimiy tabiiy ravishda o'sib chiqadi. Insonning tirnog'i organizmning holatini aks ettirib turuvchi vosita hisoblanadi. Tirnoqning xastaligi va kamchiliklari tirnoqqa qarab odam organizmidagi o'zgarishlar va kasalliklarni aniqlab olsa bo'ladi.

Tirnoqning sarg'ayishi buyrak xastaligida jigarrang tusga kiradi, tirnoqning uchlari to'liqinsimon bo'lsa, bu tirnoqning bir tekisda o'smayotganligidan dalolat. Tirnoqning shakli xunuklashib (gipertepariya), juda qalinlashib borsa, mijoz yuqumli kasallikka chalingan bo'ladi. Tirnoqlar yengillashib yupqalashib ketishi yoki tushib qolishi ham mumkin.

Tirnoqning zamburug' kasalliklariga chalinishi ham tirnoqning nimjon bo'lib qolishiga olib keladi. Kasallikka chalingan tirnoqni davolash lozim, bo'shshib qolganlarining orasida ko'ndalang oq dog'lar paydo bo'lsa vitamin yetishmasligidan dalolat beradi. Kamqonlikda tirnoq ustini tiklashning iloji bor. Tarkibida temir, fosfor, kalsiy bo'lgan A/B/C vitaminlariga boy vositalarni iste'mol qilish zarur. Jelatin tarkibidagi oqsil moddasi ham tirnoqni mustahkamlaydi.

Ovqatga har kuni 10 g jelatin qo'shib iste'mol qilib turilsa bas. Ozroq o'simlik moyini qizdirib yuborib, unga bir necha tomchi limon kislotasi, bir ampula A vitamini aralashtirib biror idishchaga solib, bir haftada 2—3 martadan, bir necha daqiqa barmoqlarni tiqib tursa ham tirnoqlar yaxshi mustahkamlanadi. Agar idishchaga bir yarim stakan ichimlik suvini solib, unga bir choy qoshiqda osh tuzi, bir choy qoshiqda ichimlik sodasi va ozroq yod qo'shib aralashtirib, idishga barmoqlarni bir necha daqiqa tiqib turilsa ham yaxshi natija beradi. Buni haftada 2 marta takrorlash kerak.

Tirnoqni davolash va mustahkamlash uchun maxsus malhamlardan foydalansa ham bo'ladi. Ular tirnoqni mustahkamlashga ko'maklashib, maydalanib ketishining oldini oladi. Tirnoqlarni mustahkamlash uchun hozirgi kunda juda xilma-xil zamonaviy dori-darmonlar va maxsus zamonaviy malhamlar ishlab chiqarilmoqda.



## **12. KOSMETIK VOSITALARNI YOSHGA VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARIGA QARAB QO'LLASH**

Yuz terisining odam organizmida tutgan o'rni ahamiyatlidir. U inson ichki organlarini tashqi iqlimning zararli holatlaridan saqlaydi. Yuz terisi mayin, tiniq, tarang tortilgan, elastik va chiroyli pushti rangga ega bo'lishi lozim.

Muntazam va to'g'ri parvarishlash lab va yuz terisini uzoq muddat yaxshi holatda saqlashga hamda turli nuqsonlarning oldini olishga yordam beradi.

Aksincha, kerakli parvarishning yetishmasligi, hatto eng yaxshi xususiyatlarga ega bo'lgan yuzning ham tarovati yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

Yuz terisini to'g'ri parvarishlash uchun avval qaysi turga mansub ekanligini ajratib olish kerak. Terini shartli ravishda uch asosiy turga bo'lish mumkin. O'rta (normal), yog'li va quruq teri, shuningdek, aralash turdagi teri ham uchraydi. Terining qaysi turga xos ekanligi ko'plab omillar — iqlim, nasliy moyillik, jins, inson shug'ullanadigan mehnat faoliyatining turi va turmush tarzini belgilaydi. Yuz terisi turini aniqlash va mijozning yuz terisi reaksiyasini yuz terisini kattalashtiradigan oyna orqali aniqlash mumkin. Kattalashtiradigan oyna orqali ochiq teshikchalar, qora va oq husnbuzarlar, yiringli yaralar va ajinlar ko'rinadi.

Yuz terisi yog'liligini yuz yog'ini shimadigan yupqa lakmus qog'oz orqali aniqlash mumkin. Lakmus qog'oz o'zi ko'p rangdan iborat kislotalada qizil rangga o'zgaradi, agar qog'oz ko'k rang bo'lib qolsa, bu terining sustligini bildiradi. Qog'oz pushti rangga o'zgarsa, bu terining kislotasi normalligini bildiradi, kislotasi oshganda qog'oz qizg'ish rangga ega bo'ladi. Bunda yuz terisi mayin, sezgir, tez so'nib borishga moyil bo'ladi. Buning uchun yuzga bir necha daqiqaga lakmus qog'ozini qo'yish kerak.

Burun va peshanaga alohida e'tibor berish lozim. Lakmus qog'oz olingandan keyin ko'rib chiqiladi, agar qog'ozda yog'li joylar ko'p bo'lsa, demak, yog' bezlari kuchli faoliyatga ega. Agar shimiladigan qog'ozda yog'li joylar kam bo'lsa, yuz terisi normal hisoblanadi. Qog'ozda yog'li joylar mutlaqo ko'rinmasa, bu yuz terisining quruqligini bildiradi. Yog'li teri — bu turdagi teri o'zidan me'yoridan ortiq yog' ajratishi bilan xarakterlanadi. Bunday teri yuzasi dag'al, yaltiroq, qalin bo'lib, tashqi ko'rinishi bilan limon po'stlog'ini eslatadi.

Yog‘li teri meteorologik omillar, kosmetik vositalar, suv, sovun ta‘siriga chidamli bo‘lsa-da, infeksiya qo‘zg‘atuvchilarga ta‘sirchan bo‘ladi. Shu sababdan ko‘pincha unda husnbuzarlar, yallig‘lanish jarayonlarini kuzatish mumkin. Shu kamchiliklarni bartaraf etish uchun yuzni bir kunda bir marta sovun bilan iliq suvda yuvish kerak. Yog‘larni kamaytirish uchun bug‘li vannadan, tozalovchi niqoblardan foydalaniladi. Bu muolajani haftada bir marta qilish kerak.

Sovun bilan yuvilgach, yuz yumshoq paxmoq sochiq bilan artiladi. Tozalovchi emulsiya suvi barmoqlar uchi bilan yuzga suriladi va ko‘pirtiriladi. Shu muolajadan keyin yuz terisi teshikchalaridagi yog‘lar erib, yo‘qola boshlaydi. Yuz terisini tozalashda tarkibida spirt mavjud bo‘lgan odekolonlardan foydalanish taqiqlangan, chunki ular terini kuydirib, dog‘ qoldiradi.

Quruq teri — nozik, rangi bir tekisda bo‘lib, aksariyat hollarda yuvingandan keyin qizil dog‘lar hosil bo‘ladi. Quruq teri tez qizaradi, suvsiz bo‘lganligi uchun osonlik bilan ajinlar paydo bo‘ladi. Quruq terining meteorologik o‘zgarishlar — quyosh, shamol, sovuq, kosmetik vositalar, suv, sovun ta‘siriga sezuvchanligi yuqori bo‘ladi. Yosh o‘tishi bilan, ayniqsa, 40 yoshdan so‘ng quruq teri yanada quruqlashadi. Agar o‘z vaqtida parvarish qilinmasa, yuz sanoqsiz ajinlar bilan qoplanishi mumkin. Bunday vaziyatlarda terida mavjud bo‘lgan elementlarni saqlovchi kremlardan foydalanish lozim bo‘ladi, bularga kosmetik sutlar, namlikni saqlab turuvchi kremlar kiradi. Quruq teri sovuq suvda yuviladi.

Quruq terini parvarish qilayotganda tarkibida lanolin bo‘lgan yog‘li sovunlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu turdagi terilar uchun odekolon, losyon ishlatish mumkin emas. Kechasiga kunduzgi, kunduzi esa yog‘liroq kremdan foydalanish zarur. Qish faslida bu turdagi terining quruqshab ketishi yanada kuchayadi. Shuning uchun kun bo‘yi yog‘li krem surish tavsiya etiladi.

O‘rta (normal) teri — yosh va sog‘lom insonlarda uchraydi. Bunday teriga ega ayollarga havas qilsa arziydi. Bu turdagi teri elastik, tiniq bo‘lib, turli nuqsonlardan xoli, sog‘lom ko‘rinishga egaligi bilan ajralib turadi.

Qon aylanishining yaxshiligi sababli teri och pushti rangga ega bo‘ladi. Normal terini kuniga bir mahal, yaxshisi kechqurun sovunlab yuvish tavsiya etiladi. Lekin bu turdagi teri ham parvarishga muhtoj bo‘ladi. Agar parvarish qilinmasa, u o‘zining dastlabki holatini yo‘qotadi va uni qayta tiklash ancha mushkul bo‘ladi.

Yuzning tabiiy go‘zalligini saqlash uchun kosmetik vositalarni me‘yorida qo‘llash kerak bo‘ladi.

Aralash teri — ba‘zan terining hamma qismlari bir xil bo‘lmaydi. Aksariyat hollarda peshana, burun va iyak qismlari yog‘li, yonoq, ko‘z atrofi, bo‘yin quruq yoki o‘rta bo‘ladi. Bunday teri aralash turga xosdir. Bu esa, o‘z navbatida, parvarishlashda murakkablik tug‘diradi. Bu holda yuzning yog‘li qismlariga yog‘li terilar uchun, quruq qismlariga esa quruq terilar uchun mo‘ljallangan vositalardan qo‘llash to‘g‘ri bo‘ladi. Bu turdagi teri iqlim o‘zgarishlariga ta‘sirchandir.

Agarda teri yallig‘langan bo‘lsa, suli yormasidan tayyorlangan niqobdan foydalanish tavsiya etiladi. Bu niqob tinchlantiruvchi, yumshatuvchi va yallig‘lanishga qarshi xususiyatga egadir. 35—40 yoshda yuzda ajinlar paydo bo‘la boshlaydi va teri qurishi boshlanadi. Kuz va qishning sovuq ob-havosidan ajinlar tez paydo bo‘ladi. Bu jarayonni to‘xtatish uchun ertalab va kechqurun yuz terisini oziqlantiradigan krem va emulsiyalardan foydalanish lozim. Krem tarkibidagi vitaminlar ajinlar tushishini sekinlashtiradi va oldini oladi.

Yotishdan oldin ajinga qarshi krem ishlatiladi, chunki bu muolaja yuzdagi mayda teshikchalarni, ajin tushgan joylarni tekislab, taranglashtiradi. Agar ajinlar erta paydo bo‘lsa, bunday holatlarda har kuni uqalash kerak. 1—2 oydan keyin esa, har 2—3 kunda massajni takrorlash zarur bo‘ladi.

Shuningdek, har kuni ertalab, kechasi krem surib bo‘lib, mushaklarning joylashishiga qarab, yuz terisini uqalab massaj qilish mumkin. Yuz terisi qaysi turga xos ekanligidan qat‘i nazar, uni parvarishlash quyidagi bosqichlarga bo‘linadi: yuz terisini tozalash, nomaqbul ob-havo, turli boshqa ta‘sirlardan himoya qilish va terini oziqlantirish. Shuningdek, teri parvarishida massaj, yuz gimnastikasi ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

**Katta yoshli ayol yuzining grimi.** Katta yoshli ayol yuzini grimlash uchun aniq bir bilim va tajribaga ega bo‘lish kerak. Bunday yuzni grimlashdan oldin yuzning anatomik tuzilishini, xususiyatlarini yaxshilab o‘rganib chiqish lozim. Umumiy rangning grimga ta‘siri kattadir va u yoshga qarab bajariladi. Umumiy rang — och rangga oxra va kulrang bo‘yoqlar qo‘shish orqali tayyorlanadi. Bu grim xuddi ozg‘in yuz grimidagidek «Bosh suyagi» sxemasi bo‘yicha bajariladi. Ko‘z tagiga to‘q rang suriladi, qoshlarga oqargan rang berish maqsadida oq rang suriladi. Rумыana katta-katta teshikli gubka yordamida yonoqlarga alohida chiziq qilib suriladi.

Ingichka uchli cho'tka yordamida peshanadagi va ko'z ostidagi ajinlar qalinroq chiziladi. Ko'z chuqurchalari jigarrang bo'yoq bilan, ko'zlar tagi kulrang va jigarrang bo'lib tuslanadi. Ko'z chuqurchasining pastki qismi va burun, labdagi chuqurchasi ko'proq chiziladi. Pastki jag'da yuz mushaklari bo'shashib ketganligi sababli, yuz terisida osilgan qopchalar paydo bo'lgan joylar chiziladi. Burundan tepa labgacha bo'lgan masofa to'q rangda tuslanadi. Bu og'izda tish yo'qligini bildiradi. Sochlar pudra orqali oqartiriladi yoki oq parik kiyiladi. Umuman, bu grim ko'zga tashlanmaydigan va ishonchli bo'lishi kerak.

**Katta yoshli erkak yuzining grimi.** Bu grim juda murakkab bo'lib, barcha jarayonlarni birlashtiradi. Bu grimni yuksak darajada bajarish uchun mahoratdan tashqari, kuzatuvchanlikka ham ega bo'lish lozim. Buning uchun qariyalar aks ettirilgan fotosuratlar, rassomlar portretlarini yaxshilab ko'rib chiqib, o'rganish lozim va grimlashdan oldin qarilikning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab olish zarur.

Katta yoshli erkak yuzining grimi yillar o'tgani sayin odamning yuz terisi, uning rangi, sochi va ko'zlari o'z shaklini yo'qota boshlaydi. Butun yuz terisi ajinlar bilan qoplanadi. Biz hayotga qiziqishini yo'qotmagan, ko'rinishi tetik, ruhi baland qariyalarni ham uchratamiz. Ammo yillar o'z izini qoldirmay qo'ymaydi. Keling, bunday grim ketma-ketligini ko'rib chiqaylik.

Grimlash rang berishdan boshlanadi. Bir necha rang № 2+3, shu bilan birga oxra va oq ranglarni qo'shib aralashtirsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu grimda yuzning «bosh suyagi» grimi sxemasi asos qilib olinadi. Rumyanalarni teshigi katta gubka yordamida och jigarrangga bakan rangi qo'shib suriladi. Ko'z chuqurchalari bir tekisda qoraytirilmaydi, ko'zning ichki burchagiga tashqi burchagiga qaraganda ko'proq rang beriladi. Yonoqlar tagidagi chuqurchalar va yuqori lab ustki qismi qoraytiriladi.

Bu grimda ajinlar katta rol o'ynaydi: peshanaga gorizontol, qoshlar o'rtasiga, burun, lab tagiga chizib qo'yiladi. Ko'z tagi kontur orqali belgilanadi. Lablar och rangda tuslanadi, uning konturi esa jigarrangga, bakan va oq rang qo'shilgan bo'lib chiziladi. Och rangli pudra ishlatiladi. Keksa yuz grimida soqol, mo'ylov, parik, bakenbardalar ishlatiladi. Ular obrazga tez kirishib ketishga yordam beradi. Bakenbardalar yuz terisiga upa surilgandan so'ng yopishtiriladi. Oldin soqol, keyin mo'ylov yopishtiriladi. Spektakl tugagach esa, oldin mo'ylov, keyin soqol va parik olinadi.

### 13. KOSMETIKA VOSITALARINING TA'SIR KUCHI

Erkaklar uchun ishlatiladigan vositalarga, eng avvalo, soqol olishda qo'llaniladigan vositalar kiradi. Bunga sabab, erkaklarda uchraydigan muammo, asosan, soqol olingandan so'ng yuz terisidagi allergik holatdir.

Shu sababli, erkaklar bu holatdan qattiq aziyat chekishadi. Buning oldini olish uchun esa soqol olingandan so'ng yuz terisiga maxsus krem surtish kerak bo'ladi. Bundan tashqari, soqol olishdan oldin sovunli maxsus ko'pik ishlatiladi. Erkaklar uchun maxsus ishlab chiqariladigan to'plamda kerakli barcha mahsulotlar mavjud. Ularning ichiga maxsus gellar, atirlar, odekolonlar kiradi. Ularning har birining o'z vazifasi bo'lib, odekolon soqol olingandan so'ng dezinfeksiya vazifasini bajaradi va har xil toshmalar toshishining oldini oladi. Lekin hozirgi kunga kelib, zamonaviy yangi kremlar ishlab chiqarilmoqdaki, ularning tarkibida maxsus gipoallergen xususiyatlari bor. Hozirgi kunda eng ommalashgan mahsulotlar brendlar asosida ishlab chiqarilmoqda.

*Har xil yoshdagi ayollar uchun kosmetika.* Yuz terisining parvarishida demakiyaj muhim ahamiyatga ega. Pardozning o'zi yuz terisi uchun zararli emas, lekin terining noto'g'ri parvarish qilinishi, pardozlash vositalaridan terining turiga qaramasdan foydalanish salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Makiyajni kechasiga qoldirib bo'lmaydi, bu terining yallig'lanishiga olib keladi.

Shuning uchun har doim uxlashdan oldin makiyajni yuz terisini tozalovchi maxsus suyuqlik bilan namlangan matoda artish zarur. Bunda yengil qo'l harakatlari bilan yuzning markazidan boshlab barcha qismi namlangan matoda bir necha marta toza bo'lgunga qadar artiladi.

Yuzdagi oqartiruvchi vositaning, labdagi lab bo'yog'ining, ko'zdagi ten va kipriklardagi tushning yaxshilab tozalanishi keyingi makiyaj uchun muhimdir. Agar dastlabki makiyajni yaxshi tozalamasdan turib, ustidan qayta makiyaj qilinsa, yuz terisining rangi o'zgarib ketadi va makiyaj chiroyli chiqmaydi.

Yuz terisi 35—40 yoshdan so'ng ko'proq parvarish talab holga kelib qoladi. Ayni shunday paytda yuz terisiga parvarish ishlari olib borilmasa, yuz terisi tezda qariydi va o'z elastikligini yo'qotib ajin tushish jarayonini tezlashtirib yuboradi. Shu sababdan, yuz turiga moslab har xil kremlar, niqoblardan muntazam ravishda foydalanib turish kerak.

Misol uchun har kuni yuzni tozalab, maxsus namlantiruvchi hamda oziqlantiruvchi krem surtish lozim. Yana bir usul — bu niqoblardan foydalanishdir. Hozirgi kunda deyarli barcha yirik kosmetik kompaniyalarning mahsulotlari asosini asal va sut, qolaversa, limon sharbati va shunga o‘xshash ne‘matlar tashkil qiladi. Lekin afsuski, tabiiy mahsulotlar asosida ishlab chiqarilgan kosmetik vositalarni boshqalaridan ajratib olib, ulardan to‘g‘ri foydalanish juda mushkul.

Yoshga moslab kosmetika tanlashda, eng avvalo, yuz terisining qaysi turga mansubligini bilish zarur. Shunga qarab, kosmetika tanlanadi. Masalan, yosh yuz teri uchun ortiqcha parvarish talab etilmaydi. Faqat makiyajdan so‘ng yuzni maxsus losyon yoki sut yordamida artib, ketidan maxsus namlantiruvchi va oziqlantiruvchi krem surtilsa bo‘ladi. Agarda yosh yuz terisi yog‘li bo‘lib muammolari ko‘p bo‘lsa, unda har kuni ertalab yuzni skrab yordamida tozalab olish kerak bo‘ladi.

Tozalangan yuzga maxsus yumshatuvchi krem surtiladi. Ortiqcha kosmetik vositalardan ko‘p foydalanish yuz terisining yanada yomonlashishga olib kelishi mumkin. O‘rta yoshli ayollardagi muammo, bu — mimik va ko‘z atrofiga tushadigan ajinlardir. Shuni inobatga olgan holda ular doimo himoyalovchi kremlardan foydalanishlari kerak. Kremlarni xarid qilishda ayol o‘zi uchun, ya‘ni yoshiga mosini tanlashda ustidagi yozuvlarga ahamiyat berishi kerak bo‘ladi.

Qadoq ustida misol uchun 25 yoshli va undan kattalarga mo‘ljallangan bo‘lsa, 25+ belgisi bo‘ladi. Xuddi shu ko‘rinishda 35+, 40+, 45+ kabi yozuvlari bo‘ladi. Asosan, shu belgilar orqali kremlarni yoshga moslab tanlash mumkin. Massaj — bu kosmetik muolajalardan eng foydalisidir. U qadimgi Yunoniston va Rimda azaldan odamlarga ma‘lum bo‘lgan. Hammomlarda kosmetik massaj bilan shug‘ullanuvchi qullar teriga xushbo‘y aralashmalar va yog‘lar surishgan. Massajga Sharqda ham katta ahamiyat berilgan. Massajning turlari bir necha xil bo‘lib, Xitoy akapunkturasi (ignali massaj) eng foydalisi hisoblanadi. So‘nggi vaqtlarda mushaklarni mustahkamlaydigan va ajin tushishining oldini oladigan aloqasiz massaj qo‘llanilmoqda.

Massaj qilinayotganda maxsus surtmalar va yog‘lardan foydalanish zarur. Uning yordamida teri taranglashadi va mayinlashadi. Uqalash kuchi va massaj davomiyligini e‘tiborga olish zarur. Albatta,

tana organlarining anatomik tuzilishini bilish zarur, aks holda, noto'g'ri uqalash natijasida ichki organlarga shikast yetishi mumkin. Tana a'zolarining har bir qismining o'z massaj texnikasi mavjud. Yuz va bo'yin gigiyenik massajining maqsadi — yuz va bo'yinning chiroyini saqlab qolishdir. Ma'lumki, qon aylanishi buzilsa yoki yetarli bo'lmasa, yuz terisi vaqtli qarishni boshlaydi. Tizimli massaj bu holatni sekinlashtirishga yordam beradi.

**Massaj** — bu har tomonga va har xil kuch ishlatiladigan harakatlar birlashmasidir. Massaj qon tomirlarining kengayishiga, qon aylanishining yaxshilanishiga, shu bilan birga moddalar almashinuvining mo'tadillashishiga yordam beradi. Kosmetikada massaj turli muolajalar bilan bog'liq (parafin niqoblar, darsonval).

**Massaj usullari.** Besh asosiy massaj usullari mavjud:

1. Silash usuli faqat terida bajariladi. U qon aylanishini yaxshilaydi. Silash natijasida terining yashab bo'lgan yuqori qavati (epidermis) ko'chib tushadi, terining nafas olishi yaxshilanadi, ter va yog' bezlarining funksiyasi faollashadi, teri-qon tomirlari kengayib, kapillarlar ochiladi.

2. Uqalash usuli ta'sirida paylarning elastikligi oshadi, qisqargan mushak pardalari cho'zilib tortiladi, to'qimalarda qon, limfa oqimi yaxshilanadi.

3. Qoqish usuli massaj qilinayotgan joyga ko'p qon kelishi va uning oziqlanishini yaxshilaydi, mushak tolalarini ta'sirlantirib, qisqarish kuchini oshiradi, ana shu xususiyati bilan markaziy asab tizimining qo'zg'aluvchanligini oshiradi.

4. Ishqalash usuli bo'g'imlarda, paylarda, boylamlarda, asab-larning chiqish joylarida va boshqa sohalarda o'tkaziladi hamda terini tezda qizdirish uchun bajariladi.

5. Tebrantirish usuli silkitib-silkitib qo'yish, titratish va kaftlar orasida mushaklarni asta ezish harakatlaridan iborat.

**Massaj turlari.** Massaj gigiyenik-kosmetik va davolovchi bo'ladi.

*Gigiyenik-kosmetik massaj* terini tez qaritmaslikka yordam beradi. U teridagi davolovchilik xususiyatini va elastiklik qobiliyatini oshirib beradi. Odatda, 30 yoshga yaqin teri o'zining elastiklik qobiliyatini yo'qotadi, shuning uchun shu yoshga yaqin massaj qilishni boshlash kerak. Har qanday massajni boshlashdan oldin terini ko'rikdan o'tkazish, teri holatini baholash lozim. Massaj yuzni tozalashdan boshlanadi. Yuzni ikki qo'llab massaj qilish

kerak. Bunda kiprik, burun, quloqlarga tegib ketmaslik hamda gigiyenik qoidalarga amal qilmoq lozim.

Massaj jarayonida oziqlantiruvchi surtma teriga yaxshi singiriladi. Peshanadan chakkagacha, burundan quloqqacha, dahan oʻrtasidan quloq orqasigacha bir xil harakatlar orqali bajariladi. Massaj harakatlari ritmik boʻlib, terini qattiq tortmaslik kerak. Bu holat 3—5 marta takrorlanadi.

*Davolovchi massaj* taʼsirida terida biologik faol moddalar hosil boʻlib qonga tushadi, ular tomir reaksiyalarida asab impulslerini oʻtkazishga va boshqa reaksiyalarda qatnashadi. Massaj davomiyligi 15 daqiqani tashkil etib, toʻliq davolanish kursi 15—20 muolajadan iboratdir. Massajni kunora olish kerak, oyiga esa 3—4 marta olish mumkin. Bu massaj bir yil davomida 1—3 kursdan ortiq qilinishi mumkin emas.

*Massaj mumkin boʻlmagan holatlar.* Massaj yiringli yarachalar mavjudligida qilinmaydi. Shu bilan birga, teri shamollaganda, teri-zamburugʻ kasalligida, qon bosimi koʻtarilganda, ekzema kasalliklarida ham undan foydalanilmaydi.

*Kosmetik niqoblar.* Niqoblar yuz terisi va boʻyinga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Ular doimiy qoʻllanganda yuz terisi oʻzining sogʻlomligini va koʻp yillar davomida mayinligini yoʻqotmaydi. Niqoblar terining qon aylanish faoliyatini tezlashtiradi, oziqlanishini yaxshilaydi. Terining elastiklik qobiliyatini oshiradi va ajinlarning kamayishiga yordam beradi.

Niqoblarning bir necha turlari mavjud: oziqlantiruvchi, yumshatuvchi, oqartiruvchi, taranglashtiruvchi va boshqalardir. Niqoblarning qoʻllanilishiga qarab, ularning tarkibiga yogʻlar, un, tuxum sarigʻi va oqi, har xil kukunsimon moddalar, glitserin va asalni kiritish mumkin. Niqobni ishlatishdan oldin tayyorlash zarur. Niqob surilgandan soʻng, yuz niqob olingunga qadar tinch holatda boʻlishi kerak. Niqob ijobiy natija berishi uchun haftada bir marta qoʻllanilishi zarur.

Uy sharoitida niqoblar yuz yaxshilab yuvilgandan soʻng qoʻllaniladi. Niqobni surishnig asosiy massaj yoʻnalishlari quyidagichadir: iyakdan chakkagacha, ustki labdan quloqqacha, burun yonlaridan quloqqacha, peshana oʻrtasidan chakkagacha olib boriladi. Odatda, niqob sovuq suvga namlangan paxta yordamida artiladi.

*Kosmetik moddalardan allergiyalar.* Kosmetik moddalar hozirgi paytda keng qoʻllanilmoqda. Baʼzan kosmetik moddalar terining



shamollashiga, dermatit va ekzemaga olib keladi. Har xil soch bo'yoqlarini ishlatishdan avval terining sezuvchanligini tekshirib ko'rish kerak. Dermatitning yashirin davri 24 soat.

Birinchi belgilari teri qichishishi va kuchli achishishdir. Shu bilan birga shish paydo bo'ladi. Shishgan joylarda pufakchalar paydo bo'ladi, ular yorilib, dag'allashadi. Bunday holatlarda quyidagi suyuqliklar ishlatiladi: 150 g dengiz suvi, 1 litr suv, 50—60 ml kislorod suvi  $H_2O_2$ . Umumiy ishlab chiqarishga kirishishdan avval surtmalar dastlabki ko'rikdan o'tkaziladi, shunga qaramasdan ba'zi ayollarning terilari juda ham sezuvchan bo'ladi.

Yaxshi natijaga erishish uchun zamonaviy surtmalarga ko'p miqdorda faol elementlar qo'shiladi, ulardan ba'zilar teriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Atir-odekolonlar dog'lar paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda allergiya beruvchi kosmetik vositalardan foydalanishni to'xtatish lozim.

#### **Yuz terisi uchun niqoblar.**

Universal niqoblar barcha turdagi — quruq, yog'li va o'rta yuz terilari uchun mo'ljallangan bo'lib, ularga bir xil ta'sir ko'rsatadi.

*Qulupnayli niqob* — 1—2 dona qulupnay ezilib, unga oz miqdorda oziqlantiruvchi krem, bir choy qoshiq asal va bir choy qoshiq limon sharbati qo'shiladi.

*Sabzi niqobi* — teng miqdorda smetana, tvorog va sabzi sharbati qo'shilib, niqob tayyorlanadi.

*Tvorogli niqob* — 3 choy qoshiq tvorogga 1 choy qoshiq asal va 1 choy qoshiq limon sharbati qo'shiladi.

*Gerkules niqobi* — 2 osh qoshiq suli bodroqchalarini 1 osh qoshiq sut, 1 osh qoshiq o'simlik yog'i va 1 osh qoshiq asal bilan aralashtiriladi.

*Limonli niqob* — 1 choy qoshig'ida limon sharbati, 1 choy qoshiq smetana va ozroq teringizga mos keluvchi krem.

*Olmali niqob* — 1 choy qoshiq qirg'ichdan o'tkazilgan olma va 1 choy qoshiq smetana bilan yaxshilab aralashtiriladi.

#### **Quruq yuz terisi uchun niqoblar.**

*Yong'oqli niqob* — 25 g sariyog' 1—2 ta yong'oq mag'zi bilan ezib aralashtiriladi va unga 1 choy qoshiq limon sharbati qo'shiladi. Bu niqob terini mustahkamlaydi.

*Asalli niqob* — 1 ta tuxum sarig'i, 1 choy qoshig'ida asal, 1 qoshiq qizdirilgan o'simlik moyi niqobda bir necha tomchi limon

sharbatini qo‘shish ham mumkin. Bu niqob ajinlar bilan qoplangan quruq va o‘rta terilarda samara beradi, terini oziqlantiradi.

*Xamirturushli niqob* — 1 choy qoshiq xamirturush 1 osh qoshiq isitilgan sut bilan ivitiladi. Bu niqobdan so‘ng yuz terisi mayin bo‘lib, ajinlar ham tekislanadi.

*Kartoshkali niqob* — qaynatilgan kartoshka ezilib, unga 1 osh qoshiq issiq sut va 1 choy qoshiq o‘simlik moyi qo‘shiladi, bu niqob terini oziqlantiradi va tozalaydi.

*Bodringli niqob* — 1 osh qoshiq bodring sharbati, 1 osh qoshiq smetana, 20 tomchi atirgul suvi qo‘shilib, yaxshilab ko‘pirtiriladi va yuz terisiga qalin qilib surtiladi. Bu niqobni o‘rta yuz terisiga qo‘llash mumkin.

#### **Yog‘li yuz terisi uchun niqoblar.**

*Xamirturushli niqob* — vodorod peroksidining 3 % li eritmasiga 1 osh qoshiq xamirturush qo‘shilib, bo‘tqasimon holga keltiriladi. Niqob surtilgach, 20 daqiqadan so‘ng avval iliq, so‘ng sovuq suvda yuvib tashlanadi. Bu niqob terini tetiklashtirib, kengaygan yuz terilarini toraytiradi.

*Sabzi niqobi* — 1 choy qoshiq sabur (aloe) o‘simligining sharbatiga tuxum oqi qo‘shiladi.

*Kraxmalli niqob* — qirg‘ichdan o‘tkazilgan 1 osh qoshiq olmaga tuxum oqi va 1 choy qoshiq kraxmal qo‘shiladi.

*Limonli niqob* — tuxum oqi ko‘pirtiriladi, 1 choy qoshiqda limon yoki bodring sharbati qo‘shiladi. Quruq terili yuzlarga bu niqobdan foydalanishdan oldin krem surtish lozim.

*Vitaminli niqob* — 2 choy qoshiq suyuqroq krem, bir dona tuxum sarig‘iga 15—20 tomchi E vitamini va 8—10 tomchi D vitamini qo‘shiladi.

Shuni yodda tutish lozimki, har qanday niqobni 15—20 daqiqa davomida ushlab turiladi va iliq suv yoki sovuq suvda yuvib tashlanadi.

## **14. DEZINFEKSIYALOVCHI, QON TO‘XTATUVCHI VA YORDAMCHI MATERIALLAR**

*Dezinfeksiya qilish usullari.* Asboblarni dezinfeksiya qilishda fizik va kimyoviy usullar qo‘llaniladi. Fizik usulga metall asboblarni qaynatish yoki kuydirish (qizdirish) kiradi. Ustara, qaychi, manikur va pedikurda ishlatiladigan metall moslamalarni dezinfeksiya

qilishning eng ishonchli usuli ularni qaynatish hisoblanadi. Bunda elektr sterilizatorlardan foydalaniladi. Buning uchun asboblarni uning ichidagi panjaraga joylashtirib, ularni botirgunga qadar suv quyiladi va mahkam qilib qopqog‘i berkitilib, 15—20 daqiqa qaynatiladi.

Sterilizator bo‘lmasa, sirli idishda qaynatsa ham bo‘laveradi. Asbobning o‘tkir tig‘i zarar ko‘rmasligi uchun idishning tagiga yupqa mato, paxta yoki doka qo‘yiladi. Asboblarni ish boshlashdan oldin yoki har bir mijozga xizmat ko‘rsatishdan oldin qaynatiladi. Qulay bo‘lishi uchun sartarosh va ustalarda asboblarni ikki to‘plam bo‘lishi kerak. Chunki birini ishlatganda ikkinchisi qaynab turadi.

Qaynatilgan asboblarni ehtiyotkorlik bilan olib, yana iflos bo‘lmasligi uchun spirtga solib qo‘yiladi. Idishdagi spirt suv qoldiqlarini o‘ziga tortib oladi va asboblarni zanglashdan hamda boshqa mikroblardan asraydi. Idish mato bilan yopib qo‘yiladi.

Fizik dezinfeksiyaning yana bir usuli — asbobning spirt alangasi yoki gazda qizdirish va toblashdir. Spirt yoqish uchun mo‘ljallangan moslamalar metall yoki shishadan tayyorlangan bo‘lishi mumkin. Moslamaga texnik spirt solinib uning uchiga paxta yoki dokadan pilik yasaladi. Alanganing balandligi kamida 2—2,5 sm bo‘lishi kerak. Asbobning kesish qismi avval spirtga botirilib, so‘ngra olovning ko‘k rangidagi qismida ushlab turiladi. Asbobdagi spirt yonganida unga qo‘shilib mikroblar, mayda tuklar va teri qoldiqlari ham yonib ketadi.

Kimyoviy usulda dezinfeksiya qilish ashyolariga spirt, xloramin qorishmasi, karbol kislotasi, formalin va boshqalar kiradi. Kimyoviy dezinfeksiya ashyolari asbobdagi mikroblarni tez va ishonchli yo‘qotishi, hidi o‘tkir va badbo‘y bo‘lmasligi, asboblarni yedirilishiga olib kelmasligi, terini bo‘yamasligi va unga salbiy ta‘sir ko‘rsatmasligi, soch va tirnoqlarning rangini buzmasligi lozim. Bu talablarga ko‘proq spirt va 0,5 % li xloramin aralashmasi javob beradi.

Asboblarni infeksiyadan tozalash uchun ko‘pincha 70° li texnik spirtlar — gidroliz va denaturatdan foydalaniladi. Uni og‘zi mahkam bekiladigan plastmassa yoki shisha idishga solinadi. Idish 100 yoki 50 ml bo‘lishi kerak. Dezinfeksiya qilinganda asbobning qirqadigan qismi to‘la spirtga cho‘ktirilishiga e‘tibor berish lozim.

Ish tugagandan keyin qolgan spirtni soch tolalari va qoldiqlardan tozalash uchun doka yoki paxtadan sidirib olish, bo‘shagan idishni esa issiq suvda chayib tashlash tavsiya etiladi.

Spirtning quvvati va infeksiyadan forig' qilish imkoniyati asta-sekin yo'qola borishi tufayli uni har 3 kunda almashtirib turish tavsiya etiladi. Har bir mijoz uchun ajratiladigan spirt miqdori 1 g. Spirtning foydalanishga yaroqli ekanligini sinash uchun ozroq paxtani botirib olib yoqib ko'rish kerak. Alanga yaxshi bo'lsa spirt ishga yaroqli hisoblanadi.

Asboblarni dezinfeksiya qilishda fizik va kimyoviy usullar qo'llaniladi. Fizik usulga metall asboblarni qaynatish yoki qizdirish kiradi. Ustara, qaychi, manikur va pedikur ishlatiladigan metall moslamalarni dezinfeksiya qilishning eng ishonchli usuli ularni qaynatish hisoblanadi. Bunda elektr sterilizatoridan foydalaniladi. Buning uchun asboblarni uning ichidagi panjaraga joylashtirib, suv quyilib 15—20 daqiqa qaynatiladi.

Qulay bo'lishi uchun satarosh va ustalarda asboblar ikki to'plam bo'lishi kerak. Chunki birini ishlatganda ikkinchisi qaynab turadi. Fizik dezinfeksiyaning yana bir usuli: asboblarning spirt alangasi yoki gazda qizdirish mumkin.

Kimyoviy usulda dezinfeksiya qilish ashyolariga spirt, xloramin qorishmasi, karbol kislotasi, formalin va boshqalar kiradi. Kimyoviy dezinfeksiya ashyolari asboblardagi mikroblarni tez va ishonchli yo'qotishi, hidi o'tkir va badbo'y bo'lmasligi, asboblarning yedirilishiga olib kelmasligi, terini burmasligi va unga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi, soch va tirnoqlarning rangini buzmasligi lozim. Bu talablarga ko'proq spirt va 0,5 % li xloramin aralashmasi javob beradi.

Xloramin — kuchsiz xlor hidi kelib turadigan rangsiz suyuqlik. Karton va boshqa sun'iy materiallardan yasalgan taroq, cho'tkalarni tozalash uchun 0,5 % li aralashma sifatida ishlatiladi. Asboblarni 10—15 daqiqa xloramin qorishmasiga solib qo'yiladi. Shuning uchun ustalar ikkita jamlamadan foydalanishadi. Xloramin 3—4 kunda almashtirib turiladi.

Karbol kislotasi — infeksiyadan tozalashga ishlatiladi. Chunki u metall asboblarning yemirilishiga olib keladi. Formalin — rangsiz suyuqlik bo'lib, hidi o'tkir. Yod 5—10 % li aralashma holda dezinfeksiya qilish uchun ishlatiladi.

*Qon to'xtatuvchi vositalar.* Sartaroshlikda qon to'xtatuvchi vositalarga quyidagilar kiradi:

1. Eng ko‘p tarqalgan usullardan biri — bu 3—6 % li vodorod peroksidi ( $H_2O_2$ ). Lekin bu usulda qon to‘xtatish juda sekin holda bo‘ladi.

2. Yana bir turi, bu — achchiqtoshdir. Achchiqtosh qalamcha ko‘rinishida ishlab chiqariladi, lekin uni bu holda ishlatib bo‘lmaydi. Sababi, biron-bir yuqumli kasallik biridan biriga o‘tishi mumkin. Shuning uchun eng yaxshi usuli aralashma tayyorlashdir.

3. Yana bir usuli — gidroperit tabletkasidir. Faqat bu usulda har bir mijoz uchun alohida tabletka ishlatish kerak.

*Yordamchi materiallar.* Yordamchi materiallarga doka, paxta, sochiq, maxsus tayyorlangan diskli tamponchalar kiradi.

## 15. ELEKTR ENERGIYASINING ISHLATILISHI

Hozirgi zamon energetikasi mamlakat xalq xo‘jaligining asosiy tarmog‘idir. U fan-texnika taraqqiyotini rivojlantirishda, ijtimoiy ishlab chiqarishni jadallashtirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Ayni vaqtda amaldagi barcha energiya turlari orasida elektr magnit energiyasidan eng ko‘p foydalaniladi. Energiyaning bu turini kundalik amaliyotda elektr energiyasi deb atash qabul qilingan. Energiya materiyaning xossalariidan biridir. Har bir energiya turining energiya tarqatuvchi moddiy obyekti mavjud. Masalan, gidroturbinaning parraklariga tushayotgan suv, shamol, buralgan prujina mexanik energiyasini, isitilgan gaz, bug‘, qaynoq suv esa issiqlik energiyasini tarqatadi.

Materiyaning alohida turi bo‘lgan elektr magnit maydon elektr energiyasining tarqatuvchisi hisoblanadi. Elektr magnit maydonning bu xossasi fizika kursidan bizga ma‘lum bo‘lgan elektr jihatdan zaryadlangan va magnitlangan jismlarning o‘zaro ta’siri, elektr toki, elektr magnit induksiya kabi bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan elektr va magnit hodisalarining asosi hisoblanadi.

*Elektr energiyasini hosil qilish va uzatish.* Elektr energiyasi energiyaning boshqa turlaridan bevosita yoki oraliq o‘zgartirishlar yo‘li bilan olinadi. Buning uchun tabiiy energiya manbalari organik yadro yoqilg‘isidan, shuningdek, tiklanadigan energiya manbalaridan: daryolar oqimi, sharsharalar, okean suvlarining ko‘tarilishi, quyosh radiatsiyasi, shamol, geotermal manbalar-dan foydalaniladi.

*Doimiy tok elektr zanjirlari.* Elektr toki tegishli sharoitda qaysi turdagi moddada paydo bo'lganligiga qarab, bir necha xil bo'ladi. Moddalar elektr o'tkazuvchanlik darajasiga ko'ra o'tkazgichlar, yarim o'tkazgichlar va tok o'tkazmaydiganlarga bo'linadi. O'tkazgichlarda elektr zaryadining erkin tashuvchilarini hosil qiladi. Metallarda bular erkin elektronlar, elektroidlarda (tuz, kislota, ishqor eritmalarida) zaryadlangan atom va molekularlar (ionlar).

Metallarning elektr o'tkazuvchanligi elektronli, elektrolitlarniki esa ionli o'tkazuvchanlik deyiladi. Agar o'tkazgichda elektr maydon saqlab turilsa, betartib issiqlik harakatida ishtirok etayotgan erkin zaryadlangan zarrachalar (elektronlar, ionlar) elektr maydon ta'sir kuchi Fe yo'nalishida (kuchlanganlik chizig'i bo'ylab) tezlik oladi. Bu holda zarrachalar, asosan, bitta yo'nalishda — musbat zarrachalar maydoni yo'nalishi bo'ylab, manfiy zarrachalar teskari tomonga harakat qiladi.

Elektr tokini faqat o'tkazgichda emas, balki zarur sharoit yaratilsa, vakuumda hosil qilish va saqlab turish mumkin. Modda yoki vakuumda elektr zaryadi erkin tashuvchilarining bir yo'nalishda harakatlanish hodisasi o'tkazuvchanlik elektr toki deyiladi.

*O'zgaruvchan tokning asosiy tushunchalari.* O'zgaruvchan tok generatorining magnit sistemasi shunday yasalganki, magnit qutblari bilan rotor orasidagi havo tirqishida magnit maydon rotor aylanasining radiuslari bo'ylab yo'nalgan, magnit induksiyasi esa havo tirqishi bo'ylab sinusoid bo'yicha taqsimlangan. Havo tirqishining holati neytral tekislikdan soat strelkasining harakatiga teskari yo'nalishda hisoblangan burchak  $B$  bilan aniqlanadigan istalgan nuqtasida magnit induksiyasi  $B=B_m$  tenglamasi bilan ifodalanadi.

Neytral tekislik qutblar o'qiga perpendikular va magnit sistemasini simmetrik qismlarga bo'ladi, ulardan biri shimoliy qutbga, ikkinchisi janubiy qutbga tegishli bo'ladi. Magnit induksiyasining eng katta qiymati  $B_m$  qutblar o'rtasining tagida, ya'ni  $B=90^\circ$ ,  $B=270^\circ$  burchaklarida bo'ladi, neytralda esa ( $B=0^\circ$ ,  $B=180^\circ$  da) u nolga teng.

Rotor burchak tezlik bilan bir me'yorda aylanganda uning chulg'amida paydo bo'ladi. Magnit induksiyasining qiymatini o'rniga qo'ysak,  $e=2B_m v t \sin B$  hosil qilamiz.  $B=90^\circ$  da, ya'ni o'ram qutblar o'rtasining tagida bo'lgan holatda eng katta e.y.k  $e_m = 2B_m$

VI paydo bo‘ladi. Burchak ifodasi  $B=t$  ni e‘tiborga olsak, e.y.k.ning vaqtida bog‘liqligi topildi.

*Bir fazali zanjirlar.* Hozirgi vaqtda elektr energiyasini olish, uzatish va taqsimlash uchun, asosan, o‘zgarmas tok qurilma va inshootlari: generatorlar, transformatorlar, elektr uzatish liniyalari, taqsimlash elektr tarmoqlari ishlatiladi. Elektr iste‘molchilarining ko‘pchiligi o‘zgaruvchan tokda ishlaydi. Vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradigan elektr toki o‘zgaruvchan tok deyiladi.

Amalda o‘zgaruvchan tok deganda, odatda, sinusoid elektr toki vaqtning sinusoidal funksiyasi hisoblangan davriy elektr toki nazarda tutiladi. Ba‘zi hollarda tok davriy nosinusoidal qonun asosida o‘zgaradi. Chiziqli elektr zanjirlarida o‘zgaruvchan sinusoidal tok xuddi shunday shakllardagi e.y.k. ta‘sirida vujudga keladi.

Shu sababli, o‘zgaruvchan tok zanjirlarini o‘rganish uchun sinusoidal e.y.k.ning olinishini va sinusoidal qonun bo‘yicha bir fazali zanjirlar bo‘yicha o‘zgaradigan kattaliklarga taalluqli asosiy tushunchalarni ko‘rib chiqish zarur.

## 16. ELEKTR TEXNIK O‘LCHOVLAR

*Uch fazali zanjirlar.* Hozirgi elektrotexnikada, asosan, o‘zgaruvchan tokdan foydalaniladi. Elektr energiyasini olish, uzatish va taqsimlash uchun uch fazali elektr sistemalaridan foydalaniladi. Uch fazali sistemaning barcha elementlarini dastlab mashhur rus ixtirochisi M.O. Dolivo-Dobrovolskiy (1862—1919) ishlab chiqqan edi. Bu qisqa davr ichida uch fazali qurilmalarni aylanuvchi magnit maydonli generator rotorining chulg‘ami qisqa tutashadigan asinxron dvigatel transformator va boshqalarni yaratdi. 1891-yilda jahon elektrotexnika ko‘rgazmasida M.O. Dolivo-Dobrovolskiy dunyoda birinchi marta 175 km masofaga elektr uzatishning bir fazali liniyasini namoyish qildi.

Elektr zanjirlarining uch fazali sistemasi uchta zanjirning to‘plamidan iborat bo‘lib, ularda bir xil chastotali bir-biriga nisbatan faza jihatdan siljigan va umumiy energiya manbalaridan hosil bo‘ladigan uchta sinusoidal E.Y.K. ta‘sir etadi. Elektr zanjirlarining alohida fazalari elektr jihatdan bir-biriga ulangan uch fazali sistemasi uch fazali zanjirlar deyiladi.

*O'lchov asboblari.* O'lchash ishlarida qo'llaniladigan texnik vositalar o'lchash apparaturasi deyiladi. Uning tarkibiga o'lchovlar, o'lchash asboblari va moslamalar kiradi. O'lchov deb o'lchov birliklarini moddiy jihatdan, shuningdek, uning qirrali va kasr qiymatlarini qayd qiladigan qurilma modda yoki jismga aytiladi.

O'lchovlar doimiy o'zgaruvchan qiymatli bo'ladi. Doimiy qiymatli o'lchov bir aniq qiymatga ega. Bunday o'lchovlarga tarozi toshlar, o'lchash kolbalari, kalibrlar, namuna qarshiliklar, kamer-tonlar va boshqalar kiradi.

O'lchash asbobi deb qandaydir kattalikni uning o'lchov birligi bilan solishtirishga mo'ljallangan qurilmaga aytiladi. Ishlash tamoyili va konstruksiyasi jihatidan o'lchash asboblarni olish usuli, ko'rsatishlarning hisoblash usuli, qo'llanish xarakteri, aniqlik darajasi, ishlari tamoyili, o'lchanadigan qattqlikning turi, montaj qilinishi va boshqa o'ziga xos xususiyatlariga qarab klassifika-tsiyalanadi.

O'lchash natijalarini olish usuliga qarab, bevosita ko'rsatuvchi, solishtirish va yig'uvchi (integrallovchi) asboblarga bo'linadi. Bevosita ko'rsatuvchi asboblarda o'lchangan kattalikni ko'rinarli, qulay parametrlarga aylantirishga asoslangan. Bunday parametrlar bo'lib, ko'pincha mexanik siljishlar xizmat qiladi. O'lchanadigan kattalik qiymati bilan uning analogiyasi — mexanik siljishi orasidagi munosabat namuna o'lchovlar yoki asboblardagi taxminiy gradui-rovkaga qarab belgilanadi.

O'lchash tamoyili namunali o'lchov ishtirokisiz o'tadi. Bunday asboblarning konstruksiyasi juda oddiy, kattaliklarni uzluksiz nazorat qilish uchun qulay, biroq aniqlik darajasi nisbatan ancha past. Kattalikni bevosita ko'rsatadigan asboblarga shisha termometrlar, prujinalar, manometrlar va turli strelkali asboblarda kiradi.

*O'zgaruvchan tokning elektr mashinalari.* Barcha turdagi elektr mashinalar ishlashining fizik asosini elektromagnit hodisalari: magnit maydonning kuch ta'siri va elektromagnit induksiyasi tashkil etadi. Mexanik energiya bilan elektr energiyasini bir-biriga aylantirishning prinsipial imkoniyatlari ko'rsatilgan edi.

Bu imkoniyatlar sanoat miqyosida elektr mashinalar vositasida amalga oshiriladi. Mexanik energiyani elektr energiyasiga aylantirish uchun elektr generatorlar elektr energiyasini mexanik energiyaga aylantirish uchun elektr dvigatellar xizmat qiladi.



Hozirgi vaqtda o‘zgaruvchan tokning sinxron va asinxron elektr mashinalari eng ko‘p ishlatiladi. Ikkala turdagi mashinalar generator va dvigatel rejimlarida ishlatilishi mumkin. Lekin amalda sinxron generatorlar va asinxron dvigatellar eng ko‘p ishlatiladi.

O‘zgaruvchan tok elektr mashinalarining konstruksiyasi va ish jarayonlari ularning vazifasiga qarab turlicha bo‘ladi. Lekin ularning hammasida qo‘zg‘almas qism stator va aylanuvchan qism rotor bo‘ladi. Ularning ishlash prinsipi va aylanuvchan magnit maydonidan foydalanishga asoslangan.

## **17. SARTAROSHXONALARNING JOYLASHISHINI REJALASHTIRISH**

Sartaroshxonalarining balandligi 3,3 metr, yordamchi xonalar balandligi 2,7 metr bo‘lishi kerak. 5 kishidan ortiq mijozga xizmat ko‘rsatuvchi sartaroshxonalarda mijozlar va mutaxassislar uchun belgilangan alohida 2 ta eshik bo‘lishi lozim. Kirish yo‘lagi isitiladigan bo‘lib, uzunligi 1,2 m bo‘lgan holda eni eshikning enidan 1,5 barobar keng bo‘lishi shart.

Sartaroshxonalar loyihalashtirilayotganda quyidagi talablarga rioya qilinishi lozim: kiyim ilish joyi kiraverishda joylashtirilib, kiyim ilgichlar bilan jihozlanishi kerak. Har bir ish joyiga uchtadan ilmoq osish zarur. Xizmat ko‘rsatish xonalariga navbat kutish joyi, g‘azna, boshni yuvib soch quritish xonasi va yordamchi xonalar tutash bo‘lishi ko‘zda tutiladi.

Ma‘muriy-maishiy va ashyolarni saqlash xonalari shunday joylashmog‘i lozimki, u joylarda xizmat ko‘rsatish xonasini chetlab o‘tib kirish imkoniyati bo‘lsin. Sartaroshxonalar tabiiy yorug‘ bo‘lishi kerak. Quyosh nuridan havo tozalanadi, ishchilarning ko‘zi toliqmaydi. Mehnat qobiliyati oshadi, o‘zlarini yaxshi his etishadi. Xonaga quyosh nurining to‘g‘ri va yaxshi tushishi uchun derazalarning hajmiga e‘tibor berish kerak. Agar deraza hajmi xona poli sathining yarmiga barobar bo‘lsa, xona yorug‘ligi me‘yorida bo‘ladi. Xona sathi 30 m<sup>2</sup> bo‘lganda derazalar hajmi kamida 6 m<sup>2</sup> bo‘lishi kerak. Shuni ham esda tutish kerakki, kir deraza oynalari 15—50 %, parda va to‘r pardalar 18—40 % yorug‘likni to‘sib qoladi. Xonaning oynavand devori tarafidan qarama-qarshi devorgacha bo‘lgan masofa 7 metrdan oshmasligi shart. Xonani

sun'iy yoritishda nur bir xilda yoyilishi va ko'zni qamashtirmasligi kerak. Noto'g'ri yoritishda ustaning ko'zi tez charchaydi. Ko'p sartaroshxonalarda kunduzi yorug'lik beruvchi luminessent lampalaridan foydalaniladi. U tabiiy yorug'likka yaqin nur chiqaradi, xona haroratini oshirmaydi, sochning rangini to'g'ri tasavvur qilishga imkoniyat beradi. Bu esa sochni bo'yashda qo'l keladi. Havo almashtirish ham normal ishlashning asosiy omili hisoblanadi. Derazaning tavaqasi va tuynugini ochish orqali havo almashtiriladi. Tuynukning kattaligi derazaning 1/6 qismidan kam bo'lmasligi zarur.

Ish o'rindiqlari ikki qator qilib joylashtirilgan bo'lsa, ularning oralig'i kamida 5 metr, oxirgi o'rindiqdan devorgacha bo'lgan oralig' 0,7 metr bo'lishi talab qilinadi. Ish zalida kimyoviy usulda shakl berilganda asbob ilib qo'yiladi, har 5 ustaga bitta bug' moslamasi o'rnatiladi. Manikur stoli yonida esa qo'l yuvish moslamasi (rakovina) o'rnatiladi. Pedikur xonalari issiq va sovuq suv bilan ta'minlanadi, oyoq yuvish uchun chinni vannalar bilan jihozlanadi. Vannalar chiqindi suvlarni oqizish tarmog'i (kanalizatsiya)ga ulanadi.

Mijoz o'tiradigan kursi va oyoq vannasi poldan 20—25 sm balandlikda joylashtiriladi. Xonada asboblari uchun stol, toza sochiq uchun javon, ishlatilgan sochiqlarni tashlash uchun maxsus idish bo'lishi kerak. Sochni quritishga mo'ljallangan xonada maxsus uskunalar o'rnatiladi.

Ayollar bo'limida har bir ish o'rindig'i uchun ikki nafar quritish moslamasi bo'lishi kerak. Agar moslama ish zaliga o'rnatiladigan bo'lsa, xona sathi yana ikki m<sup>2</sup> ga kengaytirilishi lozim. Shunda ish o'rindig'i bilan moslama o'rtasiga masofa 1,5 metr bo'ladi.

Yordamchi xonada issiq va sovuq suv bilan ta'minlangan qo'l yuvish moslamasi (rakovina), gaz yoki elektr plita, ustalar turadigan stol, toza asboblari qo'yiladigan oynavand osma tokcha, axlat uchun quruq idish va qirqilgan sochni solish uchun qattiq qog'ozli qop bo'lishi kerak.

Kiyim almashtirish xonasida ishchilar soniga qarab balandligi 165 sm, eni 33 sm, chuqurligi 50 sm bo'lgan ustki kiyim va ish kiyimi uchun alohida ikki tavaqali shaxsiy kiyim javoni o'rnatiladi.

Javonning pastki qismida poyabzal uchun quti yoki tokcha, yuqori qismida asboblardan uchun tokcha bo'ladi. Kiyim javonida havo almashib turishi uchun eshiklarida maxsus teshiklar bo'lishi kerak. Kiyim javonlari bir necha qator bo'lsa, ular orasidan o'tish uchun 1 metr joy qoldirish lozim. Kiyim yechish xonalarida kiyimni almashtirish uchun ajratilgan alohida 0,9×0,9 m bo'lgan bo'limlar o'rnatiladi. Kiyim yechish xonasiga yuvinish xonasi tutashgan bo'lib, har 15 kishiga 2 yuvinish xonasi talab qilinadi. Xizmatchilar xonasi qo'l yuvish, ovqatlanish va dam olish uchun lozim bo'lgan jihozlar bilan ta'minlanishi zarur.

Narsalarni saqlash xonalarida ishlatiladigan sochiqlarni taxlash uchun maxsus javon yoki tokcha, atir-upalarni saqlashga ham tokchalar yasaladi. Tez alanga oluvchi ashyolarni saqlash xonasi yonmaydigan materiallardan qurilishi, eshik va derazalar tirqishsiz, mahkam bekilishi zarur. Barcha sartaroshlik amallari «Sartaroshxona» deb atalgan, maxsus jihozlangan xonalarda bajariladi.

Sartaroshxonani joylashtirish uchun, odatda, binolarning birinchi qavati, hammomlar, sanitariya postlari, maishiy xizmat ko'rsatish binolari, vokzallar, katta korxonalar, o'quv yurtlari va maxsus qurilgan binolardan foydalanish ko'zda tutiladi. Agar yerto'laning chuqurligi 0,75 m.dan oshmagan bo'lsa, binolarning ostki qismida joylashtirish mumkin. Sartaroshxonaga kiraverishda yoki navbat kutish joylarida parfumeriya mahsulotlari sotuvini tashkil etishga ham ruxsat beriladi. 5 nafardan ortiq mijozga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan, ayollar va erkaklar sartaroshxonalarida quyidagi xonalar bo'lishi kerak:

1. Ustki kiyimni yechib, ilib qo'yish va navbat kutish uchun mo'ljallangan xona.

2. Xizmat ko'rsatish xonasi — ayollar va erkaklarning sochini olish, yuvish, quritish, bo'yash, manikur, pedikur va kosmetika xizmatlarini ko'rsatishga mo'ljallangan xonalar.

3. Yordamchi xonalar — ozodalikni saqlash uchun kerakli asboblardan, ishlatilgan, toza sochiq va choyshablarni, atir-upalarni, tez yonuvchi narsalarni saqlash xonasi.

4. Texnikaviy — havo almashtiruv va elektr bilan ta'minlash moslamasi. Bino alohida joylashgan bo'lsa, isitish tarmog'iga ega bo'lishi kerak. 1—2 nafar mijozga xizmat ko'rsatadigan sartaroshxonalar, odatda, 15—20 m<sup>2</sup> xonalarda joylashtiriladi.

5. Kishilarga xizmat ko'rsatadigan sartaroshxonalarda kirish joyi, yechinadigan joy va kutish xonasi, mutaxassislar xonasi va kiyim almashtirish joyi bilan qo'shib yuborilishiga ruxsat etiladi. Bunday hollarda toza, ishlatilgan sochiqlar va atir-upalarni saqlash uchun maxsus jihoz — tumbadan foydalanish mumkin.

## **18. ISH ZALLARINING ASBOB-USKUNALAR BILAN TA'MINLANISHI**

Sartaroshlik ishini tashkil etish degan iboraning mazmunida usta-sartaroshning mehnat va mahoratini ishxonada yaratilgan qulayliklar, asbob-uskunalar va moddiy xarajatlarni, mijozga yuqori malakali madaniy xizmat ko'rsatishga samarali yo'naltirishni tashkil etish yotadi. Maxsus jihozlangan sartaroshxonalarda quyidagi xizmatlar ko'rsatiladi: ayollar bilan erkaklar bo'limidagi xizmatlar, kosmetika, manikur, pedikur xizmatlari, ulama, yasama qo'shimcha sochlar va kokillarni yasash, ta'mirlash, tozalash va bo'yash xizmatlari. Yasama va qo'shimcha sochlarni yuvish va ta'mirlash maxsus ustaxonalarda ham bajariladi.

Ustalarning mahorati, ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati va murakkabligi, mijozlarga yaratilgan sharoitning saviyasiga qarab sartaroshxonalar bir necha daraja (razryad)ga bo'linadi: sartarosh-xona, salon-sartaroshxona, lyuks salon-sartaroshxonalar shular jumlasidandir. Sartaroshxona va salon-sartaroshxonalarda ishni tashkil etishning umumiy talablari quyidagicha:

1. Mijozlarga belgilangan talablarga javob beradigan sifatli sartaroshlik xizmatini ko'rsatish;

2. Sartaroshxonaning tashqi reklamasi va badiiy bezagi, unda ko'rsatiladigan xizmat turlari, usullari, narxi, ishlash vaqti va ustaxonaning darajasi (razryadi)ni aks ettirishi kerak;

3. Sartaroshxonaning o'zi va unga o'rnatilgan texnik asbob-uskuna va jihozlar belgilangan sanitariya qoidalariga, texnika xavfsizligiga va ishlab chiqarish sanitariyasi talablariga javob berishi lozim;

4. Sartaroshxona xizmatchilarining maxsus kiyimlari bo'lishi zarur;

5. Ish joyida ustaning malakasi to'g'risidagi axborot, ismi-sharifi yozilishi lozim;

6. Sartaroshxonalarda sohaga oid narsalarni sotish, mijozlarga qulaylik yaratish uchun boshqa xildagi pullik xizmat ko'rsatishni tashkil qilish mumkin.

Salon-sartaroshxonalarning ishini tashkil etishda qo'shimcha talablar ham qo'yiladi:

1. Salonlarda sochga badiiy shakl berib qir qiladi, unga shakl tanlash, qir qish, pardoz qilish sohasida maslahatlar beriladi;

2. Ishlar birinchi toifali usta, modelchi sartarosh, uch yildan ortiq mehnat faoliyatiga ega bo'lgan yuqori malakali manikur, pedikur va kosmetologlar tomonidan bajariladi;

3. Modelyer-sartaroshlar, birinchi darajali sartaroshlar, kosmetologlar, manikur va pedikur ustalari har yili zamonaviy usullardan xabardor ekanligini namoyish etishlari zarur. Uch yilda bir marotaba o'z darajasiga loyiqligi tekshirib turiladi.

Lyuks-salonlarni tashkil etishda quyidagi qo'shimcha talablar qo'yiladi:

1. Eng murakkab soch shakllariga ham yuksak badiiy mahorat, yuqori sifat bilan ishlov berish va hozirgi kunda ommalashgan yoki kelajakda rusum bo'ladigan soch shakllarining yangi va betakror namunalarini yaratish mumkin;

2. Lyuks-salonlarda sartaroshlarning umumiy sonidan eng kamida 25 % birinchi darajali ustalar bo'lishi, manikur, pedikur va kosmetologlar eng kamida to'rt yil ish faoliyatiga ega bo'lib, yuqori malakali, madaniyatli xizmat ko'rsata oladigan bo'lishi kerak;

3. Lyuks-salonlarda salon-sartaroshxonalarda belgilangan xizmat haqidan 25 % ustama narx belgilanadi. Xizmat ko'rsatishning boshqa turlari va tegishli sohadagi maslahatlar uchun ham ustama haq olinadi. Aholiga xizmat ko'rsatishning boshqa usullari: oldindan navbatga yozilish, uyda xizmatga chiqish usullari ham qo'llaniladi.

Uyga borib xizmat qilganda yo'lkira haqi, noqulaylikda xizmat ko'rsatgani uchun sartarosh qo'shimcha haq olishi mumkin. Sartaroshxonalarda ho'l, nam latta bilan tez artib tozalash mumkin bo'lgan jihozlar bo'lishi kerak. Yosh bolalarning sochini olish qulay bo'lishi uchun bo'yi-bastiga mos o'tirgichlar bilan ta'minlanishi lozim.

## 19. ASBOBLAR VA USKUNALAR

Sartaroshning ishi ko‘p jihatdan asboblarning sifati va xilma-xilligiga bog‘liq. Sartaroshning asboblari to‘rt turga bo‘linadi:

1. Soch tarash uchun — turli xildagi taroqlar.
2. Soch olish va qirqish uchun — elektr mashinkalar, qo‘l mashinkalari, qaychi va ustalar.
3. Sochni uzoq muddatga turmaklash uchun — koklushkalar, sterjen, zajim.
4. Sochga shakl berish — bigudi, qisqichli zirak, fen.  
*Taroqlar.* Taroqlarni to‘rt turga bo‘lish mumkin:



*Massajka*



*Cho‘tka*



*Ikki taraflama  
brashing*



*Brashing*



*Dumaloq brash*



*Bombaj*


6-rasm. Tishli taroqlar.

Tishlari siyrak bo‘lgan, uzunligi 15—20 sm, qalinligi 1 mm, oddiy konussimon metall taroq erkaklar va ayollar sartaroshxonalarida ishlatiladigan asosiy asbob hisoblanadi.

Tishlari ziyrak va uzun, katta dastali plastmassa taroq, asosan, ayollarning uzun sochlarini tarashda ishlatiladi.

Mayda tishli, dastasi ingichka mixsimon bo‘lgan plastmassa yoki metall taroqlar sochni mayda tutamlarga ajratib, ularni bigudi va koklushkalarga o‘rashda va sochga shakl berishga ishlatiladi. Taroqning mayda tishlarida shaklning tashqi taramlariga oro berilsa, mixsimon dastasi sochni ko‘tarib shakl berishda ishlatiladi.

Uchi mixsimon, uchli plastmassadan yasalgan yana bir taroqning tishlari birin-ketin kalta va uzun bo‘lib, tishlarning uchi



7-rasm. Taroqlar:

*a*—oddiy taroq; *b*—aralash taroq; *d*—erkaklar sochini kesish uchun aralash taroq; *e*—hurpaytiruvchi taroq; *f*—uchli taroq; *g*—taroqli ilmoq; *h*—bo‘yayotganda ishlatiladigan taroq; *i*—cho‘tkali taroq; *j*—uzun sochni taraydigan taroq (greben).

to‘mtiq, tomchisimon bo‘ladi. Bunday turdagi taroqlar sochning pastki qatlamiga o‘tmagan holda yuqoridagi sochlarni hurpaytirib shakl berishda, shishirilgan soch bir joyda to‘planib qolmaydi, osonlik bilan taraladi.

Usta foydalanayotgan taroqlar dezinfeksiyalangan suyuqlikka solib qo‘yiladi. Ish tugagandan so‘ng taroqlar sovunli iliq suvda yuviladi. Metall taroqlar spirt alangasida toblanadi.

*Sartaroshlik qaychilari.* Sartaroshlikda qaychilar katta ahamiyatga ega. Chunki ishning unumdorligi va sifati qaychiga bog‘liq. Qaychilar po‘latning eng yaxshi navlaridan yasaladi. Qaychilar qirqish qismi, harakatga soluvchi qism, aylanalar va biriktiruvchi vintdan iborat. Qaychilarning asosi ham qirqish qismi va uchidan iborat. Qaychilar ikki turga bo‘linadi: tekis va tishsimon.

Tekis qaychilar uchun asosli aylanasi kichik barmoq tiraladigan qo‘shimcha dumli, ikki aylananing birida qo‘shimcha rezinali bo‘lishi mumkin. Tishli qaychilardan yordamchi ishlarni bajarishda foydalaniladi. Soch kesishdan keyin tekislash va ma‘lum

oraliqqa borishni ta'minlaydi. Bunday qaychilarning tishi bir taraflama yoki ikki taraflama bo'lishi mumkin.


Qaychilarni malakali mutaxassis charxlaydi. Ularning o'tkirligi bir siqim yumshoq paxtali qirqish bilan tekshiriladi. To'g'ri va bir tekis charxlangan qaychi paxta siqimini bemalol qirqa oladi. Qaychilarni g'ilofda saqlagan ma'qul. Ularning uchlariga rezina naychalar kiydirib qo'yilsa, biror narsaga urilganda sinib ketishdan himoya qiladi. Ho'l sochga ishlatilgan qaychini quruq latta bilan artib qo'yg'an ma'qul. Vint bilan bir-biriga ulangan joyini har zamonda moylab yoki vazelin surtib qo'yish maqsadga muvofiq. Soch olishda qaychi, asosan, barmoqlarning birinchi bo'g'inida ushlanadi. Vintning boshi ustaga qaratilgan bo'lishi kerak. Tepa aylanasiga katta barmoq, kichik aylanasiga kichik barmoq kiydiriladi.

Soch olish mashinkalari ikkiga bo'linadi: qo'l mashinkalari va elektr mashinkalar.

Qo'l mashinkalari undagi prujinaning shakliga qarab, uchga bo'linadi: doirasimon, taqasimon va spiralsimon bo'lishi mumkin. Hamma mashinkalarni ish vaqti tugagach, qismlarga bo'lib, moylash tavsiya etiladi. Tozalab moylangach, u yig'ib sozlanadi. To'g'ri sozlangan mashinkani ishlatganda o'ziga xos ovoz chiqaradi. Har safar soch olishdan oldin mashinka mikroblardan xoli qilinadi.

Ish paytida mashinka o'ng qo'lda ishlanadi. Katta barmoq mashinkaning qimirlamaydigan dastasining chiqib turgan tirgagichiga taqaladi, boshqa barmoqlar harakatda keluvchi dastada joylashib, dastagi to'g'ri chiqib turgan tirgagich ko'rsatgich va o'rta barmoqlar orasiga joylashtiriladi.

Sochni olishda uning o'sish yo'nalishiga qarshi harakat qilinadi. Elektr mashinkalarining harakatga kelish tamoyiliga qarab ular turlarga bo'linadi. Ular plastmassa qoplamga ega. Mashinka elektr




8-rasm. Qaychilar:  
a—oddiy kesadigan; b—filirovkali.



dvigateli va bosh qismdan iborat. Elektr dvigateli va bosh qism o'rtasida harakatni uzatuvchi reduktor joylashgan bo'lib, u plastmassadan tayyorlanadi. U sinib ketmasligi uchun maxsus prujina bilan jihozlangan. Mashinka jamlanmasiga tok ulovchi sim moslama va bir necha keskichlar kiradi. Bosh qismining chap tarafida o'chirib-yoqadigan tugmachasi bo'ladi. Boshqa tarafida esa almashtirilib turiladigan kesish moslamalarini qotirib qo'yadigan tugmasi bor.

*Bigudilar.* Odatda, alumin qorishmasi yoki plastmassadan tayyorlanadi. Shaklan ular korpusga, silindrga yoki nayga o'xshagan. Bigudilar uzunligi 8—10 sm, diametri 1,5 dan 5 sm. gacha bo'lishi mumkin.

Metall bigudilarning ustki qoplamida soch quriyotganda ular orasidan issiq havoning aylanishi qulay bo'lishi va sochni tez quritish uchun mo'ljallangan juda ko'p teshiklar mavjud. Sochni o'rab, rezina boylab qo'yish uchun bigudining boshqa qismida tishchalar yoki chuqurchalar bo'lishi kerak.



9-rasm. Bigudi turlari.

*Qisqichlar — zajim.* Ular bilan ajratib olingan sochlar qistirib qo'yiladi. Qisqichlar idishdagi sochga surtilgan aralashma qaynaganda bosh terisini kuyib qolishdan asraydi. Ular yoni 0,8 sm, uzunligi 7—9 sm bo'lgan, metalldan yasalgan yupqa ikki bo'lakdan tayyorlanib, ochilib-yopilishga mo'ljallangan bo'ladi.



10-rasm. Qisqichlar.

Qisqichlar yupqa kokil yasashda ishlatiladi. Ularning turlari juda ko'p bo'lishiga qaramasdan, bir maqsadda — ho'l sochni quritganda unga berilgan shakl o'zgarmay qolishini ta'minlashda ishlatiladi. Odatda, uzunligi 3—4 sm bo'lgan qisqichlar ishlatiladi. Soch quritilib, unga yakuniy shakl berishda uzunligi 10—12 sm bo'lgan to'g'ri yoki yoysimon qisqichlardan foydalaniladi. Ular uzunligi bir xil bo'lgan, yopiq holda bir-biriga tegib, o'q orqali ulangan. Prujinali ikkita metall qismdan iborat bo'lib, ularning o'zini ochish uchun kichik pichoqdan foydalaniladi.

*Naycha va quritish idishlari.* Bular sochni o'rab quritishda ishlatiladi. Naycha (trubka)ning diametri 7—8 sm bo'lib, isitish idishining ichiga bemalol kirishga mo'ljallangan bo'ladi. Uning uzunligi 8—10 sm bo'ladi. Naychaning bir uchida qopqoq bo'lib, u isitish moslamasiga sochni joyga o'rab o'rnatilganda, moslamaning o'ziga mahkam berkitiladi. Isitish idishchasi (bannik) esa aralashma surtib naychaga o'ralgan sochni yaxshilab quritishga mo'ljallangan. Bu idishning diametri 2,5 sm bo'lib, bir tomoni qopqoq shaklida yopilgan bo'ladi. Ikkinchi uchi ochiq holda bo'lib, unga soch o'ralgan naycha kiritiladi. Idishda uzunasiga ochilgan 0,5 sm kenglikdagi ochiq ariqcha bo'lib, naycha joylashtirilganda undan soch o'rami o'tadi. Bu usulda soch quritilganda «qisqichlar» (zajim) ishlatiladi. Ular bilan ajratib olingan sochlar qistirib qo'yiladi. Qisqichlar idishdagi sochga surtilgan aralashma qaynaganda bosh terisini kuyib qolishdan asraydi. Ular eni 0,8 sm, uzunligi 7—9 sm bo'lgan, metalldan yasalgan yupqa ikki bo'lakdan tayyorlanib, ochilib-yopilishiga mo'ljallangan bo'ladi. Bo'lakchanning ikkinchi qismida esa berkitib qo'yiladigan qulfchasi ham bor. Har ikki bo'lakka ham rezina naycha kiydirilib yoki rezina yelimlab qo'yilgan bo'lib, ushbu rezinalar yordamida soch siqib turiladi.

*Tayoqchalar (коклюшки).* Sochga kimyoviy usulda shakl berishda ishlatiladi. Ular plastmassadan yoki qattiq daraxtlar yog'ochidan tayyorlanadi. Sochning sifatiga qarab diametri 3 dan 12 mm.gacha bo'lgan tayoqchalar ishlatiladi. Har ikki chetida o'ralgan sochni rezina bilan qistirib qo'yishga mo'ljallangan chuqurchalari bo'ladi. Tayoqchanning soch o'raladigan o'rta qismi ikki cheti bilan barobarlashadi va rezina taqilganda sochni chaynamaydi.

Ba'zi tayoqchalarning ustki qismida uzunasiga ochilgan ariqchalar bo'ladi. Bu sochga oldindan kimyoviy qorishmalar surmasdan tayoqchalarga o'rash usulini qo'llashga imkoniyat yaratadi.

Bigudilar, odatda, alumin qorishmasi yoki plastmassadan tayyorlanadi. Shaklan ular konusga, silindrga yoki nayga o'xshagan bo'lishi mumkin. Qanday ashyodan foydalanilishidan qat'i nazar, ular diametriga qarab turlarga bo'linadi. Ularning uzunligi 8—10 sm, diametri 1,5 dan 5 sm. gacha bo'lishi mumkin. Metall bigudilarning ustki qoplama sochni burab quritayotganda ular orasidan issiq havoning aylanishi qulay bo'lishi va sochni tez quritish uchun mo'ljallangan juda ko'p teshiklar mavjud.

Sochni o'rab rezinaband bilan boylab qo'yish uchun bigudining boshqa qismida tishchalar yoki chuqurchalar bo'lishi kerak. Metall bigudilarning afzalligi shundaki, quritish jarayonida metall qizib sochning tezroq qurishiga olib keladi. Albatta, bunda soch o'rami juda ko'p bo'lmasligi lozim.

Bigudining kamchiliklari:

- qotirib qo'yadigan rezinaband bigudining asos qismiga tegib turgan sochlarni yaxshi siqmasligi natijasida, quritilgan soch taralganda shakl yana o'z holiga kelib qolishi mumkin;

- qizdirilgan bigudilar mijozning bo'yni, chekkasi va quloqlarining uchini kuydiradi, natijada ularning teri bilan tegib turgan joylariga doimo paxta bo'laklarini qo'yib turishga to'g'ri keladi;

- qirqiladigan rezina bandlarini dezinfeksiya qilishning murakkabligi.

*Cho'tkachali metall bigudilar.* Bu bigudilarning mukammalroq turi hisoblanadi. Yopishib turadigan qoplama o'rniga tikansimon qoplama qo'yiladi. Undagi tikansimon tishlar orasiga o'ralgan soch tolalari bir maromda quritiladi. Bigudining tishlari soch o'ramini teshib turadi. O'ralgan sochni tirkab qo'yish usuli ham sochning to'planib qolishiga yo'l qo'ymaydi. Sochning yo'nalishi ham quritilganda o'zgarib ketmaydi. Bu usul ancha yengil bo'lib, sochning shakli ham chiroyli chiqadi.

Bu bigudining farqi yana shundaki, ichkaridan chiqib turadigan tikanlarning tashqi qoplamasidan chiqib turishini ta'minlash maqsadida iloji boricha ko'proq teshikchalar qilingan. Bunday bigudilarning uzunligi 8 sm, diametri 1,5 dan 5 sm. gacha bo'ladi.

Tishlari, ya'ni tikanaklarining uzunligi bigudining aylanasidan taxminan 1 sm ortiq bo'lishi lozim. U tikanchalar bilan soch o'ramini teshib turishi kerak. Bu bigudilarga soch o'ralgandan keyin ikkiga bukilgan, uchlari biroz dumaloq shakldagi 6—8 sm.li qattiq metall sim (shpilka) bilan qistirib qo'yiladi. Uzun sochlarni bo'shatish paytida sochlar chigallashib ketishi mumkin. Shunda

bigudining ichkari tarafiga qo‘l tiqib soch ilingan tikanchalar sug‘urib olinadi.

Natijada soch bemalol sochiladi. Soch bo‘shatib olingandan keyin tikanchani yana bigudiga o‘rnatib qo‘ysa bo‘ladi. Ish tugagach, tikanlarda ilinib qolgan sochlar bo‘lgan bo‘lsa, tozalab qo‘yiladi. Shu turdagi bigudilarning plastmassadan yasalgan har xil shakllari mavjud. Lekin ular amalda kam uchraydi.

*Qo‘l feni (quritgich).* Sochni quritish jarayonida unga turli xil shakllar berish mumkin. Buning uchun turli xil qo‘shimcha moslamalarni quritgichga birlashtirib ishlatiladi. Bular: grebyonka, forsunka, cho‘tka. Fenning turlari ko‘p, lekin ularning umumiy tuzilishi deyarli bir xil. Fenning metall dan yoki plastmassadan tayyorlangan asosida elektr havo purkagich, issiqlik muvozanatini saqlovchi moslama — termoregulator, qizdirish moslamasi va o‘chirib-yoquvchi tugma joylashadi. Tugmani bosish orqali qizdirish moslamasi va havo purkagich harakatga keltiriladi. Metall taroq birlashtirilgan quritgichdan foydalanayotganda ehtiyot bo‘lish kerak, chunki qizigan metall taroq mijozning terisini kuydirib qo‘yishi mumkin.

*Purkagichlar (pulverizator).* Bu moslamalar atir yoki tetiklash-tiruvchi suyuqliklarni sepish uchun ishlatiladi. Deyarli barcha sartaroshlik ishlari yakunida ishlatilishi sababli, ularning tuzilishi va kamchiliklarini bartaraf etish yo‘llarini bilish lozim. Ular shisha idish, qopqoq, sozlanadigan murvatli burchaksimon temir naycha, rezinadan yasalgan naycha va 1—2 ta klapanli to‘pchadan iborat.

Idish va burchaksimon temir naycha orasidan havo o‘tmasligi uchun qattiq qilib berkitiladi. Ichkarisidagi naycha tiqilib qolmasligi uchun uni vaqt-vaqti bilan ingichka sim yordamida tozalab turiladi. Murvat tiqilib qolganda uni yechib olib tozalash mumkin. Agarda purkagich lok sepishga ishlatilsa, ish yakunidan keyin uning ichlari atir yoki spirt bilan tozalanadi.

Agar sochni ham qattiq, ham tabiiy qilib buramoqchi bo‘lsangiz, bigudidan foydalangan yaxshiroq. Avval yuvilgan soch biroz quritilib, bigudiga o‘raladi. Sochga kerak bo‘lgan taranglik, uni bigudiga o‘rab to‘la quritgunga qadar bajariladi. Bunda vaqt ham tejiladi.

Bigudidan soch tutamini ajratib olish uchun dastali, ingichka tishli taroq va o‘rashdan oldin qurib qolgan soch tutamini ho‘llab turish uchun suv purkagich ham kerak bo‘ladi. Soch tutamini ajratib olishda uning kengligi bigudining uzunligidan oshib ketmasligiga e‘tibor berish kerak. Bigudida aniq kenglikda o‘ralgan

soch kutilgan natijani beradi. Har bir o‘ram boshning shakliga mutanosib ravishda, soch tomirining asosigacha, qiyshaytirmasdan o‘ralishini ta‘minlash lozim. O‘ramning qattiq chiqishiga bu ham ta‘sir etadi. Bigudining ichidagi o‘qlog‘i qancha tig‘iz joylashsa, o‘ram ham shuncha mustahkam bo‘ladi. Buning uchun sochni o‘rashdan oldin mijozga og‘riq sezdirilmagan holda biroz tortish kerak. Porolonli bigudida ishlash ancha qulay. Chunki sochning uchlari o‘qdonning ustidagi mayda bo‘rtmalarga yaxshi ilinib qoladi va o‘raganda chiqib ketmaydi.

Bigudiga sochlar tiqilib to‘planib qolmaydigan qilib qotiriladi. Bunday holat ko‘pincha bigudini rezinkaband yoki maxsus tirkagich (skoba) bilan qotirganda yuz berishi mumkin. Agar bigudini plastmassa tirkagich (shpilka) bilan qotirilsa, salbiy natijalarning oldini olish mumkin. Shpilka iloji boricha o‘ramning yo‘nalishiga qarshi shunday tirkash kerakki, uning uchi bundan oldin o‘ralgan (valik) o‘qdonning ustiga tirkalib tursin. Eng birinchi bigudi, odatda, peshananing ustida bo‘ladi va u holda shpilka bosh terisiga tegib turadi.

Soch o‘rashni har doim boshning old tomonidan boshlab, orqa tomonga davom ettiriladi. Har doim ish boshning oldi markazidan boshlanadi. Agar soch uzun bo‘lsa, soch tutamini kamroq ajratib olish lozim. Ko‘proq olingan holda uning qurishi qiyin bo‘ladi. Soch kalta bo‘lib, uni o‘rash jarayonida sirpanib ketavergan taqdirda, uning uchiga yupqa qog‘oz o‘ralsa, ish oson kechadi. Mijozning sochi nozik bo‘lsa, uni o‘rashdan oldin qotiruvchi suyuqlikda namlab olish lozim. Shunda shakl mustahkam bo‘ladi. Shuni ham unutmaslik kerakki, nozik va siyrak sochlarga faqat eng yengil qotiruvchi suyuqliklar to‘g‘ri keladi.

## **20. ELEKTR ASBOBLAR VA USKUNALAR**

*Qizdiruvchi moslamalar.* Ular ikki turga bo‘linadi: tashqi tarafdan qizdiruvchi va elektr qizdiruvchi moslamalardan iborat. Ular temirdan yasalgan bo‘lib, dastali temir qalamcha, dastali temir naycha va ularni birlashtirib qo‘yadigan qisqichlardan iborat bo‘ladi. Soch qalamchaga o‘ralib, naychaga joylashtiriladi va og‘zi yopib qo‘yiladi. Erkaklar xonasida sochni jingalak qilish uchun 5—8 mm, ayollar uchun 10—12 mm diametrli tayoqchalardan foydalaniladi.

Elektr toki yordamida qizdiriladigan metall tayoqchalar dastali elektr qizdirgichlarga oʻrnatilib qizdiriladi. Qizdirgichning ichida tashqari tomondan himoya qopqogʻiga ega boʻlgan elektr «spiral» sim joylashgan. Issiqlikni 150—200°C atrofida muvozanatda saqlab turuvchi moslamasi mavjud. Qoʻllar hoʻl boʻlgan holatda elektr isitgich asbobdan foydalanish mumkin emas.

Zamonaviy quritgichlar kuchli elektr asboblari hisoblanadi. Eng kuchlilari 250 W kuchlanishgacha yetadi. Ularning ustunligi shundaki, havo qanchalik kuchli kelsa, kelayotgan havoning qisishi shuncha past boʻladi. Bu soch kabi tabiatan nozik boʻlgani uchun juda muhim. Fenning kuchlanishi faqat yuqori elektr bilan belgilanmaydi. Sartaroshning ishi mushkul boʻlib, u sabr-bardoshni, diqqat va mahoratni talab qiladi. Shuning uchun purkagich bilan ishlayotgan sartarosh quyidagilarga eʼtibor berishi lozim:

1. Asbob qoʻlga qay darajada mos tushishiga, oʻchirib-yoqish tugmalarining qulay joylashganligiga;
2. Uzoq quritish va shakl berish jarayoni qoʻlni toliqtirmasligiga;
3. Ovozi yetarlicha past emasligiga;
4. Fenni aylantirib ishlatganda tokka ulangan sim oʻralashib qolmasligiga;
5. Fenni ishlatishdan maqsad nimaligiga.

Agar maqsad faqat sochni quritishning oʻzi boʻlsa, unda kuchli shamol beruvchi quritgichdan foydalanilsa, vaqt ancha tejaladi. Fendan foydalanishdan maqsad ham quritish, ham sochni oʻrab shakl berish boʻlsa, uch xil issiqlik oqimidan foydalangan maʼqul. Yuqori daraja — sochni dastlabki quritib olish, oʻrta daraja — sochni oʻrab olish, past daraja — oʻralgan sochlarni sovitishda ishlatilsa maqsadga muvofiq hisoblanadi. Sochga «shishirilgan» shakl berish uchun quritgichga birlashtiriladigan qoʻshimcha moslamalardan ham foydalanish qulay. Fen kimyoviy usulda buralgan sochlarni quritishda ishlatilganda havoni tarqatib beruvchi moslamani birlashtirgan maʼqul. Chunki bu moslama kuchli havo oqimini yengil shabadaga aylantirib berish xususiyatiga ega boʻlib, sochlarni yoyib yubormasdan, berilgan shaklni saqlab qolgan holda qurita oladi.

Sochni hurpaytirish uchun ikkita turli oʻlchamdagi aylana taroq va bitta aylana taroq majmuyidan foydalangan maʼqul. Soch quritish — oddiy amal emas. Fen va taroqdan mohirona foydalangan sartarosh mijoz sochiga jilo va koʻrkam tus berishga qodir. Bunday natijaga erishish uchun fen bilan ishlashning muhim

usullaridan xabardor bo'lish lozim. Fen bilan ishlaganda sartarosh soch bilan asbob o'rtasidagi masofani saqlay bilishi kerak, oraliq masofa taxminan 20 sm bo'lishi zarur. Masofa qisqargani sari issiqlik darajasi ortib boradi.

Hozirgi paytda sezgir (sensor) moslamalar bilan jihozlangan asboblardan mavjud. Ular masofaga qarab issiqlikni moslashtirib beradi. Fenni qo'lda shunday tutish kerakki, issiqlik soch tomiridan uchi tomon yo'nalishi ta'minlansin. Shundagina sochning qatlami silliq bo'lib qoladi va soch yana ham jilolanadi. Soch kalta qilib olingan taqdirda avval soch o'z shaklida taralib, undan keyin «oqimga qarshi» fen yordamida taraladi. Sochga bu usulda hurpayganroq shakl berish uchun mijozning boshi oldinga biroz egiladi.

Soch yarim uzun yoki uzun bo'lsa, mijoz (ayollar)ning boshi old tarafga egilib sochlar orqadan oldinga qarab «oqimga qarshi» fen yordamida taraladi. Soch yarim quruq holga kelganda esa bosh o'z holatiga ko'tarilib, sochga yakuniy shakl beriladi. Bunday quritish usuli sochga issiq havo yordamida shakl berish ham deyiladi. Bu usul o'rtacha uzunlikdagi yoki kalta, to'g'ri yoki ozroq to'liqsimon sochlarga shakl berishda, ayniqsa, qo'l keladi. Havo yordamida shakl berilgan sochlar qattiq, egiluvchan va hajmli bo'ladi. Bunda oddiy temir taroq va dumaloq taroqlardan foydalanish mumkin.

Ingichkaroq dumaloq taroqlar bilan sochga burama shakl bersa ham bo'ladi. Uzun sochlarga havo bilan shakl berish unchalik to'g'ri kelmaydi. Uzun sochlarga shakl berish ko'p vaqtni talab qilishiga qaramasdan fen vositasida berilgan shakl uzoqqa bormaydi. Shuning uchun tirkama taroqni unchalik qirmasdan ishga solgan ma'qul. Ho'l sochga berilgan shaklning foydasi yo'q. Sochning tepa qismlarini bosh ustiga qotirib qo'yib, ostki sochlardan boshlash maqsadga muvofiq. Shunday qilganda shakl berilgan pastki sochlarga qurimagan tepa sochlarning nomi o'tmaydi.

Har bir soch tutamini taroqni burab, biroz tortgan holda oqimga qarshi tarab chiqish kerak. Soch tutami to'la qurimaganicha shu usulni bir necha bor qaytarish lozim. Ingichka dumaloq taroq yordamida sochning qattiqligiga qarab to'liqlikni ko'rinib beriladi. Bunda fen soch tutami taroqqa butkul o'ralgandan keyin ishlatiladi. Sochning uchi va tomirining yonlari kattaroq diametrlilik dumaloq taroq bilan quritib chiqiladi. Har bir soch tutamini avval issiq havo yordamida taroq bilan butkul quritib olib, keyin sovuq havo bilan sovitiladi. Shunday qilganda sochning va shaklning mustahkamligi va qattiqligi saqlanib qolinadi. Agar kalta sochlarni

yarim quruq holatida ildizi atroflariga lok surtib yuborilsa, hurpayganroq shakl hosil qilish mumkin. Buning uchun soch orasiga barmoqlarni tiqib sochning uchlaridan biroz tortgan holda fen bilan havo yuboriladi. Oxirida qo'lni siqib soch uchlarini to'lginsimon qilib bukiladi.

Jingalak sochlar jozibasini bo'rttirib, tabiiy qilib ko'rsatish uchun qotirishga mo'ljallangan ko'pikli suyuqlik sochga ishqa-langach, sochni biroz boshga bosgan holda kaft ostidan issiq havo purkash kerak bo'ladi. Soch tutamiga yirik o'rama shakl berish uchun dumaloq cho'tka taroqqa burab fen bilan quritiladi.

- Quritilgan soch o'ramini fenda sovuq havo bilan quritgandan keyin qisqich bilan qisgan holda soviguncha ushlab turish lozim.

- Kalta sochni «tik» holatda saqlash uchun uni tepaga tortgan holda quritish kerak. Soch tolalari mayin bo'lgach, unga qotiruvchi aralashma surtiladi.

- Sochni «o'g'il bolalar» shaklida olish uchun barmoqlar yordamida shakl bergan ma'qul. Bunda sochni ko'pikli qotiruvchi suyuqlik bilan yuvib, barmoqlarni soch orasiga tiqqan holda ushlab, orqaga tortib quritgan ma'qul. Bundan so'ng sochni tarab yubormaslik zarur.

- Sochni qayirib yotqizishda yaxshisi tirkaladigan taroqlar jamlanmasidan foydalanish kerak. Ikkita har xil diametrlil dumaloq taroq va bitta yarim aylana taroqdan foydalanganda shakl turg'un hamda hurpaygan holatda bo'ladi.

- Yaxshi fen sartarosh ishlarining sifatini ta'minlaydi. Zamonaviy fenlar juda kuchli bo'lib, sharoitga qarab havo haroratini sovuqdan juda issiqqacha o'zgartirish imkoniyatiga ega. Qo'lni turli holatlarda tutishga imkoniyat yaratuvchi aylana dastali fen juda qulaydir.

- Havoni mayinlashtirib beruvchi moslamali fen tabiiy va sun'iy jingalak qilingan sochlarga shakl berishga moslashgan. U havoni yumshatib turganligi tufayli fenni sochga yaqin tutishga imkon beradi.

## 21. ELEKTR APPARATLAR

*Soch quritishda ishlatiladigan SSH-1 yarim avtomat apparatlar.* Bu asbob sartaroshxonalarda sochni quritish uchun mo'ljallangan bo'lib, havoni 40—65°C isitib beradi. Havoning harorati termostregulator yordamida avtomatik ravishda me'yorlab turiladi. Ishlash muddati vaqt relesi bilan, issiq havoni haydab berish kuchini



elektr dvigatelning aylanish tezligini oshirish yoki kamaytirish orqali me'yorlanadi. Bu dastgoh qurituvchi qalpoq, oshiq-moshiqli moslama, dastgoh tepaga ko'tarib-tushiriladigan trubasimon moslama, uni tik holatda tutib turadigan to'rt oyoqli tirgovuch ustidagi g'ildiraklardan iborat.

Quritish qalpog'i vertikal yo'nalishda tepaga va pastga oshiq-moshiqlar yordamida 50°C ga qayrilishi mumkin. U gorizontaal yo'nalishda burilishi ham mumkin. Trubasimon moslama tepaga va pastga ko'tarilib-tushiriladi va kerakli balandlikda maxsus moslama bilan qotirib qo'yiladi. Qalpoqni ko'tarib-tushirishda moslama murvatini bo'shatib, qotirib qo'yiladi. Dastgohni boshqarish panelida vaqtni, havo yo'nalishini boshqarib turadigan maxsus tugmachalar buraladigan moslamalar bor.

*Foydalanish qoidalari.* Dastgohda soch issiq havo oqimi bilan quritiladi. Uni sochning hammasi uchun havoni tarqatib beruvchi qalpoq ichida joylashadigan qilib o'rnatish lozim. Uni ishga tushirishdan oldin yerga ulanganligini tekshirib ko'rish kerak. Tokka tiqishdan oldin esa paneldagi barcha tugmachalarini kerakli joyiga burab chiqish zarur.

Haroratni 0°C belgisiga, havo oqimini «maksimum» belgisiga, vaqt tugmachasini oxirigacha burash zarur. Dastgoh ishlaganda paneldagi bu haqda ogohlantiruvchi chiroqlar yonadi. Soch quritish uchun qalpoqda tarqalayotgan havoning zarur haroratiga 30—60°C kerak bo'ladi. Dastgoh ishlab turganda vaqt, harorat va havo oqimini o'zgartirib turishi mumkin. Usta belgilab qo'ygan vaqt o'tgach, rele ishga tushadi va dastgoh hamma vazifalarni avtomatik ravishda to'xtatadi.

Soch qurigach, havo jo'natish tugmasini oxirigacha burab qo'yiladi. Dastgohni mijozning o'zi ishlatishiga yo'l qo'ymaslik va nazoratsiz qoldirmaslik lozim. Ish tugagach, dastgoh tokdan ajratiladi, lekin yerga ulangan sim ajratilmaydi.

*TK-3 soch quritish dastgohi (sushuar).* U bir kishining sochini quritishga mo'ljallangan dastgoh hisoblanib, qurituvchi va havo haydab beruvchi moslamadan tashkil topgan. Dastgoh o'rindiqqa mahkamlanadi va u quyidagi qismlardan iborat bo'ladi:

1. O'rindiqqa mahkamlangan soch quritishning oldingi qismi yelim shishadan tayyorlangan bo'lib, mijoz o'tirayotganda ochiladi. Shuningdek, u elektr dvigatel va havo parragi bilan jihozlangan. Uning ichida esa havoni qizdirib beruvchi spiral va boshqa elementlar bor.

2. O'rindiqning suyanchig'ida dastgohni o'rnatib qo'yadigan maxsus moslama bor. Dastgohni tepaga va pastga ko'tarib yoki tushirgan holda kerakli balandlikda qotirib qo'yish mumkin. Uning panelida yoqib-o'chiradigan tugmachalar va kuyib ishdan chiqishning oldini oladigan himoya vositasi bor. Dastgohni yerga ulash shart. Uning uchun o'rindiqning oyog'ida maxsus murvat joylashgan. Yerga ulangandan keyin dastgohni tokka ulashdan oldin tugmachasi o'chirilgan holatda turganiga ishonch hosil qilish kerak. Keyin 220 V kuchlanishli tokka ulanadi.

Mijozga xizmat ko'rsatishdan oldin dastgohning oynasini ko'tarib, uning balandligini to'g'rilab olish kerak. Mijoz o'tirgach, oynakni pastga tushirib, uning hamma sochlari dastgoh ichiga joylashishini ta'minlash lozim. Keyin dastgoh ishga tushirilib, avval qizitish unsurlari, keyin havo parragi ishga solinadi. Havo parragi ishlamasa, dastgohdan foydalanish mumkin emas. Havo birinchi bosqichda 300 W qiziydi. Ikkinchi bosqichda 450 W qiziydi. Har ikki bosqich ishga tushirilsa, qizish 750 W ga yetadi. Eng yuqori haroratda qizdirilsa, turmaklangan soch 15 daqiqa ichida butunlay quriydi.

Agar dastgoh yoqilganda havo parragi aylanmasa, uning tokka to'g'ri ulanganligini tekshirib ko'rish kerak. U to'g'ri ulangan va chiroq o'chib qolmagan bo'lsa, himoya moslamasini ko'zdan kechirish kerak. Buning uchun u joylashgan panel ochiladi. Uni almashtirish uchun eng avval dastgohni tokdan o'chirib qo'yish kerak. Himoya vositasi 5 amperli bo'lsa, uni faqat 5 amperligi bilan almashtirish shart. Boshqasini qo'yish man etiladi. Agar u ishdan chiqqan bo'lsa, mutaxassislarni taklif qilish lozim. Bilmagan odam uni butunlay ishdan chiqarishi mumkin.

## **22. XAVFSIZLIK QOIDALARI VA YONG'INGA QARSHI TADBIRLAR**

*Yong'inning oldini olish choralari.* Sartaroshxonalar gaz, suv, kanalizatsiya va havo almashtirish tizimi bilan ta'minlangan bo'lishi zarur. Suv, ichimlik suvi ГОСТ 2874\74 talabiga javob berishi kerak. Sartaroshxona markaziy suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimiga ulanganda hojatxona va qo'l yuvish moslamasi (rakovina) quriladi. Bosh ish zalida yuviladigan bo'lsa, u holda xonaga 1—2 ta qo'l yuvish moslamasi o'rnatiladi. Manikur va pedikur xonalarida ham qo'l yuvish moslamasi bo'lishi zarur.

Xonadagi harorat 18—20°C, bosh yuvish va quritish xonasida 22°C, yuvinish xonasida 25°C dan oshmasligi kerak. 20 dan ortiq ish o‘rindig‘iga ega bo‘lgan zallarda havoni almashtirish va yoz kunlarida sovitib turish uchun avtomat konditsionerlar o‘rnatish tavsiya etiladi. 3—5 kishi ishlaydigan xonalarda deraza tavaqasi yoki tuynugi orqali havoni almashtirib turish mumkin. Sartaroshxona boshqaruvchisi kamida 1 yilda bir marta barcha xizmatchilarni yong‘inning oldini olishga oid ko‘rsatmalar bilan tanishtiradi. Tor yo‘laklar va o‘tish joylarini narsalar bilan to‘sib qo‘yish taqiqlanadi. Qo‘yilgan himoya o‘tkazgichlar (предохранитель) o‘rniga turli simlardan foydalanish man qilinadi. Xonani isitish uchun elektr isitgichlaridan foydalanish, ruxsat etilmagan joyda chekish, gugurt yoqish, sigaret qoldig‘ini tashlash mumkin emas.

Sartarosh biror joyga chiqqanda qizuvchi asboblarni o‘chirib ketishi talab qilinadi. Elektr chiroqlariga, tokka ulanadigan joylarga ro‘molcha va qog‘ozlarni ilib qo‘yish, isitish tizimi va asboblarni ustiga sochiq, paxta choyshablarni ilib quritish taqiqlanadi. Qizdirish uchun ishlatiladigan asboblarni o‘rnatishdan oldin ular ostiga olovga bardosh bera oladigan narsa qo‘yish talab qilinadi. Har 100 m<sup>2</sup>.ga bir dona olov o‘chirish moslamasi (огнетушитель) bo‘lishi zarur. Hamma sartaroshlar yong‘inning oldini olish qoidalariga rioya qilishlari, kamida 3 oyda bir marotaba sartaroshxonani butkul tozalab tartibga keltirishda ishtirok etishlari shart.

Sartaroshxona boshqaruvchisi ishchilar orasidan ustalarni tanlab, o‘t o‘chiruvchi guruhi tuzib, ularning o‘qishini tashkil qilishi kerak. Boshqaruvchi yong‘inning oldini olishga mo‘ljallangan asbob va moslamalarning mavjudligi va shayligiga javob beradi. Oxirgi ishchi xonadan ketayotganda (chiroqlar, elektr uzatkichlar, isitish moslamalarining o‘chirilganligi) yong‘in xavfsizligi qoidalari bajarilganligi to‘g‘risida qayd qilish daftariga yozib qoldirishi lozim.

*Xonani pardoqlash.* Xona devorlari yaxshilab suvoq qilinadi. Devorlar shipgacha yoki 1,8 m balandlikkacha yog‘li bo‘yoq yoki boshqa suv o‘tkazmaydigan bo‘yoqlar bilan bo‘yaladi. Sartaroshxonalar devorlariga gulli qog‘ozlar yelimlash taqiqlanadi. Yordamchi, bosh yuvish, narsalarni saqlash, hojatxona va yuvinish xonalari devorlari chinni plitkalar (kafel) bilan qoplanadi. Pol bir tekisda bo‘ladi, yoriqlar, o‘nqir-cho‘nqir joylari bo‘lmasligi lozim. Polni ba‘zi materiallar bilan qoplash faqat sanitariya xodimlari ruxsati bilan amalga oshiriladi.

*Xonalarni ta'mirlash va ozodaligiga rioya qilish.* Xonalarni kamida bir yilda bir marotaba oqlash va bo'yash lozim. Sanitariya xodimlari talabiga ko'ra, bu ishni bir yilda bir necha bor qilish ham mumkin. Sartaroshxona ish boshlanishidan oldin yoki ish tugagach obdan tozalanadi. Ish davomida esa doim yig'ishtirilib turiladi.

Sartaroshxona bir oyda bir marta bir kunga yopilib, sanitariya tadbiri o'tkaziladi. Zararkunandalarni yo'qotish uchun xlor qorishmasidan 0,5 % qo'shilib aralashtirilgan suyuqlikdan foydalanish maslahat beriladi. Qirqilgan sochlar o'tirg'ich atrofidan supurib olinib, qattiq qog'ozdan tayyorlangan maxsus qopga, chelak yoki og'zi yopiladigan idishga tashlanadi. Ish tugagach, (haftada kamida ikki marta) yig'ilgan sochlarni yoqish yoki chiqindi tashiladigan mashinalarga ortib yuborish mumkin. Agar xonada suvarak, kalamush, chivinlar paydo bo'lsa, sanitariya va epidemiologiya bo'limi xodimlariga murojaat qilinadi.

*Ishlab chiqarishdagi xavfsizlik texnika qoidalari.* Sartarosh-usta ish faoliyatida quyidagilarga rioya qilishi lozim:

- ustara bilan ishlayotganda chalg'imasligi va mijoz bilan gaplashmasligi kerak;
- ustaraning tig'i almashtirilayotganda ustaning qo'li quruq bo'lishi va bu amal stol ustida bajarilishi lozim;
- qaychi, taroq yoki boshqa o'tkir asboblarni xalatning yuqori qismidagi cho'ntagida saqlash man etiladi;
- issiq suv bilan bosh yuvilganda uning haroratiga e'tibor berish kerak;
- sochni kimyoviy usulda bo'yash va turmaklash jarayonida bosh terisi yog'sizlanib ta'sirchanligi oshadi. Shuning uchun suvning harorati taxminan 40°C dan oshmasligi zarur;
- quloq chanog'i ichidagi ortiqcha tuklarni olib tashlashda mijozning qulog'iga shikast yetkazmaslik uchun ehtiyot bo'lish kerak. Quloq chanog'ida ko'plab qon tomirlari mujassam bo'lib, jarohat yetkazilganda qonni to'xtatish mushkul bo'ladi;
- bo'yin qismini qirtishlaganda so'gal va ortiqlarni kesib yuborishdan ehtiyot bo'lish kerak. Chunki bunda ham qon to'xtatish og'ir kechadi;
- kesilgan joylarda qoni to'xtatish uchun yod yoki vodorod peroksididan foydalaniladi;
- boshga atir yoki lok sepilayotganda mijozning ko'ziga sachrashdan ehtiyot bo'lish lozim;

- pergidrol bilan ishlaganda sartarosh ehtiyot bo‘lishi kerak. Aralashma 9 % dan oshmasligi ta’minlangan holda mijozning boshi 2—3 kundan oshiq yuvilmagan bo‘lib, soch yog‘lanib ketganda ishlatiladi. Agar mijozning sochi 2 kun avval yuvilgan bo‘lsa, unda aralashma 2—3 % dan oshmasligi kerak. Pergidrol bilan ishlaganda o‘lchash idishidan foydalanish tavsiya etiladi;

- sochga ochiq rang beruvchi aralashma tayyorlashda novshadil spirtidan ko‘p foydalanish tavsiya etilmaydi. Chunki u bosh terisining kuyib qolishiga olib kelishi mumkin;

- elektr moslamalarning yerga ulanganligini kuzatish tavsiya etiladi. Qo‘llar ho‘l bo‘lgan holda uskunalarni tokka ulash yoki ayirish taqiqlanadi.

### **Nazorat savollari**

1. Sartaroshxonalar necha turga bo‘linadi?
2. Salon bilan oddiy sartaroshxonalarning farqi nimada?
3. Sartaroshxonalarni jihozlash tartiblari qanday amalga oshiriladi?
4. Sartaroshxonalarning sanitariya-texnik tuzilishi nimaga asoslangan?
5. Necha kvadrat metrda o‘t o‘chirish moslamasi bo‘lishi zarur?
6. Yong‘inning oldini olish bo‘yicha qanday choralar mavjud?
7. Sartaroshxonalarni qayerda joylashtirish qulay?
8. Sartaroshxonalarni joylashtirish tartiblari qanday?
9. Sartaroshxonalarda qanday asbob-uskunalardan foydalaniladi?
10. Qanday qaychi va taroq turlari bor va ular qanday dezinfeksiya qilinadi?

---

## MUNDARIJA

|  |    |
|--|----|
| Kirish.....  | 3  |
| 1. Kosmetik mahsulotlarning kimyoviy tarkibi.....  | 6  |
| 2. Parfumeriya-kosmetik mahsulotlarni ishlab chiqarish<br>uchun ishlatiladigan xomashyo..... | 7  |
| 3. Parfumeriya-kosmetik mahsulotlar.....   | 8  |
| 4. Soch va teri parvarishi uchun ishlatiladigan mahsulotlar.....                             | 14 |
| 5. Yuvuvchi mahsulotlar.....   | 18 |
| 6. Hidli suv va losyonlar.....   | 20 |
| 7. Sochlarni jozibali parvarishlash vositalari.....  | 22 |
| 8. Soch va boshni profilaktik parvarishlash.....   | 24 |
| 9. Jozibali kosmetika vositalari.....  | 28 |
| 10. Parfumeriya vositalari.....  | 33 |
| 11. Qo'l va tirnoqlarni parvarishlash uchun vositalar.....                                   | 38 |
| 12. Kosmetik vositalarni yoshga va o'ziga xos<br>xususiyatlariga qarab qo'llash.....         | 41 |
| 13. Kosmetika vositalarining ta'sir kuchi.....   | 45 |
| 14. Dezinfeksiyalovchi, qon to'xtatuvchi<br>va yordamchi materiallar.....                    | 50 |
| 15. Elektr energiyasining ishlatilishi.....  | 53 |
| 16. Elektr texnik o'lchovlar.....  | 55 |
| 17. Sartaroshxonalarining joylashishini rejalashtirish.....                                  | 57 |
| 18. Ish zallarining asbob-uskunalar bilan<br>ta'minlanishi.....                              | 60 |
| 19. Asboblar va uskunalar.....   | 62 |
| 20. Elektr asboblar va uskunalar.....  | 69 |
| 21. Elektr apparatlar.....   | 72 |
| 22. Xavfsizlik qoidalari va yong'inga qarshi tadbirlar.....                                  | 74 |

**N.N. RAHIMOVA, V.A. KONDRASHOVA**

**SARTAROSHLIK ISHLARI MATERIALLARI  
VA ASBOB-USKUNALARI**

*Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2016

Muharrir *I. Usmonov*  
Badiiy muharrir *M. Burhonov*  
Texnik muharrir *D. Hamidullayev*  
Musahhah *T. Mirzayev*

Nashriyot litsenziyasi №AI 275, 15.07.2015-y.

2016-yil 15-fevralda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi  $60 \times 90^{1/16}$ .

«Times» harfida terilib, ofset usulida chop etildi.

Bosma tabog'i 5,0. Nashr tabog'i 4,5. 792 nusxa.

Buyurtma № 24.

«ILM ZIYO» nashriyot uyi. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

«PAPER MAX» xususiy korxonasida chop etildi.

Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

**K67 Rahimova N.N., Kondrashova V.A.**  
**Sartaroshlik materiallari va asbob-**  
**uskunalari.** Kasb-hunar kollejlari  
uchun o‘quv qo‘llanma. / — T.: «ILM  
ZIYO», 2016. — 80 b.

UO‘K: 687.53.05(075)  
KBK: 38.937

ISBN 978-9943-16-259-4